

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**RAXMATULLAYEVA F.M., ABDULLOYEV A.J.,
GIYAZOVA N.B., NARZULLAYEVA G.S.**

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT VA
RAQOBAT MENEJMENTI**

O'quv qo'llanma

I qism

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021**

UO'K 339.137.2(075.8)

65.428я7

T 29

Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti [Matn] : o'quv qo'llanma /F.M. Rahmatullayeva [va boshq.] .-Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti,2021.-152 b.

КБК 65.428я7

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'limning 5233300 - "Agrobiznes va investitsion faoliyat" bakalavriat yo'nalishi uchun tasdiqlangan namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilgan "Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti" o'quv fanining namunaviy dasturiga asosan tayyorlangan. Mazkur fan 1-moduli «Tashqi iqtisodiy faoliyat»ning asosiy masalalari qisqa va tushunarli tilda bayon etilgan, o'zining mazmuni va mohiyati jihatidan hozirgi zamonning talabiga to'raligicha javob beradi. Barcha keltirilgan ma'lumotlar talabalar, magistr'larga tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmentini nazariy jihatdan chuqurroq anglash imkonini beradi. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida o'qiyotgan bakalavr, magistr'larga va mazkur fanni o'qitadigan professor-o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

i.f.n., dotsent M.M. Tairova

i.f.n., dotsent N.M. Ziyavitdinova

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.
Ro'yxatga olish raqami 110-319.**

ISBN 978-9943-7082-7-3

Данное учебное пособие составлено с учетом требований государственных образовательных стандартов Республики Узбекистан и подготовлено на основе типовой программы учебного предмета «Внешекономическая деятельность и менеджмент конкуренции» утвержденным для направления бакалавриата высшего образования 5233300 - "Агробизнес и инвестиционная деятельность". Предметный 1-Модуль «Внешекономическая деятельность» изложен кратким и понятным языком, по своему содержанию и сути полностью отвечает современным требованиям. Вся представленная информация позволяет студентам, магистрам получить более глубокое теоретическое понимание внешнеэкономической деятельности и управления конкуренцией. Учебное пособие предназначено для бакалавров, магистров обучающихся по направлению Экономика и для профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений.

Рецензенты:

к.э.н., доцент М.М. Таирова

к.э.н., доцент Н.М. Зиявитдинова

PhD, З.С. Нуров

This textbook is compiled taking into account the requirements of the state educational standards of the Republic of Uzbekistan and is prepared on the basis of the standard curriculum of the subject "Foreign economic activity and competition management" approved for the direction of the Bachelor of higher education 5233300 - «Agribusiness and investment activity». 1-Module of the subject "Foreign Economic Activity" is presented in a concise and understandable language, its content and essence fully meets modern requirements. All the information provided allows students and masters to gain a deeper theoretical understanding of foreign economic activity and competition management. The textbook is intended for bachelors, masters studying in the field of Economics and for the teaching staff of higher educational institutions.

Reviewers:

candidate of Economic Sciences, docent M.M.Tairova

candidate of Economic Sciences, docent N.M. Ziyavitdinova

MUNDARIJA

Kirish.....	10
1-mavzu. «Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti» fanining predmeti, vazifasi va o'rganish usullari	11
1.1. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari	11
1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti fanining predmeti va organish usullari	13
1.3. Fanning iqtisodiy fanlar tarkibidagi o'rni. Agrobiznes va iqtisodiy fanlar bilan aloqasi	16
2-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatning nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslari	18
2.1. Tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasi, mohiyati va tasnifi	18
2.2. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy bazasi.....	21
3-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish va tartibga solish	24
3.1. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy turlari tavsifi.....	24
3.2. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, qoidalari va maqsadlari	27
3.3. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish organlari tizimi va huquqiy maqomi	30
4-mavzu. Jahon iqtisodiyoti va uning tarkibi	36
4.1. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ..	36
4.2. Jahon xo'jaligi tushunchasi, uning asosiy sub'ektlari	40
4.3. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	43
5-mavzu. Jahon bozori va uning kon'yunkturasi. jahon tovar bozorida narxning shakllanishi.....	46
5.1. Zamonaviy jahon bozori. Jahon bozorining kon'yunkturasi.	46
5.2. Jahon tovar bozorida narxning shakllanishi.....	49
5.3. Jahon narxlari va asosiy tashqi savdo narxlarining turlari	51
6-mavzu. Xalqaro tovar savdosi va uni boshqarish.....	54
6.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdoning o'rni. 54	
6.2. Xalqaro savdo, uning dinamikasi va tarkibi	57
6.3. Tashqi savdo siyosati. Xalqaro savdoni tartibga solish	59
7-mavzu. Tashqi savdo va uni boshqarish	64
7.1. Tashqi savdoning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uning modellari	65
7.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullari	68
7.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy (tarifsiz) chora-tadbirlari	71

8-mavzu. Xalqaro xizmatlar bozori	77
8.1. Jahon iqtisodiyotida xizmatlar, xizmatlarning klassifikatsiyasi	77
8.2. Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv	80
8.3. Xalqaro turizm	82
9-mavzu. Xalqaro kapital harakati	85
9.1. Kapital chiqishining mohiyati, sabablari va shakllari	86
9.2. Jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar dinamikasi va turlari.....	87
9.3. Xalqaro kapital harakatini boshqarish.....	90
10-mavzu. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xorijiy investisiyalarning o'rni	93
10.1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xorijiy kapitalning o'rni va roli.....	93
10.2 Xorijiy investisiyalarning xalqaro boshqaruvi	96
10.3. Xorijiy investisiyalarni jalb qilish va foydalanishning qonunchilik va me'yoriy - huquqiy bazasi	98
11-mavzu. Ishchi kuchining xalqaro bozori	105
11.1. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyaning mohiyati, omillari va turlari	105
11.2. Ishchi kuchining xalqaro migratsiya jarayonini boshqarish	117
12-mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiya	120
12.1 Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va bosqichlari	120
12.2. G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi. Yevropa ittifoqi.	122
12.3. MDH davlatlarining iqtisodiy hamkorlik muammolari.....	126
Testlar.....	129
Glossariy.....	140
Foydalanilgan adabiyotlar	147

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	10
1-тема. Предмет, задача и методы изучения дисциплины	
"Внешнеэкономическая деятельность и управление конкуренцией"	11
1.1. Сущность, цели и задачи дисциплины	11
1.2. Предмет и методы изучения дисциплины	13
1.3. Место дисциплины в структуре экономических наук. Связь с Агробизнесом и экономическими науками.....	16
2-тема. Теоретические, правовые и организационные основы внешнеэкономической деятельности	18
2.1. Понятие, сущность и классификация внешнеэкономических связей.....	18
2.2. Правовая база внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан	21
3-тема. Управление и регулирование внешнеэкономической деятельности	24
3.1. Характеристика основных видов внешнеэкономической политики	24
3.2. Сущность, правила и цели внешнеэкономической политики Республики Узбекистан	27
3.3. Система и правовой статус органов управления внешнеэкономической деятельностью в Республике Узбекистан ..	30
4-тема. Мировая экономика и ее структура.....	36
4.1. Современная мировая экономика и международные экономические шашки	36
4.2. Понятие мирового хозяйства. Его основные субъекты.....	40
4.3. Международное разделение труда и международные экономические отношения	43
5-тема. Мировой рынок и его конъюнктура. Формирование цены на мировом товарном рынке	46
5.1. Современный мировой рынок. Конъюнктура мирового рынка	46
5.2 Формирование цены на мировом товарном рынке.....	49
5.3. Мировые цены и основные виды внешнеторговых цен	51
6-тема. Международная торговля товарами	54
6.1. Место международной торговли в системе международных экономических отношений.....	54
6.2. Международная торговля товарами, динамика и структура	57
6.3. Международное регулирование мировой торговли	59

7-тема. Внешняя торговля, управление внешней торговлей	64
7.1. Сущность внешней торговли, этапы и модели ее развития	65
7.2. Экономические методы регулирования внешнеэкономической деятельности	68
7.3. Административные (нетарифные) меры регулирования внешнеэкономической деятельности	71
8-тема. Международный рынок услуг	77
8.1. Услуги в мировой экономике, классификация услуг.....	77
8.2. Генеральное соглашение по торговле услугами	80
8.3. Развитие международного туризма.....	82
9-тема. Международная миграция капитала	85
9.1. Сущность, причины и формы международного движения капитала.....	86
9.2. Динамика и виды иностранных инвестиций в мировой экономике	87
9.3. Управление международным движением капитала.....	90
10-тема. Роль иностранных инвестиций в экономике Республики Узбекистан.....	93
10.1. Место и роль иностранного капитала в экономике Республики Узбекистан	93
10.2. Международное управление иностранными инвестициями	96
10.3. Законодательная и нормативная база привлечения и использования иностранных инвестиций	98
11-тема. Международный рынок рабочей силы	105
11.1. Сущность, факторы и виды международной миграции рабочей силы	105
11.2. Управление процессом международной миграции рабочей силы	117
12-тема. Международная экономическая интеграция.....	120
12.1. Сущность, формы и этапы международной экономической интеграции.....	120
12.2. Западноевропейская экономическая интеграция. ЕС.	122
12.3. Проблемы экономического сотрудничества стран СНГ.....	126
Тесты	129
Глоссарий.....	140
Список использованной литературы.....	147

CONTENT

Introduction.....	10
1-topic. Subject, task and methods of studying the discipline " Foreign economic activity and competition management"	11
1.1. The essence, goals and objectives of the discipline	11
1.2. Subject and methods of studying the discipline.....	13
1.3. The place of the discipline in the structure of economic sciences. Connection with Agribusiness and economic sciences	16
2-topic. Theoretical, legal and organizational bases of foreign economic activity	18
2.1. The concept, essence and classification of foreign economic relations.....	18
2.2. Legal framework of foreign economic activity in the Republic of Uzbekistan.....	21
3-topic. Management and regulation of foreign economic activity	24
3.1. Characteristics of the main types of foreign economic policy	24
3.2. The essence, rules and objectives of the foreign economic policy of the Republic of Uzbekistan	27
3.3. The system and legal status of foreign economic activity management bodies in the Republic of Uzbekistan.....	30
4-topic. The world economy and its structure	36
4.1. Modern world economy and international economic checkers.....	36
4.2. The concept of the world economy. Its main subjects	40
4.3. International division of labor and international economic relations.....	43
5-topic. The global market and its conjuncture. Price formation in the global commodity market.....	46
5.1. The modern world market. Global market conditions	46
5.2 Formation of prices on the world commodity market.....	49
5.3. World prices and the main types of foreign trade prices	51
6-topic. International trade in goods and its management	54
6.1. The place of international trade in the system of international economic relations.....	54
6.2. International trade in goods, dynamics and structure	57
6.3. International regulation of world trade	59
7-topic. Foreign trade, foreign trade management.....	64
7.1. The essence of foreign trade, stages and models of its development.....	65
7.2. Economic methods of regulating foreign economic activity	68

7.3. Administrative (non-tariff) measures for regulating foreign economic activity.....	71
8-topic. International Service Market.....	77
8.1. Services in the global economy, classification of services.....	77
8.2. General Agreement on Trade in Services	80
8.3. The development of international tourism	82
9-topic. International migration of capital	85
9.1. The essence, causes and forms of international capital flows	86
9.2. Dynamics and types of foreign investment in the global economy	87
9.3. Management of international capital flows	90
10-topic. The role of foreign investment in the economy of the Republic of Uzbekistan	93
10.1. The place and role of foreign capital in the economy of the Republic of Uzbekistan.....	93
10.2 International management of foreign investment.....	96
10.3. Legislative and regulatory framework for attracting and using foreign investment	98
11-topic. International labor market	105
11.1. The nature, factors and types of international labour migration..	105
11.2. Managing international labour migration.....	117
12-topic. International economic integration	120
12.1 The nature, forms and stages of international economic integration.....	120
12.2. Western European Economic Integration. EU.	122
12.3. Problems of economic cooperation of the CIS countries	126
Tests.....	129
Glossary.....	140
References	147

KIRISH

Tashqi iqtisodiy aloqalar moddiy, moliyaviy va intellektual boyliklarining mamlakatlar o'rtasida almashinuvining turli yo'nalishlari, shakllari va vositalarini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Bu har qanday mamlakat iqtisodiyotidagi eng murakkab soha bo'lib, rivojlanishi uchun atroflicha yondashishni taqozo etadi.

O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishiga va bozor munosabatlariga o'tishi, O'zbekiston geosiyosiy holatining tubdan o'zgarishi, bosqichma bosqich iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi mamlakat taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning rolini ancha ko'tardi. O'zbekiston uchun nafaqat uzoq xorij, balki yaqin qo'shnilar bilan ham xo'jalik va savdo aloqalari tashqi iqtisodiy aloqalarga aylandi. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omilning ahamiyati keskin oshdi. Ayni vaqtda ham ayrim xo'jalik sub'ektlarining, ham davlatning umuman tashqi iqtisodiy faoliyati mohiyati son va sifat jihatidan tubdan o'zgardi. Tashqi iqtisodiy omilning ahamiyati amalga oshirilayotgan bozor o'zgarishlari, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti, ichki bozorning tashqi bozor bilan hamkorligining shakllanayotgan butunlay yangi asoslari talablaridan kelib chiqadi.

Hozirgi bosqichda tashqi iqtisodiy aloqalarning son va sifat jihatidan o'sishi bu jarayonlarni hartomonlama chuqur o'rganishga yanada yuksak talablar qo'yadi. Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarining ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, valyuta-moliya, xorijiy sheriklar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshira oladigan mutaxassislariga ehtiyojini ta'minlash uchun O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'limning kunduzgi va sirtqi shakllarida tahsil oluvchi talabalar tashqi iqtisodiy faoliyat masalalariga va muammolariga bag'ishlangan turli fanlarni o'rganadilar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xorijiy tashkilotlar va firmalar bilan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi iqtisodiy-tashkiliy munosabatlari bunday kurslarning mavzusi hisoblanadi. Ushbu fanni o'rganishdan maqsad – tashqi iqtisodiy aloqalarning turli jihatlarini bo'yicha tegishli bilimlarni berishdan iboratdir.

1-MAVZU. «TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT VA RAQOBAT MENEJMENTI» FANINING PREDMETI, VAZIFASI VA O'RGANISH USULLARI

1.1. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari

1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti fanining predmeti va organish usullari

1.3. Fanning iqtisodiy fanlar tarkibidagi o'rni. Agrobiznes va iqtisodiy fanlar bilan aloqasi

Tayanch iboralar: fanning maqsadi, fanning predmeti, tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy faoliyat, korxonalar, raqobatbardoshlik

1.1. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari

Dunyo xo'jaligining XX asr oxirlaridagi faoliyatini o'ziga xos xususiyatlaridan biri – davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlanishi va takomillashishidir. Har bir davlat bu sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyatini milliy iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirishni, dunyo xo'jaligiga integrasiyalashuv jarayonlarini har tomonlama o'ylagan holda tashkil etishga qaratgan bo'ladi.

«Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti» fanini o'rganishdan maqsad mamlakatdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etishning shakllari, tartibi, usullari va shartlari, shu jumladan tashqi savdo bitimlari va operatsiyalarining aniq mazmuni, ularni amalga oshirish texnologiyasi va meyoriy-huquqiy asoslari bo'yicha nazariy bilimlar tizimini o'zlashtirish, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishni tashkil etish sohasida amaliy ko'nikma va qobiliyatlarni olish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat - xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kooperatsiya, mahsulotlarni eksport qilish va import qilish, korxonaning tashqi bozorga chiqishi bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat sohasi. Tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi iqtisodiy aloqalardan farqli o'laroq, eksport-import operatsiyalari uchun tovarlarning

nomenklaturasini tanlashda, narxi va qiymatini belgilashda, yetkazib berish hajmi va muddatini aniqlashda to'liq mustaqil bo'lgan ishlab chiqarish tuzilmalari (firmalar, tashkilotlar) darajasida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi korxonaga savdo bozorlarini va ishlab chiqarish geografiyasini kengaytirish, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasining afzalliklaridan va ishlab chiqarish vazifalarini amalga oshirish uchun qaror qabul qilish erkinligidan foydalanish imkonini beradi. Quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- jahon bozorining imkoniyatlariga tayangan holda ishlab chiqarish resurslarini erkin tanlash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni maksimal rentabellik bilan sotish yo'nalishlari va shakllarini erkin tanlash;
- korxonada iqtisodiy manfaatlariga mos keladigan kooperatsiya bo'yicha ishlab chiqarish hamkorini erkin tanlash;
- ishlab chiqarishning texnik darajasini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash yo'llari va imkoniyatlarini erkin tanlash.

Fanning asosiy vazifasi - tashqi iqtisodiy aloqalarning tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslari hamda tashqi iqtisodiy faoliyat amaliyoti va texnikasi, raqobat menejmenti bilan tanishtirish hamda shu kabi masalalarni yanada chuqur o'rganish va amaliy o'zlashtirish, olingan bilimlarni amalda qo'llashga zarur asosni ta'minlashdan iboratdir.

Fanning vazifalari:

- korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati, tashqi iqtisodiy sohada mamlakatning raqobatbardosh ustunliklarini amalga oshirish bo'yicha kompleks bilimlarni shakllantirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat nazariyasi va amaliyotini ochib beruvchi kontseptual apparatni o'zlashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ishlash, xalqaro va milliy huquq manbalari bilan, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ilmiy va axborot adabiyotlari bilan mustaqil ishlash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;
- korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish va korxonaning eksport salohiyatini oshirish yo'llarini aniqlash, shuningdek, tashqi iqtisodiy shartnomani tuzish ko'nikmalarini egallash.

1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti fanining predmeti va organish usullari

Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti fanining predmeti bo'lib tashqi iqtisodiy faoliyatni xo'jalik yurituvchi sub'ekt, firma, korxonada darajasida tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatda, ham davlat hokimiyati organlari darajasida, ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlar darajasida bitimlarni amalga oshirishning xalqaro-huquqiy, tashkiliy, ma'naviy-axloqiy tamoyillari, normalari va qoidalarining nazariy va amaliy asoslari hisoblanadi.

Iqtisodiy tadqiqot – mavzuni asoslash, gipoteza, maqsad va vazifalarni shakllantirish, tahlil ob'ektlarini tanlash, dasturni tuzish, omillarni to'plash va o'rganish, nazariy umumlashtirish va amaliyotda tadqiqot natijalarini qo'llash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga olgan murakkab tafakkur jarayoni. Iqtisodiy tadqiqotning asosida metodologiya yotadi.

Fan metodologiyasi – bu ilmiy tafakkurning shakllanish tamoyillari, shakllari va usullari to'g'risidagi ta'limotdir. Metodologiya fanda qo'llaniladigan usullarga asoslanadi.

Fanning usuli (metodi) – bu o'rganilayotgan (tadqiq qilinayotgan) voqea va hodisalarni bilish yo'llaridir. Har bir fanni o'rganishda nazariy bilimlar voqelikni amalga oshirish uchun amaliyotga yo'l ochib, uni yoritib turadi va shu bilan ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Amaliyotda nazariy jihatdan tadqiq etilgan fikrlar yo'nalishlari, belgilangan nuqtai nazarlarning to'g'riligi yoki asossiz ekanligini tasdiqlab beradi.

Iqtisodiyotda hodisalar va jarayonlarning mohiyatini bilish uchun umumiy ilmiy va o'ziga xos tadqiqot usullari ishlatiladi. Birinchisi, ilmiy abstraktsiya usullari, induktiv, deduktiv, qiyosiy tahlil, eksperiment va boshqalarni o'z ichiga oladi. Fanni o'rganishning o'ziga xos usullari statistik-iqtisodiy, monografik, hisob-konstruktiv, balans, iqtisodiy-matematik usullar hisoblanadi.

Ilmiy abstraktsiya usuli hodisalarning mohiyatini bilish uchun tadqiqot jarayonida kichik hodisalardan, ahamiyatsiz tomonlardan umumiy, muhim xususiyatlarni ajratishdan iborat.

Induksiya usulidan foydalanilganda umumiy xulosa yagona omillar asosida amalga oshiriladi, ya'ni qarorlar xususiydan umumiyga, omillardan nazariyaga qadar qabul qilinadi.

Deduktsiya usuli tadqiqotlarning teskari yo'nalishini o'z ichiga oladi – ya'ni umumiydan xususiyga boriladi. Ushbu usullar gipotezalarni ilgari surish imkonini beradi.

Gipoteza – bu har qanday hodisani tushuntirish uchun taqdim etilgan va ishonchli ilmiy nazariya bo'lishi uchun amaliyotda tekshirishni va nazariy asosni talab qiladigan ilmiy taxmindir (farazdir).

Dialektik usul hozirgi hayotdagi barcha voqelik va omillarni to'g'ri tahlil qilib, umumlashtiradi va shu asosda bundan keyingi rivojlanish uchun sharoit yaratadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun ilmiy izlanishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: statistik guruhlash, monografik, hisoblash-mantiqiy tahlil qilish metodi, tajriba qo'yish va matematik modellashtirish.

Qiyosiy tahlil usuli eng yaxshi natijalarni aniqlash uchun xususiy va umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslashdan iborat.

Statistik-iqtisodiy usul – ommaviy raqamli ma'lumotlar orqali ijtimoiy hodisalarning rivojlanishini har tomonlama tavsiflash uchun ishlatiladigan usullar to'plami. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning asosiy usullari iqtisodiy guruhlash, o'rta va nisbiy qiymatlar, grafik tasvirdir.

Statistik guruhlash usuli – barcha ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha juda katta ma'lumotlar to'plashga, qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotlarining o'sishi, ekinlar hosildorligi, ish kuchi, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajalari, mehnat sarflari va unumdorligi, mahsulot tannarxi va daromadlar, mexanizasiyadan foydalanish darajalari kabi ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan usuldir. Amalda bu ma'lumotlar guruhlanib korxonalarining ixtisoslashuvi, xo'jalikning maqsadga muvofiq hajmini asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi ayrim omillarni aniqlashda ishlatiladi.

Monografik usul – ayrim ilg'or xo'jaliklar va ularning ichki bo'linmalari ishlab chiqarish-moliya faoliyatini sinchiklab o'rganishda hamda ayrim ish metodlarini chuqur tahlil qilishda foydalaniladigan usuldir. Tadqiqot ishlarining bu usulini qo'llanishi ko'pgina tashkiliy masalalarni to'g'ri hal qilish imkonini beradi. Bu usuldan foydalanishda to'plangan ma'lumotlar, hodisalar va jarayonlar orasidagi

bog'lanishlarni aniqlashda, qonuniyatlarning ma'nosini ochishda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining istiqbollarini belgilashda va barcha yangiliklar hamda ilg'or ish usullarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga tadbiq etishda asosiy yo'llarni belgilashga yordam beradi. Tadqiqotning monografik usuli umumiy to'planning alohida elementlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul yangi va ilg'or narsalarni aniqlashga yordam beradi.

Hisob-konstruktiv usul muammoni istiqbolda ilmiy jihatdan asoslangan holda hal etishning haqiqiy yo'llarini topish imkonini beradi. Bu usul qishloq xo'jalik korxonalari, ularning tarmoqlari va bo'linmalarining rivojlanish istiqbollarini aniqlash uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bu usulning afzalligi shundaki, u biron-bir tashkiliy-iqtisodiy tadbirni amalga oshirishda bir necha xil variantlarni tavsiya eta oladi. Buning natijasida yuqori mehnat umumdorligiga yoki eng past mahsulot tannarxiga erishish mumkin.

Tahlil qilish usuli – bunda o'rganilayotgan voqea-hodisaning o'zini va uning har bir qismini alohida chuqur o'rganish mumkin. Ular orasidagi bog'lanishni o'rganish maqsadida, ularning har bir qismini alohida tadqiqot qilish mumkin.

Tahlil qilish usuli – tadqiqot qilib o'rganishning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Tahlil qilish usulining asosini bir xil iqtisodiy sharoitga ega bo'lgan, bir nechta xo'jalik yoki bo'linmalar yillik ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasini bir-biriga taqqoslab o'rganish, reja topshiriqlarining ko'rsatkichlari bilan haqiqiy erishilgan natijalarni bir-biriga solishtirishdan iboratdir.

Tajriba usuli – tabiiy fanlarda asosiy bo'lgan eksperimental usul iqtisodiy hodisalarni o'rganish uchun keng qo'llaniladi. Bunda erishilgan natijalar miqdor va sifat jihatdan to'la hisobga olinadi. Tajriba usulida o'rganishdan keyin uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy sharti ilmiy jihatdan asoslangan yangi bir tadbirni, me'yorni yaratishdir.

Balans usuli – bu hodisa yoki jarayonning mohiyatini aks ettiruvchi barcha ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirish va o'zaro bog'lashning asosiy usuli.

Matematik modellashtirish – usulidan eng murakkab iqtisodiy masalalarni hal etishda foydalaniladi. Ayrim iqtisodiy tarmoqlar ishini amalga oshirishda tez ishlaydigan elektron hisoblash mashinalarining

roli kattadir. Ular ishlab chiqarishdagi bir nechta ta'sir etuvchi omillarning tutgan o'rnini hisobga olgan holda qo'yilgan vazifani bajarishga imkon berib, uning maqsadga muvofiq variantini aniqlashga sharoit yaratadi.

Iqtisodiy-matematik usul ilmiy usullar to'plamini o'z ichiga oladi: matematik-statistik, ishlab chiqarish funktsiyalari, iqtisodiy va matematik modellashtirish. Bu usulda istiqbolli muammolarni hal etishda va kundalik hayotda zarur bo'lgan iqtisodiy muammolarni yechishda samarali foydaniqlamoqda. Bularga xo'jalikdagi ishlab chiqarish tarmoqlarining maqsadga muvofiq holatini belgilash, xo'jalik ichidagi bo'linmalar ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda ularning maqsadli hajmini, ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish masalalarini istiqbolini belgilash jarayonlari kiradi.

1.3. Fanning iqtisodiy fanlar tarkibidagi o'rne. Agrobiznes va iqtisodiy fanlar bilan aloqasi

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi taraqqiyoti ustivorligini ta'minlab, qishloqda mulkdorlar sinfini yaratish va ichki xo'jalik yuritish mexanizmlarini bozor iqtisodiyoti talablari asosida qayta qurishdir. Qishloq xo'jaligi va agrosanoat kompleksi mahsulotlari O'zbekiston eksport siyosatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish,

shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi.

So'nggi vaqtlarda tashqi siyosatimizda amalga oshirilgan ijobiy islohotlar natijasida chegaradosh va xorijiy davlatlar bilan o'zaro do'stlik aloqalari yanada mustahkamlandi, savdo-sotiq ishlari keng yo'lga qo'yilmoqda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali aholi daromadlarini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. 2018 yilning o'zida mamlakatimiz birgina gilos eksport qiluvchi mamlakatlar reytingida to'rtinchi o'ringa chiqib oldi. Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda O'zbekistonda yetishtirilgan mahsulotlarga talab ortdi. Bunday ijobiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish va tashkil etishni takomillashtirishni talab etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari uchun tashqi iqtisodiy faoliyat o'z strategik maqsadlarini hal etishning eng samarali usullarini tanlashda imkoniyatlarni kengaytirishni anglatadi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar – mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar majmui, shuningdek, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikning shakllari, usullari va vositalari to'plamidir. Tashqi iqtisodiy munosabatlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil bo'lib, iqtisodiy o'sishga, ishlab chiqarishni jadallashtirishga, iste'mol va ishlab chiqarish bozorini boyitishga xizmat qiladi

Agrobiznesda tashqi iqtisodiy munosabatlar – bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish va ayirboshlash bilan bog'liq bo'lgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining bir qismidir.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar davlat va uning sub'ektlarining iqtisodiy tizimiga tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmi orqali amalga oshiriladigan ta'sir ko'rsatish vositasidir.

Agrobiznesda tashqi iqtisodiy faoliyat bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish va ayirboshlash bilan bog'liq bo'lgan tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirish jarayonidir.

Nazorat savollari

1. Fanning predmetini tushuntiring.
2. Fanning ob'ektlarini ta'riflang.
3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi nimadan iborat?
4. Fanning tadqiqot usullarini ayting.

5. Statistik guruhlash usulining mazmunini tushuntiring.
6. Monografik usul nimadan iborat?
7. Matematik-modellashtirish qanday usul?
8. Fanning maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Fanning mazmuni nimadan iborat?

2-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING NAZARIY, HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

- 2.1. Tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasi, mohiyati va tasnifi
- 2.2. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy bazasi

Tayanch iboralar: tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi iqtisodiy operatsiyalar, tashqi iqtisodiy bitim, xalqaro mehnat taqsimoti

2.1. Tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasi, mohiyati va tasnifi

Har bir mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati uning iqtisodiy o'sishining muhim shartidir. Bu, ayniqsa, xalqaro iqtisodiy integratsiya, transmilliylashuv, xalqaro mehnat taqsimoti, jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida dolzarbdir.

"Tashqi iqtisodiy aloqalar" va "tashqi iqtisodiy faoliyat» tushunchalarini farqlash kerak.

Korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati bu – xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, mahsulotlarni eksport va import qilish, korxonaning tashqi bozorga chiqishi bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat sohasidir. Bu faoliyat mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishni anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni uning funktsiyalari kategoriya sifatida tavsiflaydi:

1) xalqaro iqtisodiy almashinuvni tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish – xalqaro mehnat taqsimoti jarayonida (bundan buyon

matnda – XMT deb yuritiladi) olingan mahsulotlarni iste'molchiga yetkazish;

2) XMT mahsulotlarining iste'mol qiymatini xalqaro e'tirof etish – tovar-pul munosabatlari harakatining bajarilishi – XMT mahsulotini pulga almashtirish, natijada almashtirilayotgan mahsulotdagi iste'mol qiymati xalqaro e'tirofga sazovor bo'ladi;

3) xalqaro pul muomalasini tashkil etish – xalqaro hisob-kitoblar jarayonida pulning harakati uchun shart-sharoitlar yaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish shaklida namoyon bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar – iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida davlatlar va ularning sub'ektlarining xalqaro hamkorligining turli shakllarining kompleks tizimi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar kategoriya sifatida – davlatlar va mamlakatlarning iqtisodiy sub'ektlari o'rtasida resurslar harakatida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Ushbu munosabatlar davlatning iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, birinchi navbatda, ishlab chiqarish, savdo, investitsiya va moliyaviy sohalarni qamrab oladi.

Binobarin, tashqi iqtisodiy aloqalar bir aniq mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro mehnat taqsimoti, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo, siyosiy va boshqa xil munosabatlaridir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar shakli bu aloqaning mavjudligi, muayyan aloqa mohiyatining tashqi ko'rinishi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning tuzilmaviy birligi tashqi iqtisodiy operatsiya hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy operatsiya – savdo, investitsiya yoki boshqa iqtisodiy bitimlarni tayyorlash, tuzish va amalga oshirish bo'yicha turli mamlakat kontragentlarining harakatlar majmui.

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

1) savdo (eksport-import operatsiyalari, shu jumladan reeksport va reimport, qarshi savdo operatsiyalari va boshqalar.);

2) texnologiyalar transferi (litsenziya va franchayzing shartnomalari, muhandislik, reinjining, konsalting va boshqalar.);

3) investitsiyalar (chet el kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar, erkin iqtisodiy zonalar doirasida investitsiyalar).

Tashqi iqtisodiy bitim – xorijiy kontragentlar bilan huquqiy munosabatlarni o'rnatish, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan harakatlar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalardan farqli o'laroq, eksport-import bitimlari uchun tovar nomenklaturasini tanlashda, qiymat va narx belgilashda, etkazib berish hajmi va muddatini aniqlashda to'liq mustaqil bo'lgan ishlab chiqarish tuzilmalari (firmalar, tashkilotlar, korxonalar) darajasida amalga oshiriladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni xo'jalik sub'ektining muayyan tashqi iqtisodiy funktsiyalari majmuasi sifatida ifodalash mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari – xorijiy sheriklar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni mustaqil ravishda amalga oshiradigan xo'jalik faoliyati sub'ektlari.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning moddiy asosi mamlakat, mintaqaning tashqi iqtisodiy majmuasi hisoblanadi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy majmuasi – eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va sotuvchi, shuningdek import tovarlarini sotib olib, qayta ishlovchi, tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllarini amalga oshiruvchi tarmoqlar, tarmoqosti, birlashmalar, korxonalar, firmalar, kooperativlar, tashkilotlar, hamda tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashadigan davlat va jamoat tuzilmalari majmui.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy majmuasi bo'g'inlari:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat organlari.

2. Eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va import mahsulotlarini iste'mol qiluvchi iqtisodiy komplekslar, tarmoqlar, kichik tarmoqlar, korxonalar.

3. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatga ko'maklashuvchi tashkilotlar - tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasi:

- axborot-maslahat tuzilmalari;
- kredit-bank tizimi;
- sug'urta kompaniyalari;
- tovar bozorlari;
- ulgurji vositachilik firmalari;
- transport va ekspeditsiya xizmatlari.

5. Savdo-iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanadigan xorijiy muassasalar.

2.2. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy bazasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dunyodagi barcha mamlakatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilish, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishiga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda.

Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati jahon xo'jaligining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'langan va muqarrar ravishda nafaqat milliy huquqiy me'yorlar, balki xalqaro huquq standartlari bilan ham tartibga solinadi. Tabiiyki, milliy huquq reglamentasiyalari bilan xalqaro iqtisodiy huquq o'rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud.

Bir tomondan, davlatlarning huquq sohasidagi suverenitetini e'tirof etmaslik mumkin emas, boshqa tomondan esa – xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish zarurati u yoki bu mamlakatlar suvereniteti sohasiga kattagina cheklovchi ta'sir ko'rsatadi.

Milliy huquqiy xujjatlarni davlatlararo shartnomalarga muvofiq, tarzda muayyan darajada birxillashtirish hozirgi bosqichda ushbu muammoning eng maqbul yechimi hisoblanadi. Ya'ni xalqaro huquqning qoida va me'yorlari amaliyotda milliy qonun hujjatlari orqali ro'yobga chiqariladi.

Mamlakagimizda iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy boshqarish strategiyasining o'ziga xosliklarini hamda ham mintaqaviy miqyosda, ham alohida mamlakatlar darajasida savdo-iqtisodiy hamkorligining tegishli ustuvorliklarini belgilab berdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Uzoq muddatli, barqaror va umum tan olingan tamoyillar asosida qurilgan o'zaro xo'jalik hamkorligini ta'minlovchi Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarni huquqiy ta'minlash orqali o'z strategik manfaatlariga erishish maqsadida O'zbekiston qator ikkitomonlama shartnomalardan tashqari sherikchilik va hamkorlik to'g'risida kelishuv shaklida savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi umumiy kelishuvni

ham imzolagan, u 1998 yil iyunida kuchga kirgan. Uni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va O'zbekiston Respublikasi bilan Yevropa hamjamiyat va unga a'zo davlatlar o'rtasidagi sherikchilik va hamkorlik yo'lidagi kelishuvni amalga oshirish bo'yicha 2000-2005 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi yuksalishning asosiy sababi chora-tadbirlari umumiy dasturi qabul qilindi.

MDH mamlakatlari bilan munosabatlar ham jadal rivojlanmoqda. Hamdo'stlik mamlakatlari bilan munosabatlar ilgari mavjud bo'lgan iqtisodiy aloqalarning tabiiy davomi hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasini ishlab chiqishda va takomillashtirishda jahonning boshqa mintaqalari mamlakatlari bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ham muhim ahamiyat berish kerak. Masalan, Osiyo mamlakatlari asta-sekin jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqeyini egallamoqdalar, dunyoning katta transport-kommunikasiya imkoniyatlariga ega bo'lgan muhim savdo, moliya markazlariga aylanmoqdalar. O'zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish nuqtai nazaridan e'tibor to'la qayta ishlangan mahsulotni sotishga qaratilishi kerak. Bu sharoitlarda O'zbekistonning huquqiy strategiyasi eng avvalo xalqaro mehnat taqsimoti asosida O'zbekistonning iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan tabaqalashtirilgan holda, har bir davlat uchun alohida ishlab chiqdilihi kerak.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi, qonunning yangi 77-II-sonli tahriri 2000 yil 26 mayda e'lon qilingan edi. Unga ko'ra:

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat **sub'ektlari** hisoblanadilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ob'ektlari. Oldi-sotdi yoki ayirboshlash ob'ekti bo'lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagi energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan, tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlanganlarini istisno etganda, tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari mazkur qonunda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy tamoyillari keltirib o'tilgan va ular quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3303-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi "Investisiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5643-sonli farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4135-sonli qarori va h.

Nazorat savollari

1. Tashqi savdo va uning funksiyalarining mohiyatini va ma'nosini oching.
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari va ob'ektlarini sanab o'ring.
3. Mamlakatning tashqi iqtisodiy kompleksini tavsiflang.
4. Tashqi iqtisodiy faoliyat shakllari va turlarini sanab o'ring.

5. Tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchalarini izohlang.

3-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH

3.1. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy turlari tavsifi

3.2. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, qoidalari va maqsadlari

3.3. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish organlari tizimi va huquqiy maqomi

Tayanch iboralar: tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyat, proteksionizm, erkin savdo, modernizatsiya, globallashuv, integratsiya

3.1. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy turlari tavsifi

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati – bu o'z salohiyatini (siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, ekologik va h.k.) mustahkamlash va jahon iqtisodiyotida samarali ishtirok etish uchun tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha davlatning maqsadli faoliyati. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati ko'p jihatdan to'lov balansining holatiga bog'liq.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati – bu mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida muayyan ustunliklarga erishishga va ayni paytda ichki bozorni xorijiy tovarlarning raqobatidan himoya qilishga qaratilgan, barcha tadbirlar tizimini o'z ichiga olgan keng ko'lamli faoliyat. Bundan kelib chiqadiki, bu davlatning nafaqat tashqi balki ichki siyosatining eng muhim bo'g'inidir. Aynan ichki siyosat tashqi iqtisodiy siyosatning samaradorligini belgilaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan faol tartibga solish davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat keng ma'noda – bu jahon iqtisodiyotining boshqa sub'ektlari (davlatlar, biznes, xalqaro tashkilotlar) bilan

iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishga qaratilgan davlat faoliyati; tor ma'noda tovar va xizmatlarni eksport qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kapitalni chet elga olib chiqish, tashqi kreditlar, xalqaro iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish, boshqa davlatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish sohasidagi davlat siyosatidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismlari – tashqi savdo siyosati (eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), chet el investitsiyalarini jalb etish va xorijdagi milliy sarmoya qo'yilmalarini tartibga solish sohasidagi siyosat, valyuta siyosati. Bundan tashqari, alohida olingan davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni jo'g'rofiy jihatdan muvozanatlashtirish vazifalari ham tashqi iqtisodiy siyosatni hal etadiki, bu hol mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'lig.

Tashqi iqtisodiy siyosat – davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish rejimini belgilashga doir bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatni tahlil qilishda nazariyada ham, amaliyotda ham asosiy ko'rsatkichlar sifatida soha va yo'nalishlar qo'llaniladi. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish sohasining eng keng tarqalgan tasnifi bu ularning savdo (tovarlar va xizmatlar eksporti va importi) va moliyaviy (xorijiy investitsiyalarini jalb qilish, sarmoyani eksport qilishni nazorat qilish, tashqi kreditlar berish) sohalarga bo'linishi hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish va tashqi iqtisodiy yordam ko'rsatish alohida ko'rib chiqilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tashqi savdo siyosatidan tashqari, tashqi iqtisodiy siyosat makroiqtisodiy siyosatning uchta yo'nalishi bo'yicha o'zini namoyon qiladi: pul-kredit, valyuta va fiskal.

Tashqi iqtisodiy siyosatning mazmuni va yo'nalishlari geosiyosiy, geoiqtisodiy va boshqa omillar majmuiga, shuningdek, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakatlarning integratsiyasiga bog'liq.

Tashqi iqtisodiy siyosatning mamlakatning umumiy xalqaro va ichki siyosati bilan uyg'un aloqasi jahon xo'jaligining murakkab koordinata tizimida milliy va jahon iqtisodiyotining o'sib borayotgan o'zaro ta'siri bilan kuchaymoqda. Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirishda mamlakatning o'lchami, uning kuch-qudrati va dunyodagi ta'siri katta ahamiyatga ega. Jahon xo'jaligi aloqalaridagi yangi tendentsiyalar milliy iqtisodiyotlarni xalqaro miqyosda takror

ishlab chiqarish bo'g'inariga jalb qilishni belgilaydi, bu esa ularni global iqtisodiy kompleksning tarkibiy qismlariga aylantiradi. Jahon iqtisodiyoti baynalmilallashuvining yangi bosqichi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yangi iqtisodiy chegaralarni yaratib, yangi strategik maqsadlar va integratsiya tuzilmalari sxemalarini shakllantirib dunyoning siyosiy xaritasini o'zgartiradi. Global iqtisodiy tizimda ayniqsa moliya-kredit va axborot tuzilmalari alohida o'rin tutadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning yo'nalishlari va shakllari

Tashqi iqtisodiy siyosatning har bir yo'nalishining mazmuni – ob'ekt va ishlatiladigan vositalarning natijasidir:

- tashqi savdo siyosati – davlatning tovarlar va xizmatlarni eksport va import qilish sohasidagi harakatlarini qamrab oladi va bojxona bojlari, tariflari, tarifsiz cheklovlar (eksport va import kvotalari) kabi vositalardan foydalanishini, shuningdek, tashqi savdo sohasidagi moliyaviy operatsiyalarini (eksportni kreditlash, eksport kreditlarini kafolatlash va b.) nazarda tutadi;
- pul-kredit siyosati – bu davlatning pul muomalasi va bank tizimini kreditlash sohasidagi harakatlari bo'lib, narxlarning o'sishini cheklash va to'lov balansini tenglashtirishga qaratilgan va ochiq bozor operatsiyalari (moliyaviy bozorlarda davlat qimmatli qog'ozlarini sotish / sotib olish), minimal zahira normasi, hisob stavkasi va boshqalar kabi vositalardan foydalanishni nazarda tutadi;
- valyuta siyosati – valyuta munosabatlari sohasida (shu jumladan, xalqaro miqyosda) davlat tomonidan amalga oshiriladigan shuningdek, valyuta kursi rejimi, valyuta zahiralari, valyuta bozorlaridagi aralashuvlar, valyuta cheklovlari, valyuta nazorati, valyutani subsidiyalash kabi vositalardan foydalanishni nazarda tutadigan chora-tadbirlar majmui;
- fiskal siyosat – davlatning soliqqa tortish va davlat byudjeti sohasidagi faoliyati, shu jumladan tashqi bozorlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishni (masalan, imtiyozli kreditlash va/yoki soliq imtiyozlari hisobidan) va boshqalarni nazarda tutadi.

Amalda tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha alohida amalga oshirilmaydi, balki belgilangan vositalardan foydalanish o'zaro bog'liqdir.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy sohada davlat tomonidan qanday vosita qo'llanilmasin, tashqi iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga

oshirishning faqat ikkita strategiyasi yoki shakllari mavjud: proteksionizm (masalan: import tovarlarga soliqlar joriy etish va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga ularni kamaytirish va b.) yoki erkin iqtisodiy munosabatlar (savdo munosabatlarida, moliyaviy bozorlarda, mehnat bozorida to'siqlarni kamaytirish yoki bartaraf etish).

Proteksionizmning ijobiy tomonlari mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish va savdo balansini tenglashtirish, ikkinchisi esa raqobatning o'sishi va ichki bozorda mahsulot turlarini kengayishini o'z ichiga oladi. Proteksionizmning kamchiliklari, odatda, milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligining pasayishi, tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan zaiflik hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida davlatlar asosan egiluvchan tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga intilmoqda. Ya'ni egiluvchan tashqi iqtisodiy siyosat ikkala strategiya: proteksionizm va tashqi maydonda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirishning kombinatsiyasini nazarda tutadi. Balans va ulardan foydalanish darajasi jahon xo'jaligining turli sektorlarida va jahon bozorlarida yuzaga keladigan kon'yunktura, shuningdek tashqi iqtisodiy sohada davlatlar tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlar va shakllarni optimallashtirishning nazariy vositalari nuqtai nazaridan belgilanadi.

3.2. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, qoidalari va maqsadlari

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplariga, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonunga, "Mudofaa to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining prinsiplari va maqsadlariga, shuningdek mamlakatimiz tomonidan imzolangan xalqaro konventsiya va shartnomalarga asoslanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining ilk kunlaridanoq milliy manfaatlariga asoslangan va har tomonlama puxta o'ylangan tashqi siyosat olib bormoqda. O'zbekiston tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi

obro'-e'tiborini, uning mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyatini mustahkamlab kelmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy **maqsadlari** – bu davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini yanada kuchaytirishdan, hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida quyidagi printsiplarga sodiq bo'lib qolmoqda:

- o'zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o'ylangan tashqi siyosat olib borish;
- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.

Tashqi siyosiy faoliyat kontseptsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik uchoqlariga tortilishining oldini olish

yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob'ektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Konstitutsiyaga, «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga va Harbiy doktrinaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faqat davlat suvereniteti va mamlakat hududining yaxlitligini, aholining tinch xayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;
- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish;
- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, O'zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;
- mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;
- O'zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;

- O'zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta'minlaydigan ko'p muqobilli transport-kommunikatsiya yo'laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash.

3.3. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish organlari tizimi va huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining devoni

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirish bo'yicha eng muhim organlardan biri Prezident devoni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlatga, uning faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va, binobarin, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni ham boshqaradi.

Mustaqillikka erishilganidan keyin respublikada davpat xokimiyataning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlatlararo munosabatlar va tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Davlat maslahatchisi xizmati singari institut paydo bo'ldi. O'z tabiatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlatlararo munosabatlar va tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Davlat maslahatchisi xizmati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat maslahatchisi xizmatining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlatlararo munosabatlar va tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi faoliyatini tashkiliy, axborot-tahliliy va ekspert-huquqiy jihatdan ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tashqi istisodiy faoliyat sohasida ahamiyatiga ko'ra ikkinchi boshqaruv organi Vazirlar Mahkamasidir. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga

rahbarlikni, qonunlar va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati bo'lib, davlat boshqaruv organlari va ular tuzadigan xo'jalikni boshqarish organlariga rahbarlik qiladi, ularning kelishilgan faoliyatini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga taalluqli bo'lgan davlat va jamiyatni boshqarishning barcha masalalarini hal qilishga huquqlidir.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

- iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni boshqaradi, erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratadi;
- xo'jalik yuritishning yangi shakllari – kontsernlar, konsortsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, uyushmalarni barpo etish va mustahkamlashga yordam beradi, ularning faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;
- boshqarish tarkibini takomillashtirish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;
- respublika byudjetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish prognozlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqish va hamda ijro etishni tashkil etadi;
- O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnomalar va kelishuvlar tuzadi
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi rahbarlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi

O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tizimiga kiruvchi va O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, shuningdek, xalqaro-huquqiy me'yorlarda belgilangan prinsiplardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organidir.

Vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bevosita rahbarligida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti prinsiplarini hayotga tatbiq etish, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy yo'lini amalda ro'yobga chiqarish, xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarda,

shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekistonning davlat manfaatlarini va uning fuqarolari huquqlarini himoya qilish vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Vazirlik vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati strategiyasi, uning tashqi siyosiy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish, shuningdek, davlatning xalqaro faoliyati umumiy muammolariga doir masalalar bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- o'z vakolatlari doirasida vazirliklar, idoralar, muassasalarning xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha ishini muvofiqlashtiradi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, xalqaro moliyaviy, iqtisodiy va boshqa tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatilishiga va bu aloqalarning kengayishiga ko'maklashadi;
- belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida boshqa mamlakatlarning tegishli davlat organlari bilan va tashqi siyosiy muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralar olib boradi hamda shartnoma va bitimlar tuzadi;
- O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomalari va bitimlarini ishlab chiqishda qatnashadi va tuzilishini ta'minlaydi hamda bu shartnoma va bitimlar asl matnlarining depozitariysi hisoblanadi;
- tegishli davlat shartnoma va bitimlarini ratifikasiya qilish uchun belgilangan tartibda Oliy Majlisga taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasining kuchga kirgan davlatlararo shartnoma va bitimlarini ro'yxatdan o'tkazish yoki hujjatlar yig'ma jildida saqlash, ro'yxatga kiritish yoki e'lon qilish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatiga belgilangan tartibda yuboradi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat shartnomalari bo'yicha tomonlarning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining xorijiy davlatlarga tashriflarini O'zbekiston Respublikasining davlat diplomatik protokoli to'g'risidagi Nizomga muvofiq protokol jihatdan tayyorlaydi va tashkiliy ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

- xalqaro konferensiyalar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar majlislari ishida qatnashish uchun O'zbekiston Respublikasining rasmiy hay'atlarini tuzadi va yuboradi;
- xorijiy davlatlarning rasmiy davlat hay'atlarini qabul qilishni tashkil etadi va unda ishtirok etadi hamda siyosiy, diplomatik, protokol va vakillik ishlarini olib boradi;
- iqtisodiyot, madaniyat, ilmiy-texnikaviy ayirboshlash va savdo sohasida O'zbekiston Respublikasining vazirliklari va idoralari, jamoat birlashmalari va fuqarolarining xalqaro aloqalari rivojlanishiga ko'maklashadi;
- «Jahon» axborot agentligi orqali chet elda O'zbekiston Respublikasining tashqi va ichki siyosati to'g'risida xolisona axborot tarqatishga ko'maklashadi;
- O'zbekiston Respublikasi vazirlik, idora va tashkilotlariga diplomatik protokol sohasida, ular tomonidan elchixonalar va boshqa xorijiy vakolatxonalar bilan aloqalarning amalga oshirilishida ko'maklashadi;
- Respublika hududida ham chet elda xorijiy davlatlar, xalqaro, hukumatlararo va mintaqaviy tashkilotlar bilan diplomatik va konsullik aloqalarni amalga oshiradi;
- xalqaro huquq me'yorlariga va O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq boshqa davlatlarning respublika hududidagi doimiy diplomatik vakolatxonalar bilan munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi, diplomatik vakolatxonalar xodimlarini akkreditasiya qiladi;
- xorijiy muxbirlarni akkreditasiya qiladi, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish chora-tadbirlarini ko'radi, boshqa davlatlarning jurnalistlari bilan brifinglar, matbuot konferensiyalari va uchrashuvlar o'tkazadi;
- xorijiy davlatlarning savdo vakolatxonalarini, xalqaro siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va birlashmalarning vakolatxonalarini va missiyalarini akkreditasiya qiladi;
- O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy vakolatxona va xalqaro tashkilotlarning diplomatik va konsullik immunitetiga rioya qilish uchun sharoitlar yaratadi, xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq o'z funksiyalarini bajarishlarida ularga ko'maklashadi;

- chet elda yashovchi vatandoshlar bilan aloqa va munosabatlarning rivojlanishiga ko'maklashadi;
- pasport – viza hujjatlarini rasmiylashtiradi;
- mahalliy va xorijiy yuridik shaxs va fuqarolar uchun hujjatlarni talab qilib olish va legalizasiya qilish ishini belgilangan tartibda yuritadi, fuqarolik holati va notariat hujjatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa konsullik masalalarini hal etadi;
- O'zbekiston Respublikasiga keluvchi fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish masalalari bo'yicha taqdimnomalarni ko'rib chiqishda belgilangan tartibda qatnashadi;
- tashqi siyosiy faoliyatga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadi, respublika qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir takliflar tayyorlaydi.

Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvardagi №5643 raqamli "Investisiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Investisiyalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasi va Tashqi savdo vazirligini qo'shish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi.

Vazirlik davlatning chet el investisiyalarini, birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb etishni muvofiqlashtirish, xalqaro moliya institutlari (boshqaruv ofislari) va chet el hukumatga qarashli moliya tashkilotlari bilan hamkorlik qilishda davlatning yagona investisiya siyosatini amalga oshirish, shuningdek tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish hamda muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi quyidagi asosiy strategik vazifalarni va yo'nalishlarni hayotga joriy etadi:

- Davlat taraqqiyot dasturi va investisiya dasturini, shuningdek sohaviy va hududiy investisiya dasturlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish hamda samarali amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha davlatning yagona investisiya siyosatini hayotga tadbiq etish;

- chet el investisiyasini jalb qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari bilan, xorijiy hukumatga qarashli moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatda o'zaro samarali hamkorlik qilish;
- davlat organlari va tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro va chet el moliya va iqtisodiy institutlaridagi doimiy vakillari faoliyatini, shuningdek tashqi ishlar vazirligining O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi muaassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanayotgan xodimlari bilan birgalikda muvofiqlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasining investisiyaviy hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalarni tayyorlashi, kelishuv va imzolashida ishtirok etish;
- investorlar bilan doimiy o'zaro qarama-qarshi aloqani ta'minlash, investisiyalarini jalb qilishda hududlarni va mahalliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, investisiyaviy takliflarni ishlab chiqishni tashkillashtirish;
- tashqi savdoda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, eksportni qo'llab-quvvatlash Milliy tizimlarning samarali faoliyatini ta'minlash, tashqi savdoni tartibga solish sohasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- savdoda tarifli va tarifsiz tartibga solish choralarni qo'llash bilan bog'liq tadbirlarni muvofiqlashtirish, shuningdek elektron savdo ishlarini takomillashtirish;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan savdo hamkorliklarini kengaytirish va mustahkamlash, tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash;
- O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini va boshqa ko'p tomonli iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorliklarini muvofiqlashtirish;
- ulgurji va birja savdolarini tartibga solish masalalarini muvofiqlashtirish, bozor holatini tahlil qilish va monitoringini yuritish va marketing tadqiqotlarini olib borish va tovarlar narxlari haqida ma'lumotlarni tahlil qilish;
- tashqi savdo infratuzilmalarini rivojlantirish masalalarini ilgari surish, jumladan tranzit imkoniyatlari darajasini oshirish, lagistika va transport yo'laklarini yanada takomillashtirish, shuningdek eksport yo'nalishlarini diversifikasiya qilish.

Nazorat savollari

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning «o'zbek modeli» tamoyillari va bosqichlarini tushuntib bering.
2. O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibi va jahon iqtisodiyotidagi o'rni tushuntiring.
3. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining tarkibi va rivojlanish dinamikasini tahlil qiling.
4. «Navoiy», «Angren», «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalarining O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishidagi o'rniga baho bering.
5. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash holatini baholang.

4-MAVZU. JAHON IQTISODIYOTI VA UNING TARKIBI

- 4.1. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- 4.2. Jahon xo'jaligi tushunchasi, uning asosiy sub'ektlari
- 4.3. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar

Tayanch boralar: jahon iqtisodiyoti, globallashuv, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, jahon xo'jaligi, xalqaro hamkorlik, ilmiy-texnik inqilob, ishlab chiqarish va texnologik hamkorlik.

4.1. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar

Jahon iqtisodiyoti – bu an'anaviy (davlatlar, transmilliy kompaniyalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va b.) va eng yangi (intellektual vodiylar, jahon shaharlari, texnoparklar, virtual korxonalar va b.) tuzilmalari va ular o'rtasidagi munosabatlari mavjud bo'lgan globallashayotgan murakkab tizim.

«Jahon iqtisodiyoti» tushunchasini keng va tor ma'nolarda ko'rib chiqish mumkin. Keng ma'noda jahon iqtisodiyoti – bu barcha milliy iqtisodiyotlarni qamrab olgan bir tizim hisoblansa, tor ma'noda – bu milliy iqtisodiyotning tashqi dunyoga tovarlar, xizmatlar va iqtisodiy

resurslar yetkazib beruvchi qismlarinigina qamrab oluvchi tizimdir.

Zamonaviy jahon iqtisodiy tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali xalqaro mehnat taqsimoti asosida global xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro hamkorligini anglatadi. Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida muayyan xususiyatlarga ega: yaxlitlik, tuzilish, ierarxiya, dinamizm, tartib va umumiy maqsadning mavjudligi.

"Jahon iqtisodiyoti" tushunchasining sinonimlari "jahon xo'jaligi", «butunjahon iqtisodiyoti» hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

1. Uning shakllanishi va rivojlanishining asosida milliy chegaradan tashqariga chiqadigan bozor iqtisodiyotini baynalmilallashuvning ob'ektiv qonuniyatlari yotadi.
2. Ko'pukladli va ko'p darajali xo'jalik bo'lib, uning doirasida turli darajadagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (jismoniy shaxslar va kichik biznesdan boshlab, global miqyosda faoliyat yurituvchi ko'p millatli kompaniyalargacha) o'zaro faoliyat yuritadilar.
3. Unga sub'yektlari sonining muntazam oshishi va ularning o'z iqtisodiy manfaatlari asosida o'zaro hamkorligining o'sishi xosdir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – jahon iqtisodiyoti sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarning ko'p bosqichli majmuidir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ikki asosiy qismdan, ya'ni, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'zi va uni amalga oshirish mexanizmidan iboratdir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar o'z ichiga alohida mamlakatlarni, ularning mintaqaviy birlashmalarini, shuningdek alohida korxonalarining (transmilliy korporasiyalarni) jahon xo'jaligi tizimidagi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning majmuini oladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) tizimiga quyidagilar kiradi:

- 1 xalqaro mehnat taqsimoti
- 2 xalqaro tovar va xizmatlar savdosi
- 3 xalqaro kapital va xorijiy investisiyalar harakati
- 4 xalqaro ishchi kuchi migrasiyasi
- 5 xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari
- 6 xalqaro iqtisodiy integrasiya.

An'anaviy tarzda xalqaro tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk savdosi alohida shakl sifatida ajratiladi. Ishlab chiqarish omillarining harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xalqaro kapital harakati, xalqaro ishchi kuchi migrasiyasi, texnologiyalarni xalqaro uzatish kabi shakllari asosida yotadi.

Kapital, mehnat va texnologiyadan tashqari boshqa iqtisodiy resurslardan biri hisoblangan tabiiy resurslar harakatchan emasligi bois, jahon xo'jalik aloqalarida qazib chiqarilgan va ular asosida tayyorlangan mahsulotlarning xalqaro savdosi orqali qatnashadi. Tadbirkorlik qobiliyati omili esa, odatda, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalar bilan birgalikda harakatlanadi, shu sababdan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning alohida shakli sifatida qatnashmaydi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning keyingi shakli xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlari xalqaro savdo hamda ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati hosilasi hisoblansa-da, jahon xo'jaligida alohida ahamiyatga ega mustaqil iqtisodiy munosabatlar sifatida tan olingan.

Jahon xo'jaligi, zamonaviy holatiga erishgunicha, uzoq rivojlanish yo'lidan o'tdi. Jahon iqtisodiyotining davriyligini yoritishdagi turli tuman qarashlarga e'tibor qaratish lozim. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi sohasidagi ayrim tadqiqotchilar uning paydo bo'lishini Rim imperiyasining davriga ishora qiladilar. Bir qator mualliflar jahon xo'jaligining kelib chiqishini buyuk geografik kashfiyotlar davri va XV–XVII asrlarda kapitalning dastlabki to'planishi bilan bog'lashadi, ya'ni bu davrda bir qator rivojlangan g'arbiy Yevropa davlatlari (Angliya, Ispaniya, Portugaliya) Osiyo, Amerika va Afrika hududlarini o'z ta'sirlari ostiga oldi. Metropoliya va koloniyalar o'rtasida yaqin bozor munosabatlarining shakllanishi yuzaga keldi. Asta-sekin xalqaro tovar ayirboshlash va eksport qilinadigan kapital hajmi o'sib bordi.

Iqtisodchilarning aksariyati zamonaviy jahon iqtisodiyoti XIX–XX asrlar bo'sag'asida shakllangan deb hisoblashadi. Bu vaqtga kelib, Yevropaning yetakchi mamlakatlarida, shuningdek, AQSh, Rossiya va Yaponiyada iqtisodiyotning sanoat va agrar tarmoqlarini mexanizatsiyalash va elektrlashtirishga olib kelgan dastlabki ikki ilmiy-texnik inqilob sodir bo'ldi. Ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish va kapital kontsentratsiyasining jarayoni tezlashdi, monopoliyalar hosil bo'ldi (kelajakdagi sanoat va moliya korporatsiyalarining prototipi).

Konveyer ishlab chiqarishning, texnik yangiliklarning joriy etilishi ichki va tashqi bozorlarga tovar yetkazib berishning o'sishiga olib keldi. Tez sur'atlarda bozor infratuzilmasi o'zining asosiy bo'g'inlari bo'lgan kredit va moliya institutlari, fond birjalari, sug'urta kompaniyalari bilan rivojlandi. Dunyoning yetakchi davlatlarining iqtisodiy qudratining kuchayishi ular o'rtasidagi raqobatning keskin tus olishiga, hududiy ekspansiyaga (kengayishga) olib keldi. Qarama-qarshi tomonlarning ittifoq bloklari hosil bo'ldi. Shunday qilib, zamonaviy jahon xo'jaligi shakllanishining birinchi bosqichi XIX asrning so'nggi choragi – 1913 yilni qamrab oladi.

Ikkinchi bosqichda (1914-1945) mustamlakachi kuchlar o'rtasidagi jahon tovar bozorlari va tabiiy resurslar uchun kurash juda yuqori darajaga yetdi va ikkita jahon urushiga olib keldi. Dunyoning siyosiy xaritasida katta o'zgarishlar ro'y berdi: mustamlakachi imperiyalarning qulashi, masalan, Usmonlilar imperiyasi; dunyodagi birinchi ma'muriy-buyruqbozlik xo'jaligiga ega davlatning SSSRning paydo bo'lishi. G'arbning yetakchi mamlakatlarida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning oshish tendentsiyasi kuzatildi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy va harbiy notinchliklar davrida sezilarli bo'ldi.

Uchinchi bosqich – 1940-1980 yillar xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti shakli mavjud va mavjud bo'lmagan davlatlarning to'qnashuvi bilan tavsiflanadi. 1960 yillarning boshida mustamlaka tizimining butkul parchalanishi sodir bo'ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning katta guruhi avtarkiyani (izolyatsiyani) yengib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishdi. 1970 yillarda jahon xo'jaligida yetakchi mavqega AQSh, G'arbiy Yevropaning bir qator davlatlari va Yaponiya chiqdi. Janubi-Sharqiy Osiyodagi yangi sanoat mamlakatlari (Gonkong, Koreya Respublikasi, Singapur) va yaqin Sharqdagi neft qazib chiqaruvchi davlatlarning (BAA, Saudiya Arabistoni) iqtisodiyoti jadal rivojlana boshlagan.

Ushbu davrda jahon iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalar: baynalmilallashuv, milliy iqtisodiyotlarning yanada yaqinlashishi va o'zaro ta'sirida va transmilliylashuv – transmilliy korporatsiyalarning (TMK) rolining kuchayish jarayonida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi bosqich 1990 yillarning boshidan boshlab hozirgi kungacha davom etmoqda. Eng muhim voqea – Markaziy va Sharqiy Yevropa, Osiyo davlatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishidir.

Dunyoning yetakchi davlatlari iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga – postindustrial, axborot-texnologiya jamiyatiga kirishdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Braziliya, Hindiston, Xitoy, Meksika, Turkiya, Janubiy Afrikaning iqtisodiy taraqqiyotini alohida qayd etish lozim. Bosqichning asosiy tendentsiyalari:

- iqtisodiyotni *liberallashtirish* yoki iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni kamaytirish jarayoni,
- *integratsiya* yoki mamlakatlarning qit'a ittifoqlari - Yevropa Ittifoqi, NAFTA va boshqalar ichida siyosiy-iqtisodiy birlashuvi,
- *globallashtiruv*, mamlakatlar, mintaqalar o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faollikka intilishi, bozorlarni birlashtirish jarayoni.

Zamonaviy davr jahon valyuta-moliyaviy, xom-ashyo, iqtisodiy inqirozlarning ortishi bilan tavsiflanadi. Davlatlarning ajralib ketishiga olib keladigan geosiyosatning kuchayishi sharoitida insoniyatning global muammolarini birgalikda hal qilishning yo'llarini topish qiyin.

4.2. Jahon xo'jaligi tushunchasi, uning asosiy sub'ektlari

Adabiyotlarda jahon xo'jaligi tushunchasining ta'rifiga turli xil yondashuvlar mavjud.

Ularning eng muhimlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) jahon xo'jaligi – xalqaro mehnat taqsimoti tizimi bilan bir-biriga bog'liq bo'lgan milliy xo'jaliklarning majmui. Bunday ta'rif jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodlar yig'indisi sifatida namoyon bo'lishiga asoslanadi va to'liq hisoblanmaydi;

2) jahon xo'jaligi – ishlab chiqarish va moliyaviy munosabatlarning jahon tizimi. Ushbu yondashuvda jahon iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlari – real ishlab chiqarish sohasi va aylanma sohasi aks ettirilgan;

3) jahon xo'jaligi – milliy davlat va nodavlat tuzilmalar majmui, shuningdek, ularning xalqaro mehnat taqsimoti va siyosiy aloqalar asosida o'zaro munosabatlari. Ushbu izohda jahon iqtisodiyoti yagona iqtisodiy makon (megaiqtisodiyot) bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlar sub'ektlari quyidagilar hisoblanadi:

- dunyo mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlari;
- jahon biznesining sub'ektlari – transmilliy korporatsiyalar (TMK) va ularning ittifoqlari;

- jahon xo'jaligi institutlari – xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va integration birlashmalar.

Milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy sub'ekti sanaladi. Dunyoda 180 dan ortiq davlat mavjud. Iqtisodiy rivojlanishning turli ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ko'plab davlatlar orasida muhim xususiyatlarga ko'ra tasniflanadigan turli mamlakatlar guruhlarini ajratib ko'rsatiladi.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) – dunyodagi eng yirik kompaniyalar, faoliyat sohasini xalqaro miqyosda olib boruvchi, ammo tashkil topgan mamlakatida milliy kapitalga ega hisoblanadi.

XXI asrning boshlarida dunyoda 70 mingga yaqin TMK va 850 ming filiallari bor edi. 50 mingga yaqin bosh-kompaniyalar rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Jahon ishlab chiqarishining 50% va dunyo tashqi savdosining 2/3 qismi TMK ulushiga to'g'ri keladi. Birinchi o'ntalikda turuvchi dunyoning eng yirik TMK larining kapitallashuvi bir necha yuz ming dollarni tashkil etadi.

Transmilliy korporatsiyalar mezonlari:

- 1) Transmilliy korporatsiyalar faoliyat yuritadigan mamlakatlar soni;
- 2) Transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarish quvvatlari joylashgan mamlakatlar soni;
- 3) korporatsiya hajmi;
- 4) daromad va sotishdagi xorijiy operatsiyalarning ulushi;
- 5) bir necha mamlakatlarda aktsiyalarga ega bo'lish;
- 6) xodimlarning xalqaro tarkibi.

Kompaniyaning ma'lumotlariga asoslanib, transmilliylashuv indeksi – kompaniyaning xorijiy aktivlarining umumiy aktivlari hajmiga nisbati o'rtacha qiymati – hisoblab chiqiladi.

Zamonaviy transmilliy korporatsiyalarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- TMK ning yirik o'lchamlari. Ular bir necha milliard dollarlik aylanmaga ega yirik sanoat-moliya komplekslari bilan ifodalanadi;
- TNKning roli. Bu korporativ manfaatlar mujassamlashgan iqtisodiyot tarmoqlarining muhim ahamiyati bilan belgilanadi. Bular ilmiy va texnik taraqqiyot bilan bog'liq ilg'or ilmiy-intensiv qayta ishlash tarmoqlari: avtomobil, elektron, kimyo, farmatsevtika va boshqalar hisoblanadi.

Transmilliy korporatsiyalar rivojlanishida bir nechta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) XIX asrning oxiri va Birinchi jahon urushi boshlanishi. Ushbu davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan kartellar va sindikatlar ko'paydi va asosan xom ashyo ishlab chiqarish bilan shug'ullandi;
- 2) Birinchi jahon urushi – Ikkinchi jahon urushi oralig'idagi davr. Ushbu davrda asosan harbiy ehtiyojlarni qondirish uchun trestlar hukmron edi;
- 3) Ikkinchi jahon urushidan keyin va mustamlakachilik tizimining parchalanishigacha bo'lgan davr. Ushbu bosqichda zamonaviy qayta ishlab chiqarish sanoatida konsern va konglomeratlar ustunlik qildi;
- 4) XX asrning 70-80 yillari va XXI asrning boshlanishi. Ko'p tarmoqli konsernlar TMKning asosiy shakliga aylanadi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – bu jahon xo'jaligi institutlari bo'lib, ularning roli so'nggi o'n yilliklarda ayniqsa oshdi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning aksariyati nodavlat bo'lib, ular taxminan 3000 taga yaqin. Ular orasida JST, XVF, OECD va boshqalar kabi mashhur tashkilotlar mavjud. Tashkilotlarning yana bir guruhi – davlatlararo, ular 400 ga yaqin. Ular orasida Evropa Ittifoqi, NAFTA, ASEAN va boshqalar bor.

Dunyoning eng muhim integratsiya birlashmalari – jahon iqtisodiyoti sub'ektlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Yevropa Ittifoqi (YeI). 1950 yilda birlashma shakllanishining boshlanishi va 1951 yilning Parij shartnomasiga ko'ra (Parijda tuzilgan) 6 ta Yevropa davlatlarini o'z ichiga olgan Ko'mir va po'latning Yevropa Ittifoqi yaratilgan. 1957 yilda Rim shartnomasiga ko'ra tashkilot Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga aylantirildi va 1992 yildan buyon esa Yevropa Ittifoqi degan nom oldi.

NAFTA – AQSh, Kanada va Meksika o'rtasidagi Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (1994 y.).

ASEAN – 1967 yilda tashkil etilgan Osiyo-tinch okeani Ittifoqi. Bu Osiyo-tinch okeani mintaqasining 10 davlatlarini o'z ichiga oladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) BMT tizimining ixtisoslashtirilgan muassasasi bo'lib, uning faoliyati orqali butun jahon savdosining 9/10 qismini tartibga solinadi. Tashkilot 1995 yilda GATSning (General Agreement on Trade in Services, Xizmatlar savdosi bo'yicha umumiy bitim) vorisi sifatida tashkil etilgan.

4.3. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar

Ma'lumki, butun jahon iqtisodiyoti, jahon bozori, xalqaro iqtisodiy munosabatlar milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligining chuqurlashuvi va takror ishlab chiqarish jarayonining baynalmilallashuvi natijasida xalqaro mehnat taqsimoti asosida shakllangan. Tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar xalqaro almashinuvi, kapital va mehnatning xalqaro harakati butun dunyo iqtisodiyoti va uning sub'ektlari – alohida mamlakatlarning yanada rivojlanishiga olib keladi.

Mehnat taqsimoti – tarixiy ijtimoiy mehnat tizimi. Jamiyat rivojlanishi jarayonida mehnat faoliyatining sifat jihatidan farqlanishi tufayli yuzaga kelgan. Mehnat taqsimoti turli shakllarda mavjud bo'ladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti ishlab chiqarish jarayonini shunday tashkillashtiradiki unda turli mamlakatlarning korxonalari muayyan texnologik jarayonlarga, muayyan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ularni o'zaro almashadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati ishlab chiqarish jarayonini ajratish va birlashtirishning dialektik birligida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayoni bir tomondan, turli xil mehnat faoliyatlarini ajratish va ixtisoslashtirishni, ikkinchi tomondan, ularning hamkorligi va o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, mehnat taqsimoti nafaqat ajratish jarayoni, balki mehnatni, ayniqsa, jahon miqyosida, birlashtirish usuli sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xalqaro mehnat taqsimotining ahamiyati jahon iqtisodiyotida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda uning ortib borayotgan roli bilan belgilanadi. Buning sababi shundaki, xalqaro mehnat taqsimoti birinchi navbatda ushbu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi, ikkinchidan, tegishli xalqaro tarmoq va mintaqaviy-tarmoq nisbatlarini shakllantiradi.

Har bir milliy iqtisodiyot xalqaro mehnat taqsimotidan yutadi. Jahon bozoriga mamlakatning milliy ishlab chiqarish xarajatlari jahon narxidan past bo'lgan mahsulotlari chiqarilib va milliy ishlab chiqarish xarajatlari jahon narxidan yuqori bo'lgan mahsulotlar import qilinadi. Xarajatlarga kelsak, ular asosan uchta asosiy ishlab chiqarish omilining qiymati – mehnat (ish haqi darajasi), kapital (foiz), yer va tabiiy resurslar (yer rentasi) bilan belgilanadi.

Shunday qilib, xalqaro almashinuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklarini amalga oshirish har qanday mamlakatni qulay sharoitlarda, birinchi navbatda, eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlarning xalqaro va ichki narxlari o'rtasidagi farqni olish va ikkinchidan, arzon importdan foydalanib, qimmatbaho milliy ishlab chiqarishdan voz kechish evaziga ichki xarajatlarni tejash imkonini beradi.

Xalqaro mehnat taqsimotini tarixan va mantiqan ravishda 3 turga ajratiladi:

1) umumiy XMT – xalq xo'jaligining ishlab chiqarish sohalari va tarmoqlari bo'yicha (tarmoq ixtisoslashuvi). Bundan esa eksport qiluvchi mamlakatlarni industrial, xomashyo yetkazib beruvchi, agrar va boshqalarga bo'linishi kelig chiqadi;

2) xususiy XMT – tayyor mahsulot va xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha (predmetli) ixtisoslashuv;

3) Detal bo'yicha ixtisoslashish –texnologik jarayon bosqichlarida individual qismlar, ularning komponentlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuv. Bu eng murakkab, ammo istiqbolli ixtisoslashuv turi, chunki u o'sib borayotgan darajada milliy iqtisodiyotlarning umumiy, alohida korporatsiyalar va firmalarning o'zaro ta'sirini belgilaydi.

Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishi xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining asosiy yo'nalishi bo'lib, uning mohiyatini ifodalaydi.

Xalqaro hamkorlikning ob'ektiv asoslari ishlab chiqarish kuchlarining o'sib borayotgan rivojlanish darajasi va mustaqil korxonalar o'rtasida barqaror samarali aloqalarni o'rnatishdan iborat. Ushbu jarayon mamlakat ichida yoki xalqaro maydonda sodir bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, xalqaro ixtisoslashuv va xalqaro kooperatsiyani ishlab chiqarish munosabatlarining shakli sifatida keng tarqalishi sheriklar o'rtasida barqaror va uzoq muddatli aloqalarga bog'liq bo'lib, bu sheriklarga ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini tejashga yordam beradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi mahsulot, firma, mamlakat jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi va bu o'z navbatida xalqaro mehnat taqsimotini zamonaviy xalqaro

iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning zarur elementiga aylantiradi.

Nazorat savollari

1. Jahon iqtisodiyotining tor va keng ma'nolaridagi tavsifi nima bilan farq qiladi?
2. Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida nimani ifoda etadi?
3. Jahon iqtisodiyotining sub'ektlariga nimalar kiradi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qanday shakllari mavjud?
5. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi qanday xususiyatlarga ega?
6. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
7. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi nima va uning qanday belgilari mavjud?
8. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi qanday bosqichlarga bo'linadi?
4. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperasiyalashuvning rivojlanishi milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka qanday ta'sir o'tkazadi?
5. Jahon xo'jaligi tizimida xalqaro mehnat taqsimoti qanday rol o'ynaydi?
6. Qaysi omillar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga ta'sir ko'rsatadi? Xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuvining zamonaviy xususiyatlariga misollar keltiring.
7. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperasiyalashuv o'rtasidagi farq nimadan iborat?
8. Milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini belgilab beruvchi asosiy omillarni sanab o'ting. Ushbu omillar ta'sirini tushuntirib bering.

5-MAVZU. JAHON BOZORI VA UNING KON'YUNUKTURASI. JAHON TOVAR BOZORIDA NARXNING SHAKLLANISHI

- 5.1. Zamonaviy jahon bozori. Jahon bozorining kon'yunkturasi.
- 5.2. Jahon tovar bozorida narxning shakllanishi.
- 5.3. Jahon narxlari va asosiy tashqi savdo narxlarining turlari.

Tayanch iboralar: kon'yunktura, narx, jahon bozori, globallashtiruv, ixtisoslashuv, integratsiya,

5.1. Zamonaviy jahon bozori. Jahon bozorining kon'yunkturasi.

Mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bozor munosabatlarining o'ziga xos sohasi bo'lgan, tovar ishlab chiqarishning shakllanishi va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan jahon bozorining shakllanishiga olib keldi.

Mamlakatlarning milliy bozori va jahon bozori o'rtasidagi farqni ta'kidlash lozim.

- milliy bozor – bu muayyan mamlakat bozori bo'lib, uning bir qismi xalqaro ayriboshlash (mahsulot va xizmatlar eksporti va importi) bilan bog'liq;

- jahon bozori – bu jahonning barcha mamlakatlari bozorlarini umumlashtiruvchi tushuncha.

Shunday qilib, har bir mamlakatda ma'lum darajada ishlab chiqarish kuchlari, ish haqi, o'rtacha foyda me'yori va boshqalar shakllanadi. Milliy bozorda tovarlar harakati ushbu mamlakat bo'ylab sodir bo'ladi, bir xil mahsulotga bo'lgan narxlar esa tengashtiriladi. Milliy bozorda tovarlar bahosining harakatiga, odatda, ichki iqtisodiy omillar ta'sir qiladi, garchi siyosiy qarorlar ham ta'sir qilishi mumkin: masalan, hukumat tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar narxlarining yoki tariflarning o'sishiga cheklovlarning joriy etilishi.

Jahon bozorida esa boshqacha vaziyat kuzatiladi. Bu yerda milliy chegaralararo tovarlarning harakatlanishi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy guruhlarlarning tashqi savdo siyosatiga va boshqa ko'plab tashqi omillarga bog'liq. Ularning ta'siri ostida jahon bozori va jahon narxi shakllanadi.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o‘zaro bog‘langan mamlakatlar o‘rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi.

Jahon tovar bozorida yuz berayotgan jarayonlarga ham xalqaro savdoga ta'sir ko'rsatadigan bir xil omillar ta'sir ko'rsatadi:

- jahon iqtisodiy aloqalarining globallasuvi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalangan holda ehtiyojlarning yangi tarkibining shakllanishi;
- davlatlarning tashqi savdo siyosati;
- dunyodagi siyosiy jarayonlar;
- ishlab chiqarish va kapitalning davomiy konsentratsiyasi;
- integratsion tuzilmalar va xalqaro savdo tashkilotlarining savdo-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish masalalariga ta'siri.

Jahon bozorlarida kuchayib borayotgan raqobat va jahon narxlari, talab va taklifning o'zgarishi ta'siri ostida, jahon iqtisodiy aloqalarini xalqarolashtirish va globallasuvi jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi: milliy va jahon narxlarining yaqinlashuviga, tovarlar va xizmatlarni sotishdagi tashqi savdo to'siqlarini bartaraf etishga, tashqi savdo faoliyatini yuritish qoidalarini unifikatsiyalashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy jahon tovar bozorida mahsulotlarning xilma-xilligi, sifati va ishonchliligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish elektron birjalar (shu jumladan tovar), internet-yetkazib berish kabi yangi savdo shakllarining paydo bo'lishiga yordam berdi.

Jahon tovar bozorining tuzilmasi hisobiga yangi turdagi tovarlarning paydo bo'lishi va mavjud bozorlardan mahsulotni sotish hajmi jadal o'sib borayotgan segmentlarning ajralishi hisobiga muntazam o'zgarib turadi. Misol uchun, mashina va uskunalar bozorining nomenklaturasidan qurilish mashinalari va uskunalarini ijaraga olish jahon bozori, qadoqlash uskunalarining jahon bozori va boshqalar paydo bo'ldi. Tarkibiy qismlaridan biri ilmiy-texnik mahsulotlar bozori bo'lgan fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulotlarning jahon bozori shakllandi.

Fan sig'imkorligi yuqori tovarlar bozori ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. IHTT tasnifiga muvofiq fan sig'imkorligi yuqori tovarlarga quyidagi to'rtta tarmoqqa tegishli tovarlar kiradi: aerokosmos, farmasievtika, kompyuter va ofis jihozlari ishlab

chiqarish, kommunikasiyaning elektron vositalari. Fan sig'imkorligi **yuqori tovarlar** ro'yxati milliy guruhlashlarda yanada kattaroq bo'lishi mumkin. Masalan, AQShda ularga biotexnologiya, yangi materiallar, atom reaktorlari, qurol-yarog'larning alohida turlari ham kiritiladi.

Jahon tovarlar bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga ko'ra **yopiq, ochiq, preferentsial** bozorlarga bo'linadi.

Xalqaro savdo qatnashchilarini, birinchi navbatda, tovar bozorlari kon'yunkturasi qiziqtiradi. Zamonaviy dunyoda, bozor raqobati tobora kuchayib borayotgan bir vaqtda, tijoratda muvaffaqiyatga erishishning eng muhim sharti – kon'yunktura omillarining o'zaro ta'sirini tahlil qilish asosida tovarning talab va taklif nisbatlarini doimiy aniqlashdir. Odatda, quyidagi omillar guruhini asosiy omillar qatoriga kiritish mumkin:

- doimiy va o'zgaruvchan;
- tsiklik va notsiklik;
- bozor rivojlanishini rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillar;
- amal qilish muddati bo'yicha farq qiluvchi omillar.

Misol uchun, notsiklik xarakterdagi doimiy faol omillarga davlat tomonidan monopoliyaning tartibga solinishi keltirish mumkin. Qator sohalardagi (ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida) ishlab chiqarish va iste'molning mavsumiyligi kabi omillar tsiklik omillarga kiradi. Tsikllar, ma'lumki, turli xil xarakter va davomiylikka ega: katta, qisqa – ishlab chiqarish, mavsumiy, biologik va boshqalar.

Davomiyligi bo'yicha kon'yunkturani tashkil etuvchi omillar qisqa muddatli – bir necha haftadan bir yilgacha, o'rta muddatli – odatda besh yilgacha va uzoq muddatli deb tasniflanishi mumkin. Kon'yunkturani tashkil etuvchi ba'zi omillar ikkitomonlama namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi: bir tomondan ular doimiy faoliyat ko'rsatishi mumkin, ikkinchidan, ular davriy (tsiklik) xarakterga ega.

Ilmiy-texnik taraqqoyot (ITT) alohida mamlakatlar va umuman jahon iqtisodiyotining iqtisodiy rivojlanishiga doimiy ta'sir qiladi. Biroq, bu omilning doimiy ta'siridan tashqari, uning ta'sirining tsiklikligi ham namoyon bo'ladi, chunki bilim, texnologiya, ishlab chiqarilgan mahsulotlar doimo takomillashib boradi va ma'lum bir bosqichda sifatli sakrash yoki ilmiy-texnik inqilob (ITI) sodir bo'ladi.

Bozorni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi omillar, birinchi navbatda, savdo siyosati vositalarini, masalan, biror bir

mahsulotni eksport qilishni qo'llab-quvvatlash choralarini yoki savdo urushlarini o'z ichiga oladi.

5.2 Jahon tovar bozorida narxning shakllanishi

Yuqorida aytib o'tilganidek, jahon bozorida maxsus narx tizimi – jahon narxlari mavjud bo'lib, ularga ishlab chiqaruvchilarning qaysi xarajatlari tovarlarni sotishdan keyin qoplanishi, foyda darajasi, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada kengaytirish uchun imtiyozlar paydo bo'lishi bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar bozorlaridagi narxlarning shakllanishi sabablarini aniqlash muhimdir. Shartlarni yoki narxlarni shakllantirish omillarini aniqlashdan oldin «narx» tushunchasini aniqlash kerak. Xalqaro tovar savdosi holatini eng yuqori darajada jahon narxlari ifodalaydi.

Jahon narxi – bu tashqi savdo narxidir, unda erkin tovar bozorida eksport va import operatsiyalari erkin konvertatsiyalanadigan valyutadagi to'lovlar bilan muntazam ravishda amalga oshiriladi.

Jahon narxlari asosidagi operatsiyalar quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- muntazam ravishda amalga oshiriladi;
- barter operatsiyalari narxini, davlat yordami doirasida yetkazib berish operatsiyalarini va boshqalarni hisobga olmaslik;
- erkin bozorda amalga oshiriladi;
- erkin almashtiriladigan valyutada amalga oshiriladi.

Jahon narxlari mamlakatlar va turli mamlakatlar va yirik kompaniyalar o'rtasidagi savdo bitimlariga xizmat qiladi. Quyidagilar jahon narxlari hisoblanadi:

- xom ashyo, mahsulot, tovarlarning yetakchi (asosiy) bozorlarida amalga oshiriladigan yirik eksport yoki import bitimlarining real narxlari;
- xalqaro savdoni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan ma'lum bir vaqt uchun tan olingan narxlar;
- jahon tovar bozorida muntazam ravishda amalga oshiriladigan bitimlar narxi;
- turli mamlakatlar bozorlaridagi bir xil xom ashyo, mahsulot, tovarlar bitimlari bo'yicha hisoblangan o'rtacha narx.

Narxlarning shakllanishiga quyidagi turli omillar ta'sir ko'rsatadi:

- umumiy iqtisodiy (mahsulot turi, ishlab chiqarish va sotilishiga bo'g'liq bo'lmagan holda ta'sir ko'rsatadi);
- maxsus iqtisodiy (muayyan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish va sotish shartlari bilan belgilanadi);
- o'ziga xos (tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga nisbatan amal qiladi);
- maxsus (davlat tomonidan tartibga solish vositalari, valyuta kursining o'zgarishi);
- iqtisodiy, siyosiy, harbiy.

Jahon bozorining narxi xalqaro qiymatga va jahon bozoridagi yetakchi eksport qiluvchi mamlakatlarning xarajatlariga asoslanadi. Ichki narxlar, aksincha, milliy xarajatlarga asoslanadi va milliy ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini aks ettiradi. Xalqaro savdoning narxi jahon va ichki bozorlarning turli hajmlari, ularning faoliyat yuritish shartlari, shuningdek, boshqa narx-navo omillari tufayli ichki narxlardan farq qiladi. Odatda, jahon narxi ichki narxdan past bo'ladi, chunki ichki narxlarni shakllantirishga ta'sir qiladigan, milliy bozorni xorijiy yetkazib beruvchilardan iqtisodiy jihatdan himoya qiladigan va natijada raqobatni yumshatadigan bir qator vositalar (bojlar, soliqlar va boshqalar) mavjud. Jahon va ichki narxlar o'rtasidagi farq 1/3 gacha bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, tayyor mahsulotlar narxlari yuqoriroq bo'ladi, bu esa tayyor mahsulotni import qilishda tarif va tarifsiz to'siqlarning yuqori darajasi bilan bog'liq.

Qayta ishlash sanoati mahsulotlarining jahon narxlari asosida yirik ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning eksport bahosi yotadi. Ushbu narxlar to'liq xarajatlar yoki to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar usuli orqali aniqlanadi:

To'liq xarajatlar usuli – bu usul asosida bahoning aniqlanishi ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari, kutilayotgan daromad, mahsulotni to'liq sotilishi va ishlab chiqarish quvvatining 75-85% ishlatilishini hisobga olish yotadi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar usuli – barcha xarajatlar ustama va bevosita xarajatlarga bo'linib, asosan o'zgaruvchan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Alohida shartnomalar asosida – yetkazib beriluvchi ma'lum bir tovar turi va xizmat narxlari aynan shu xildagi tovar turi va xizmat narxlarining jahon bozoridagi darajasidan farq qilishi mumkin. Bu holat

tovarning o'ziga xos sifat belgilari, tovarni yuklash va to'lovi, yuklangan turkumning (partiyasi) hajmi, har ikki tomon munosabatlarining xarakteri bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomaning o'ziga xos talablari bilan izohlanadi.

Xalqaro savdoda narxlar turlarining ko'pligi tayyor mahsulotlar bozori shart-sharoitlarining har xil ekanligini aks ettiradi, mana shunday sharoitda oldi-sotdi aktlari tuziladi. Kuzatuvlar jahon narxining o'zgarib turish tendentsiyasi ana shu shart-sharoitlarga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tovarning tashqi savdo narxini asoslash; aniqlash va kelishib olishda kelishuvning o'ziga xos tomonlarini belgilab beruvchi tabiati haqida aniq tushuncha, tasavvurga ega bo'lish kerak. Misol uchun, texnologik-mashina mahsulotlari, murakkab texnik tovarlar savdosini olib ko'raylik, bu savdo ishlab chiqaruvchi - sotuvchi va iste'molchi - xaridorning bevosita ishtirokida o'tkazilib, tovarni yetkazib berishning barcha shart-sharoitlari kelishib olinadi.

5.3. Jahon narxlari va asosiy tashqi savdo narxlarining turlari

Jahon narxlari tashqi savdo operatsiyalari narxini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tashqi savdo narxlarining tasnifi quyidagi jadvalda keltirilgan.

5.1.- jadval

Tashqi savdo narxlarining tasnifi¹

Tasniflash belgisi	Narx turlari
Bozor turi	Auksion narxlari Birja narxlari Savdo narxlari
Ma'lumot olishga ko'ra	Chop etiladigan narxlar Hisob-kitob narxlari
Yetkazib berish startlariga ko'ra	Yetkazib berishning bazis startlari
Fiksatsiya usuli	Qat'iy (doimiy) narxlar O'zgaruvchan narxlar

¹ Шевчук Д. А. Мировая экономика: Конспект лекций. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007

	Sirg'aluvchi narxlar Aralash narxlar
Savdo shakliga ko'ra	joriy kontraktlar narxlari Uzoq muddatli kontraktlar narxlari

Shartnomaviy narx – sotuvchi va xaridor o'rtasida kelishilgan va shartnomada ko'rsatilgan aniq baho. Odatda, u yetkazib beruvchi taklif etgan bahodan past bo'lib, tijorat siri sifatida hech qaerda oshkor etilmaydi.

Ma'lumot beruvchi narxlar – maxsus nashrlarda, byulletenlarda, davriy adabiyotlarda, kompyuter ma'lumot kanallarida e'lon qilinadigan sotuvchi bahosi bo'lib, qoidaga ko'ra, ular ancha balandroq va kam harakatchan bo'ladi. Mazkur tovar bozorda yuzaga kelgan umumiy dinamika va tendentsiyani ifodalaydi;

Birja narxlari – birja orqali sotiladigan tovarlar bahosini aks ettiradi. Ushbu tovarlar tarkibiga asosan xomashyo tovarlari va yarim fabrikatlar kiradi. Birja savdosiga qo'yilgan tovar bozordagi kon'yunkturani o'zida ifodalaydi, ko'p hollarda noiqtisodiy omillar ta'siriga tushib qoladi; kelishuv chog'ida tovarning birja kotirovkasini, tovarni yetkazib berishni, to'lovni va boshqalarni o'zida ifoda ettirmaydi, kotirovka bahosi maxsus byulletenlarda bosib chiqariladi. Alohida tovarlar turlarining kotirovka narxlari ko'pincha ayrim birjalarda shakllangan narx darajasi va dinamikasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

Auktsion narxlar – tovarning savdo jarayonida vujudga kelgan bahosi bo'lib, ma'lum bir davrdagi talab hamda taklifni aks ettiruvchi va tovarning real bahosidir. Auktsionlarda asosan san'at asarlari, mo'yna, hayvonlar kabi o'ziga xos tovarlar sotiladi;

Tashqi savdoning statistik narxlari – milliy va xalqaro statistik ma'lumotnomalarda bosilgan hisob-kitob narxlari, bu ma'lumotlar ma'lum bir tovar bo'yicha aniq bahoni aks ettirmaydi. Ushbu narxlar faqat mamlakatlar va jahon savdosining rivojlanish dinamikasi va tendentsiyasini tahlil qilish, statistik hisob-kitoblarni uchun xizmat qiladi.

Jahon bozorida narxlar vujudga kelish xususiyatlariga qarab "erkin bozor" va "yopiq bozor" narxlariga bo'linadi. "Erkin bozor" bahosi raqobat sharoitida yuzaga keladi va talab bilan taklif nisbatini

aks ettiradi. "Yopiq bozor" bahosi tovarlarni sotish uchun ma'lum bir joyda tashkil etilgan, auksion savdolarga oid baholar hisoblanadi. "Yopiq bozor" bahosi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'ziga xos munosabat bo'lib, mazkur tovarga talab va taklif ob'ektlarining ta'siri kam bo'ladi. Bu baholar firmalarda ichki savdo, iqqisodiy guruhlarining mintaqaviy va maxsus preferentsial kelishuvlar bahosidir.

Kelishuvda belgilangan xizmat turiga qarab bahoning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- erkin konvertirlanadigan valyutada to'lanadigan savdo bitimlari narxi;
- erkin konvertirlanmaydigan valyutada to'lanadigan savdo bitimlar narxi;
- kliring kelishuvlar bo'yicha shakllangan narx;
- nosavdo operatsiyalar bo'yicha shakllangan narx;
- transfert narx (firma ichida).

Nazorat savollari:

1. Jahon bozoriga ta'sir qiluvchi omillar nima va ular qanday guruhparga ajratiladi?
2. Jahon bozori kon'yunkturasi nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Tayyor mahsulotlar bozorida narxlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar tizimi nimalardan iborat?
4. Xalqaro savdoda qo'llaniladigan narxlarning qantay turlari mavjud?
5. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozori qanday rivojlanish tendentsiyalariga ega?
6. Qayta ishlash sanoatiga qaysi tarmoqlar kiradi?
7. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozorining geografik tarkibi qanday ko'rinishga ega?

6-MAVZU. XALQARO TOVAR SAVDOSI VA UNI BOSHQARISH

6.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo

6.2. Xalqaro savdo, uning dinamikasi va tarkibi

6.3. Tashqi savdo siyosati. Xalqaro savdoni tartibga solish

Tayanch iboralar: xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro savdo, tashqi savdo, tashqi savdo balansi, tashqi savdo aylanmasi

6.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo

Turli mamlakatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish jarayonini ifodalovchi xalqaro savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning (XIM) tarixiy jihatdan ilk shakli hisoblanadi.

Xalqaro savdo - dunyodagi barcha mamlakatlarning tashqi savdosidan kelib chiqadigan xalqaro tovar-pul munosabatlari tizimi, bu turli davlat-milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir.

Savdoning paydo bo'lishi mehnatning ijtimoiy taqsimoti va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Qadimgi va o'rta asrlarda savdogarlar tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo ustunlik qildi. Kech o'rta asrlarda (XV–XVII asrlar) jahon bozorining shakllanishi bilan xalqaro savdo, savdo kapitali rivojlandi. Xalqaro savdoning rivojlanishi yangi zamon jahon iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Xalqaro savdo atamasini birinchi marta XII asrda italiyalik iqtisodchi Antonio Margaretti "Italiyaning shimolidagi xalqlarning hokimiyati» iqtisodiy risolasida qo'llagan.

Mamlakatlarning xalqaro savdoda ishtirok etishining afzalliklari:

- milliy xo'jaliklarda takror ishlab chiqarish jarayonining jadallashuvi ixtisoslashuvning kuchayishi, ommaviy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun imkoniyatning yaratilishi, yangi texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish natijasidir;

- uskunalarning ish yuki darajasini oshirish, eksport mahsulotlarini yetkazib berishni ko'paytirish ish bilan bandlikni oshishiga olib keladi;

- xalqaro raqobat korxonalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi;

- eksport daromadlaridan kelgan tushum sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan kapitalni yig'ish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Xalqaro savdo har qanday milliy iqtisodiyot, birinchi navbatda, jahon savdo munosabatlarida faol ishtirok etishdan qo'shimcha foyda oladigan ochiq iqtisodiyot davlatlarini rivojlantirish uchun zarurdir. Tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosi tufayli mamlakatlarning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, texnologik, moliyaviy o'zaro bog'liqligi mustahkamlanmoqda.

Xalqaro savdo ikki asosiy turga bo'linadi: tashqi savdo va jahon savdosi.

Tashqi savdo – har qanday mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan eksportni (tashqi bozorda sotish uchun tovarlar va xizmatlarni xorijga yetkazib berish) va importni (ichki bozorda sotish uchun tovarlar va xizmatlarni mamlakatga olib kirish) amalga oshirishni o'z ichiga olgan savdosi. Tashqi savdoning rivojlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi:

- Tashqi savdo aylanmasi yoki eksport va import qiymatining summasi. Bu ko'rsatkich pulda o'lchanadi va ayrim mamlakatlarning (yetakchilar – Xitoy, AQSh), iqtisodiy guruhlarining, masalan, ma'lum bir davr uchun Yevropa Ittifoqining tashqi savdo hajmini tavsiflaydi.

- Tashqi savdo balansi yoki eksport va import o'rtasidagi qiymat farqi. Eksport hajmining import hajmiga nisbatiga ko'ra, tashqi savdo balansi ijobiy (aktiv) yoki salbiy (passiv) bo'lishi mumkin. Xalqaro moliya institutlari, xususan, XVF, milliy iqtisodiyotlarni faol tashqi savdo balansiga intilishlarini tavsiya qiladi.

- Eksport va import kvotalari yoki eksport va importning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi. So'nggi vaqtlarda bir qator mamlakatlar Belgiya, Venesuela, Isroil, Irlandiya, Malayziya, Janubiy Afrika eksport kvotasini oshirmoqda

- Tashqi savdo kvotasi yoki mamlakatning eksport va import hajmlari miqdorining YaIMga nisbati. Bu ko'rsatkich har qanday

mamlakatning sherik-mamlakat (individual kvota) yoki ko'plab mamlakatlar (global kvota) bilan tashqi savdosi hajmini tavsiflaydi.

Jahon savdosi butun dunyo bo'ylab barcha mamlakatlarning umumiy savdo hajmini anglatadi. Jahon savdosi dinamikasining asosiy ko'rsatkichi – bu jahonsavdo aylanmasi bo'lib, barcha davlatlarning eksport va import hajmlarini umumlashtirishdir.

Jahon savdosi ko'rsatkichlari guruhiga o'tgan yilga nisbatan uning hajmining o'sish sur'ati, geografik va tovar tuzilmasi, savdo shartlari ham kiritilgan.

Xalqaro savdoning ob'ektlari sifatida xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, iste'mol va ishlab chiqarish uchun tayyor mahsulotlar, texnologiyalarni ajratib ko'rsatish kerak. Rivojlanishning hozirgi bosqichida tobora ommalashib borayotgan xalqaro savdo ob'ekti bo'lib biznes, axborot, ilmiy-texnik, qurilish, transport, sayyohlik, ta'lim, moliyaviy xizmatlar hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlangan va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning fan va sarmoya sig'imkorligi yuqori mahsulotlari jahon eksportining o'sishi an'anaviy xizmatlar – tijorat, ishlab chiqarish va yangi xizmatlar – muhandislik, konsalting, kosmik xizmatlar, buxgalteriya kabi xizmatlarning davlatlararo almashuvining jadallashishiga olib keldi.

Xalqaro savdo almashinuvi ikki usul bilan amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita.

To'g'ridan-to'g'ri usul, bevosita ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) va iste'molchi (xaridor) o'rtasida savdo bitimini nazarda tutadi, bir necha afzalliklarga ega: vositachilar bo'lmaganligi tufayli komission to'lovlarda tejash, uzoq vaqt davomida bozorda bo'lish tijorat operatsiyalarini amalga oshirish tajribasiga ega bo'lishga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, bevosita ishlab chiqaruvchi jahon narxlarining o'zgaruvchanligi, bozor sharoitida o'zgarishlar haqida to'liq ma'lumotga ega emas, shuning uchun jahon tovar ayirboshlash munosabatlarini (bilvosita usul) amalga oshirishda vositachilik yuzaga keladi.

Xalqaro savdo doirasidagi savdo vositachiligini quyidagilar amalga oshiradi:


- ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni qidiradigan, ammo bitimlar tuzishda ishtirok etmaydiganlar – brokerlar yoki oddiy vositachilar;

- distribyutorlar – sotuvchilar va xaridorlar bilan alohida sotish shartnomalarini tuzadigan savdo firmalari;

- shartnoma asosida eksport qiluvchi yoki import qiluvchi nomidan va manfaatlari uchun ishlaydigan, asosiy majburiyatlarga qo'shimcha ravishda agentlar, masalan, mahsulotni sotishdan oldin xizmat ko'rsatishni amalga oshirishi mumkin bo'lgan savdo agentlari.

6.2. Xalqaro savdo, uning dinamikasi va tarkibi

Xalqaro savdo – turli mamlakatlarning sotuvchilari va xaridorlari o'rtasida tovarlar va xizmatlar shaklidagi mehnat mahsulotlarini almashish shakli. Jahon savdo aylanmasining hajmi, eksport va importning tovar tarkibi va uning dinamikasi, shuningdek, xalqaro savdoning geografik tuzilishi xalqaro savdoning tavsiflari bo'lib hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy xalqaro savdo juda yuqori sur'atlarda rivojlana boshladi. (6.1-rasm.)



6.1-rasm. Jahon tovarlar eksporti hajmining o'zgarish tendentsiyalari, 1950-2019 yillar¹

2019 yilda butun dunyo bo'ylab eksport qilinadigan tovarlarning global savdo qiymati taxminan 18 888,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Taqqoslash uchun, 2000 yilda bu ko'rsatkich taxminan 6 452,32 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Dunyo bo'ylab eksport qilinadigan tovarlar qiymatining o'sishi xalqaro savdoning rivojlanishi, globallashuv va texnik taraqqiyotni aks ettiradi.

6.1-jadval

Jahon tovarlar eksporti 2014-2019 yillar (joriy narxlarda trln.doll.)

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Jahon tovarlari eksporti, jami	19,0	16,5	16,0	17,7	19,5	18,8
Shu jumladan						
Qayta ishlash sanoati	12,3	11,3	11,1	12,1	13,2	14,8
Ofis va tele-kommunikatsiya jihozlari	1,8	1,73	1,68	1,90	2,06	2,03

2019 yilda Xitoy butun dunyo bo'ylab tovarlar eksportining eng katta manbai bo'lib, tovarlarning umumiy eksporti deyarli 2,5 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Xitoyning jahon tovarlar eksportidagi ulushi butun dunyo bo'ylab eksport qilinadigan barcha savdo mahsulotlarining deyarli 13 foizini tashkil etdi. AQSh esa uchinchi yirik tovar eksportchisi bo'lib, eksport qiymati taxminan 1,65 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. (6.2-rasm.)

2020 yilda COVID-19 tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy zarbalar jahon savdosiga juda katta ta'sir ko'rsatib uning kamayishga olib keldi. 2020 yilning boshidan jahon savdosi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, ikkinchi choragida 2019-yilning ikkinchi

¹ <https://www.statista.com/statistics/264682/worldwide-export-volume-in-the-trade-since-1950/>

choragiga nisbatan taxminan 19 foizga keskin kamaydi. Uchinchi chorakdagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jahon savdosining o'sishi ikkinchi chorakka nisbatan o'nglangan bo'lsa-da, uchinchi chorakda salbiy bo'lib qoldi va yil hisobida taxminan 4,5% gacha kamaydi.



6.2 -rasm. Jahon saldosi tovarlar eksporti bo'yicha yetakchilik qiluvchi mamlakatlarning eksport hajmi, 2019 yil (mlrd. AQSh dollari)¹

6.3. Tashqi savdo siyosati. Xalqaro savdoni tartibga solish

Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishdan tashqari, xalqaro tashkilotlar, kengashlar, integratsiya birlashmalari tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro savdosini davlatlararo tartibga solish mavjud. Demak, xalqaro savdoni tartibga solish davlat tomonidan tartibga solish va xalqaro bitimlar va xalqaro tashkilotlarni tashkil etish orqali tartibga solishga bo'linadi. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda xalqaro savdoning yuqori ahamiyati jahon hamjamiyati tomonidan maxsus xalqaro tartibga solish tashkilotlarini tashkil etishga olib keldi. Ushbu muassasalar rivojlangan va rivojlanayotgan

¹ <https://www.statista.com/statistics/252124/value-of-the-leading-merchandise-exporters-worldwide-by-exporting-nation/>

mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlaridagi ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtiradi, tovar bitimlarining moddalarini xalqaro iqtisodiy huquq me'yorlari bilan bog'lashga intiladi. Ularning faoliyati xalqaro savdo bitimlarini amalga oshirish qoidalari, tamoyillari, tartibini ishlab chiqishga va ushbu tashkilotlarga a'zo davlatlar tomonidan ularning bajarilishini nazorat qilishga qaratilgan.

Xalqaro savdoni tartibga solishda quyidagilar doirasida amal qiladigan ko'p tomonlama bitimlar alohida o'rin tutadi:

- GATT (General Agreement on Tariffs and Trade) – Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim;
- WTO (The World Trade Organization) – Jahon savdo tashkiloti;

Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim (GATT) – 1947 yilda Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiyotni tiklash maqsadida tuzilgan xalqaro bitim bo'lib, u deyarli 50 yil davomida xalqaro tashkilot vazifalarini bajarib keldi. Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitim 100 dan ortiq davlatlar o'rtasida, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari savdolari uchun tariflarni va boshqa to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan bitim edi. GATT deb ataladigan bitim 1947 yilning oktyabrida imzolangan va 1948 yilning yanvarida kuchga kirgan. Dastlabki imzosidan buyon bir necha marta yangilangan, ammo 1994 yildan buyon faoliyat ko'rsatmagan. GATT Jahon Savdo Tashkilotidan oldin bo'lib, tarixda eng shijoatli va muvaffaqiyatli ko'p tomonlama bitim.

GATT global savdo qoidalari va savdo kelishmovchiligi uchun asos yaratdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ishlab chiqilgan uchta Bretton-Vuds tashkilotidan biri edi. Boshqalar Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki bo'ldi. 1947 yilda dastlabki kelishuvni ikki o'nlab mamlakatlar imzoladilar, ammo 1994 yilga kelib GATT da ishtirok etadigan mamlakatlar soni 123 taga yetdi.

GATT ning asosiy qoidalariga muvofiq, mamlakatlar o'rtasidagi savdoda, ya'ni GATTga a'zo davlatlar savdosida tenglik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydigan mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi o'rnatiladi. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida iqtisodiy integratsiya guruhlarini tashkil etuvchi mamlakatlar uchun; sobiq metropoliyalari bilan an'anaviy aloqalarda bo'lgan sobiq koloniyalar uchun; chegara va kabotaj savdosi uchun istisnolar o'rnatildi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, "istisnolar" ulushiga jahon

tovar savdosining kamida 60% to'g'ri keladi, bu esa mumkin qadar qulaylik yaratish tamoyilining universallikdan yiroqda ekanligidan dalolat beradi.

GATT xalqaro savdoni tartibga solishning yagona maqbul vositasi sifatida bojxona tariflarini tan oladi, ular esa takroriy (raunddan bu raundga qarab) kamaytirilmoqda. Hozirgi vaqtda ularning o'rtacha darajasi 3-5%. Biroq, notarif himoya vositalaridan (kvotalar, eksport va import litsenziyalari, soliq imtiyozlari) foydalanishga ruxsat beruvchi istisnolar mavjud. Ularga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, mintaqaviy rivojlanish va yordam dasturlarini amalga oshirishni tartibga solish dasturlarini qo'llash holatlarini kiritish mumkin.

GATT savdo erkinligini cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar (qarorlar) yuzaga kelganda bir tomonlama harakatlardan voz kechish va muzokaralar va maslahat berish foydasiga qaror qabul qilish tamoyilini o'z ichiga oladi.

GATT o'z qarorlarini ushbu bitimning barcha a'zolari ishtirok etgan muzokaralar-raundlarda qabul qilgan. GATT doirasida tashkil etilgan xalqaro muzokaralar "raundlar" deb nomlangan. (6.2.- jadval)

(6.2.- jadval)

GATT / WTO doirasida o'tkazilgan muzokaralar bosqichlari (raundlar)

№	JST raundlari	Yil	A'zo mamla katlar soni	Natijalar
1	Gavana raundi	1947	23	GATT kuchga kirdi. Tariflarni pasaytirish
2	Annesi raundi	1949	13	Tariflarni pasaytirish
3	Torkvey raundi	1950	34	Tariflarni pasaytirish
4	Jeneva raundi	1956	22	Tariflarni pasaytirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan, strategiya ishlab chiqish, kelishuv a'zolari sifatida ularning mavqeini yaxshilash

5	Dillon raundi	1960-1961	45	Tariflarni pasaytirish
6	Kennedi raundi	1962-1967	48	<ul style="list-style-type: none"> • Muayyan tovarlar uchun emas, balki birinchi marta hamma tariflarni pasaytirish • Antidemping kelishuvi (AQShda Kongress tomonidan rad etilgan)
7	Tokio raundi	1973-1979	99	<ul style="list-style-type: none"> • Sanoat mahsulotlariga tariflarni pasaytirish • Notarif savdo to'siqlarini pasaytirish • GATT tizimini kengaytirish
	Urugvay raundi	1986-1994	125	<ul style="list-style-type: none"> • Tariflarni pasaytirish • Notarif choralar • GATT ning o'rnini bosuvchi JST ni tashkil etish
	Doha raundi	2001-hozirgacha	164	<ul style="list-style-type: none"> • Tariflarni pasaytirish • TRIPS (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights) — Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlariga bo'yicha bitim • JST ning qoidalari (subsidiyalar, antidemping, mintaqaviy savdo kelishuvlari, qishloq xo'jaligi) • 2013 yil Bali. Islohotlar paketi: Bojxona bojlarini soddalashtirish

JST hozirgi kunga qadar xalqaro savdoni tartibga solishda qo'llaydigan muhim qarorlar Urugvay raundida (1986-1994 yillar) qabul qilindi. Unda 123 ta mamlakat qatnashdi. Ushbu raund JST tomonidan tartibga solinadigan masalalar doirasini yanada kengaytirdi.

U xalqaro xizmatlar savdosi, shuningdek, bojxona bojlari miqdorini kamaytirish, ayrim tarmoqlar (shu jumladan, qishloq xo'jaligi) mahsulotlarining xalqaro savdosini tartibga solishni kuchaytirish dasturi va milliy iqtisodiy siyosatning mamlakat tashqi savdosiga ta'sir qiluvchi yo'nalishlari ustidan nazoratni kuchaytirishning sa'y-harakatlarini faollashtirishni o'z ichiga oldi.

Tovarlarni qayta ishlash darajasining oshib borishida bojlarining eskalatsiyasi to'g'risida qaror qabul qilindi. Kiyim-kechak, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosini liberallashtirish davom ettirildi. Biroq, oxirgi tartibga solish vositasi sifatida bojxona bojlari hisoblandi.

Antidemping chora-tadbirlar sohasida «qonuniy subsidiyalar» va «maqbul subsidiyalar» tushunchalari qabul qilindi, ularning qatoriga hajmi tovar umumiy importining 3% dan kam bo'lmasligi yoki umumiy qiymatining kamida 1% ni tashkil etishi sharti bilan atrof-muhitni muhofaza qilish va mintaqaviy rivojlanish qaratilgan subsidiyalar kiritildi. Boshqa barcha subsidiyalar noqonuniy deb ataldi va tashqi savdoda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Tashqi savdoga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy tartibga solish masalalari qatoriga qo'shma korxonada ishlab chiqarilgan tovarlarni minimal eksport qilish, mahalliy komponentlardan majburiy foydalanish va boshqa qator talablarni kiritdi.

Jahon savdo tashkiloti (JST). Urugvay raundida GATTning vorisi bo'lgan va uning asosiy qoidalarini saqlab qolgan JSTni yaratishga qaror qilindi. GATT jahon savdosini tartibga solish huquqiy mexanizmning asoslarini yaratdi: savdo munosabatlarida diskriminatsiyaga barham berish, adolatli raqobat asosida xalqaro savdoni rivojlantirish. GATT faoliyatida erishilgan yutuqlardan biri ishtirokchi mamlakatlarning o'rtacha bojxona to'lovining bir necha marta pasayishi bo'ldi.

Liberalizmning ushbu tamoyillari 161 mamlakatni birlashtirgan JST faoliyatida yanada rivojlanmoqda. JST yaxshi tashkil etilgan boshqaruv tuzilmasiga ega – Vazirlik konferentsiyasiga (har ikki yilda bir marta yig'iladi) Savdo siyosatini tahlil qilish va nizolarni hal qilish bo'yicha Bosh kengash bo'ysunadi, bu esa o'z navbatida Tovarlar savdosi Kengashi, Xizmatlar savdosi Kengashi va Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlarini bo'yicha kengash vazifalarini kuzatadi.

Kengashlarni texnik qo'llab-quvvatlash bosh direktor boshchiligidagi JST kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi.

JST doirasida jahon tovar savdosini xalqaro tartibga solish ikki muhim tamoyilni amalga oshirishni nazarda tutadi: kamsitmaslik (eng ko'p qulaylik yaratish tartibi) va bozorga kirishni ta'minlash. Shunday qilib, birinchi tamoyil har bir mamlakat boshqa mamlakatlar bozorlarida eksportini himoya qilish kafolatlarini oladi va milliy bozorga import qilish uchun teng sharoitlarni ta'minlaydi. Ikkinchisi – ishtirokchi mamlakatlarning savdo rejimlari masalalarida oshkoralik va shaffoflik bilan ta'minlanadi.

JST BMTning faoliyat doirasiga kirmaydi. Bu unga o'z mustaqil siyosatini amalga oshirish va qabul qilingan kelishuvlarga rioya qilish bo'yicha ishtirokchi mamlakatlar faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Tarif va savdo bo'yicha bosh bitimni (GATT) tashkil etish zaruriyati nimada?
2. GATT/JST doirasida amalga oshirilgan muzokarlarda asosiy e'tibor nimaga qaratilgan?
3. GATT/JST doirasida amalga oshirilgan muzokaralar bosqichlarini sanab o'ring.
4. GATT/JST doirasida amalga oshirilgan muzokaralarning qaysi bosqichida muhim qarorlar qabul qilingan?

7-MAVZU. TASHQI SAVDO VA UNI BOSHQARISH

7.1. Tashqi savdoning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uning modellari

7.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullari

7.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy (tarifsiz) chora-tadbirlari

Tayanch iboralar: notarif usullar, kvotalash, lisenziyalash, eksportni ixtiyoriy cheklash, subsidiyalar.

7.1. Tashqi savdoning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uning modellari

Ma'lumki, XVI-XIX asrlar davomida buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat to'ntarilishi va yaxlit milliy davlatlarning vujudga kelishi tashqi savdo operatsiyalari hajmi va nomenklaturasini sezilarli kengayishiga sabab bo'ldi. Shu sababli ham xalqaro savdo nazariyalarini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Klassik siyosiy iqtisodning asoschilaridan biri A. Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiyati va sabablari to'g'risida tadqiqotlar" deb nomlangan mashhur kitobida mamlakatlar o'rtasidagi savdoning nazariy modelini yaratishga katta e'tibor qaratadi, mamlakatlar geografik joylashuvining har xilligi natijasida u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo'lmasligi tufayli yuzaga keladigan xalqaro mehnat taqsimoti bu modelning asosini tashkil etadi.

Buyuk iqtisodchi ilgari surgan tamoyilda ratsional fikrga tayanuvchi xo'jalik sub'ektining maqsadga muvofiq muomala tamoyillari tashqi savdo sohasiga ko'chiriladi: tadbirkor o'z mamlakatidagiga nisbatan past narxda xorijdan tovar sotib olar ekan, o'z mamlakatida ma'lum ustunliklar natijasida ishlab chiqarish arzon tushadigan tovar tayyorlashni maqsad qiladi. Bunday vaziyatda davlatning xalqaro savdodagi roli eng kam darajaga pasaydi, tovarlar oqimini esa, bozordagi "ko'rinmas qo'l", ya'ni raqobat belgilaydi.

Shunday qilib, mehnat taqsimoti va mamlakatlarning o'zlari mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, keyinchalik, esa, ya'ni ichki ehtiyojlari qondirilgandan so'ng, bu tovarlarni boshqa mamlakatlarda kam sarf harajatlarga ega bo'lgan tovarlarga ayirboshlash o'zaro savdo qiluvchi mamlakatlarga resurslarni tejash hisobiga xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Demak, mamlakatlarni kamroq xarajatlar bilan biror bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi shu mamlakat uchun qo'shimcha foyda keltiradi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va eng rivojlangan ko'rinishi tashqi savdo hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 80 % i savdoga to'g'ri keladi.

Har qanday mamlakat uchun tashqi savdoning roli nihoyatda muhimdir. J. Saksning fikricha, "Dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko'rinadi. Hozirgi davrgacha

hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajragan holda, sog‘lom iqtisodiyot hosil qila olgani yo‘q”¹.

Tashqi savdo xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli davlatlar tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir shakli bo‘lib, u mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi.

Mamlakatlar iqtisodiyotidagi axborot texnologiyalar inqilobi ta’siri ostida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va birlashuvi (kooperatsiya) milliy xo‘jaliklarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa, xalqaro savdoning faollashuviga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan, tezroq o‘smoqda. Tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10 % ga ko‘payganda jahon savdosi 25-30 % ga o‘sib borayotganini kuzatish mumkin².

“Tashqi savdo” deganda bir mamlakatning boshqa mamlakat bilan haq to‘lanadigan olib kirish, ya’ni, import va haq to‘lanadigan olib chiqish, ya’ni, eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi.

Tashqi savdo faoliyati tovar ixtisoslashuviga ko‘ra tayyor mahsulotlar savdosi, mashina va uskunalar savdosi, xom-ashyo savdosi va xizmatlar savdosiga bo‘linadi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning haq to‘lanadigan tovar aylanmasining yig‘indisi xalqaro savdo deb ataladi.

Tashqi savdo tushunchasining tor doiradagi ma’nosi ham mavjud bo‘lib, masalan, sanoati rivojlangan mamlakatlarning tovar aylanmasi yig‘indisi, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlar tovar aylanmasi yig‘indisi va h.k.

Barcha davlatlar oldida tashqi savdo bo‘yicha o‘z milliy siyosatini tanlash muammosi yuzaga keladi va bu mavzudagi tortishuvlar ikki asr mobaynida davom etib kelmoqda.

Jahon xo‘jalik tizimida globallashev jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga bog‘liqligi ortib, tashqi iqtisodiy faoliyat barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda

¹ Международная экономика - Алексей Киреев, часть - I, Москва, 2000 г. – 325 с.

² Trade and Development Report, 2008, UN va UNCTAD Handbook of Statistics, 2008 yil ma’lumotlari.

alohida olingan mamlakat faqat o'z ichki imkoniyatlariga tayanib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda biror bir jiddiy natijalarga erishishi mushkul hisoblanadi.

Garchi so'nggi yillarda xalqaro iqtisodiy aloqalarda tovar eksportiga nisbatan investisiyalarni bevosita xorijga chiqarish yuqori sur'atlarda o'sayotgan bo'lsa-da, jami jahon xo'jalik aloqalarining 4/5 qismi xalqaro savdo hissasiga to'g'ri keladi. Bu, eng avvalo, xalqaro savdoning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini bilan izohlanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishiga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

- milliy iqtisodiyotning resurslar bazasi kengayadi;
- milliy xo'jaliklarda takror ishlab chiqarish jarayonlari intensivlashadi: ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish uchun imkoniyat yuzaga keladi, uskunalarning yuklanganlik darajasi oshadi, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish samaradorligi o'sadi;
- jamg'arish va sanoatlashuv imkoniyatlari kengayadi, iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashadi, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi, pirovard natijada mehnat unumdorligining o'sishi yuz berib, kishilar daromadlari ko'payadi;
- eksport hajmining o'sishi yangi ish o'rinlarining barpo etilishiga olib keladi;
- mamlakatning xalqaro ixtisoslashuv darajasi ortadi va h.k.

Xalqaro savdoning xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini esa quyidagilar bilan belgilanadi:

*Birinchi*dan, jahon xo'jalik aloqalarining barcha shakllari – chetga kapital chiqarish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnika hamkorligi xalqaro savdo orqali amalga oshadi.

*Ikkinchi*dan, tovarlar xalqaro savdosining rivojlanishi pirovard natijada xalqaro xizmatlar almashinuvi darajasini belgilab beradi.

*Uchinchi*dan, xalqaro savdoning rivojlanishi mintaqaviy integratsiya jarayonlari jadallashuvining muhim sharti hisoblanadi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

*To'rtinchi*dan, xalqaro savdoning jadal rivojlanishi xorijiy investisiyalar va xalqaro hisob-kitoblarni rag'batlantiradi.

Xalqaro savdoning mohiyati, uning sabablari ko'plab iqtisodchilar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Xalqaro savdoning

mohiyati, undan kutiladigan moddiy farovonlik masalalarini dastlab merkantilistlar izohlab berishga harakat qilganlar. Merkantilistlar mamlakat boyligining asosini oltin (pul) tashkil etadi deb hisoblaganlar va ularning tashqi savdo nazariyalari shu g'oyaga asoslangan.

Merkantilistlar fikricha, tashqi savdo mamlakatdagi oltin miqdorini saqlab qolish va ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Shu sababli mamlakat aholisi turmush farovonligini yaxshilash uchun imkon qadar mahsulotlarni ko'proq eksport qilishi va kamroq import qilishi zarur, eksport va import o'rtasidagi tafovut esa milliy boylikning o'sishi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda davlat eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi va importni cheklashi lozim. Ayni vaqtda "ilk" merkantilistlar va "kech" merkantilistlar qarashlarida biroz tafovut mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ushbu maktab vakillarining tashqi savdo nazariyasini rivojlantirishdagi xizmatlari shundaki, ular birinchilardan bo'lib tashqi savdo muammolariga e'tibor qaratdilar, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidladilar, eksport va importga sarflanadigan xarajatlarning muayyan nisbatini asoslab berdilar.

7.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning noiqtisodiy usullari yoki bojxona tariflariga asoslangan tartibga solish bojxona to'lovlarining umumiy tizimiga kiradigan import va eksport tariflarini qo'llash bilan bog'langan.

Bojxona tartibi – bojxona maqsadlari uchun bojxona ittifoqining bojxona hududida yoki undan tashqarida tovarlarni ishlatish va (yoki) tasarruf etish talablari va shartlarini belgilovchi me'yorlar majmui. Bojxona tartibi bojxona tartibga solish maqsadlari uchun belgilanadi. Tarif va tarifsiz tartibga solish mavjud.

Tarifni tartibga solish – bojxona bojlari, bojxona tartibi va qoidalarini qo'llashga asoslanadigan tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullari majmui. Tashqi savdo aylanmasiga ta'sir qilishning narx omili qo'llaniladi. Bojxona-tarif orqali tartibga solish elementlari quyidagilardir:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi.
- Bojxona tarifi – bojxona bojlari stavkalari majmui.

- Tovarlarning kelib chiqish mamlakati (Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi yoki preferensiyalarning umumiy rejimi).
- Bojxona qiymati va uni aniqlash usullari.
- Bojxona tartibi

Bojxona bojlari bojxona tarifida birlashtiriladi – tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasiga muvofiq tizimlashtirilgan, qonunchilik darajasida belgilangan bojxona bojlari stavkalari majmui.

Shuningdek, bojxona tarifi tushunchasi, tashqi savdo siyosatining maxsus vositasi va bojxona bojining aniq stavkasini bildiradi. Hozirgi vaqtda har bir tovar guruhi uchun ikki yoki undan ortiq stavkalarni belgilaydigan "ko'p pog'onali tariflar" keng tarqalgan. Ular ma'lum bir mamlakatga (mamlakatlar guruhiga) qo'llaniladigan savdo-siyosiy rejimga qarab, bojxona to'lovlarining differentsiatsiyalashgan stavkalaridan foydalanishga imkon beradi, ya'ni bir xil tovarlardan turli darajadagi bojlar undiriladi.

Bojxona solig'i – muayyan mamlakatning bojxona chegarasini kesib o'tishda olinadigan soliq.

Bojxona boji – import, eksport yoki tranzit vaqtida bojxona davlat organlari tomonidan undiriladigan majburiy to'lov bo'lib, bu boshlang'ich narxni oshishiga olib keladi.

Bojlar quyidagi uchta vazifani bajaradi:

1) fiskal – import va eksport bojlariga taaluqli, chunki ular davlat byudjetining tushumlaridan biridir;

2) proteksionistik (himoyalovchi) – import bojlarini nazarda tutadi, chunki ularning yordami bilan davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qiladi;

3) balanslovchi – ayrim sabablarga ko'ra ichki narxi jahon narxidan past bo'lgan mahsulotlar eksportining oldini olish uchun belgilangan eksport bojlarini nazarda tutadi.

Bojxona bojlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- import bojlari – tovarlarni bojxona hududiga olib kirishda olinadigan bojlar.
- eksport bojlari – eksport tovarlari davlatning bojxona hududidan tashqariga chiqarilganda olinadigan bojlar.
- tranzit bojlari – tranzit orqali milliy hududni kesib o'tgan tovarlar uchun olinadigan bojlar. Xalqaro tranzit – bu chet el yuklarini tashishdir, unda jo'natish va borar joylari ma'lum bir mamlakatdan tashqarida bo'ladi.

Hisoblash yoki undirish usuliga ko'ra:

- Advalor – soliqqa tortiladigan tovarlarning bojxona qiymatidan foiz shaklida undiriluvchi boj.
- Spesifik – soliqqa tortiladigan tovarning har birligidan belgilangan miqdorda undiriladi.
- Aralash – yuqoridagi har ikkala turdagi boj birgalikda qo'llaniladigan boj.

Kelib chiqishiga ko'ra:

- Avtonom – davlat hokimiyati organlarining bir tomonlama qarorlari asosida belgilanadi. Uning stavkalari tashqi savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlar bilan kelishmasdan vakolatli organning qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

- Konvension – ikki yoki ko'p tomonlama savdo shartnomasi (kelishuv) asosida belgilanadi. Bunday bojlar faqat ushbu hujjatda ko'rsatilgan mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday bojlarning stavkalari bir tomonlama o'zgartirilishi mumkin emas; ularni qo'llash muddati tegishli hujjatning amal qilish muddati bilan belgilanadi.

- Imtiyozli (preferentsial) – muayyan mamlakatlardan muayyan tovarlarni import qilishni rag'batlantirish uchun chegirmali holda qo'llaniladigan imtiyozli bojlar.

Qo'llash xarakteriga ko'ra:

- Kompensatsion – ishlab chiqarilishida subsidiyalar ishlatilgan tovarlarni import qilish milliy ishlab chiqaruvchilariga zarar yetkazgan yoki ularning faoliyatini tashkil etish va kengaytirishga to'sqinlik qiladigan hollarda qo'llaniladigan bojlar.
- Dempingga qarshi – mamlakat xududiga o'zining haqiqiy narxidan past narxda tovar olib kirilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazilsa, bu mahsulot importidan undiriladigan boj. Import qilinadigan tovarlar narxini normal deb e'tirof etilgan darajaga moslashtirish uchun belgilanadi.
- Maxsus bojlar – agar tovarlar mamlakatning bojxona hududiga mahalliy ishlab chiqaruvchilariga zarar yetkazadigan yoki tahdid soladigan miqdorda va sharoitlarda olib kirilsa himoya chorasi sifatida; ikkinchidan, boshqa davlatlar yoki ular ittifoqlarining mamlakat manfaatlarini kamsituvchi diskriminatsion va boshqa harakatlariga javob sifatida qo'llaniladi

7.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy (tarifsiz) chora-tadbirlari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifsiz tartibga solish – tovarlar tashqi savdosini miqdoriy cheklash yoki boshqa iqtisodiy cheklovlar jumladan, litsenziyalash, kvotalash, deklaratsiya qilish, import depozitlarini kiritish, eksport va import mahsulotlarini sertifikatlash, ikki tomonlama ahamiyatga ega tovarlar va texnologiyalar eksporti ustidan nazorat va boshqalar kabi davlat tomonidan tartibga solish usullari majmui.

Davlatlar o'rtasidagi erkin savdoni qiyinlashtiradigan yoki cheklaydigan, iqtisodiy, ma'muriy va texnik tushdagi (boj tarifidan tashqari) chora-tadbirlar majmuasidir.

1. Tartibga solishning tarifsiz miqdoriy usullari – bu eksport yoki importga ruxsat berilgan tovarlarning miqdori va nomenklaturasini belgilovchi usul bo'lib, savdo aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishning tarifsiz ma'muriy shaklidir. Ularga quyidagilar kiradi:

A. *Kvotalash* / belgilangan muddat davomida eksport va/yoki importni tovarlar miqdori (miqdoriy kvotalar) yoki ularning umumiy qiymati (qiymat kvotalari) bilan cheklashni anglatadi. Xalqaro savdoda kvotalash iqtisodiy, siyosiy sharoitlar yoki to'lov munosabatlarining holati taqozo etgan hollarda qo'llaniladi. Ichki bozorda talab va taklif regulyatori sifatida foydalaniladi. Chet ellik savdo sheriklarining kamsituv harakatlariga javob chorasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Kvota – ma'lum bir vaqt oralig'ida ma'lum miqdorda yoki qiymatda mahsulotni eksport qilish yoki import qilishni cheklashning miqdoriy tarifsiz o'lchovidir. Kvota turlari:

- **umumiy kvota** – davlat ehtiyojlari uchun belgilanadi;
- **tabiiy kvota** – neft quvurlari, portdagi terminallar va h. k. larning cheklangan o'tkazish salohiyatiga bog'liq;
- **istisno tariqasidagi kvota** – davlatning milliy xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni himoya qilish, xalqaro majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq alohida holatlarda kiritiladi.
- **tarif kvotasi** – mamlakatga bojsiz yoki past stavkalar bo'yicha ma'lum miqdorda tovarlarni olib kirish uchun ruxsat; ushbu cheklovdan ortiq import qilinadigan tovarlar odatdagi stavkalar

bo'yicha bojxona bojlariga tortiladi, yoki import qilinuvchi tovarlarga ular qiymati yoki miqdori doirasida oddiy hajmdagi boj solinadi, belgilangan cheklovlar oshib ketganida tovarlarga nisbatan bojlarning oshirilgan stavkalari qo'llaniladi.

- **eksport kvotasi** – eksport uchun ruxsat etilgan mahsulotlar miqdorini cheklaydi.
- **import kvotasi** – import uchun ruxsat etilgan mahsulotlar miqdorini cheklaydi.

B. Litsenziyalash – vakolatli davlat organlaridan ma'lum bir eksport va/yoki import operatsiyalarini amalga oshirish uchun huquq yoki ruxsat (litsenziya) olish tarzidagi cheklov. Litsenziyaning o'zida tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish tartibi belgilanishi mumkin. Shuningdek, litsenziya ma'lum miqdordagi tovarni import qilish (olib chiqish) uchun ruxsatni ham o'z ichiga olishi mumkin – bu holda litsenziyalash kvota bilan chambarchas bog'liq. Litsenziyalash kvotaning ajralmas qismi bo'lishi yoki davlat tomonidan tartibga solishning mustaqil vositasi bo'lishi mumkin. Birinchi holatda, litsenziya qabul qilingan kvota doirasida tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjatdir; ikkinchi holatda bir qator o'ziga xos shakllarni oladi:

- bir martalik litsenziya – muayyan firmaga birta tashqi savdo bitimi bo'yicha eksport yoki import operatsiyasini amalga oshirish uchun hukumat tomonidan 1 yilgacha bo'lgan muddatga berilgan yozma ruxsatnoma;
- bosh litsenziya – bitimlarning sonini cheklamasdan, bir yil ichida ma'lum bir mahsulotni olib kirish yoki olib chiqish uchun ruxsatnoma. Bosh litsenziya tovarning aniq xaridori yoki sotuvchisi ko'rsatilmagan holda eksport yoki import qilinadigan tovarlarning har bir turi, miqdori va qiymatini, tovarning aniq xaridori yoki sotuvchisini belgilamasdan ko'rsatgan holda rasmiylashtiriladi. O'zR hukumatining qarori bosh litsenziyani berish uchun asos hisoblanadi;
- global litsenziya – ushbu mahsulotni ma'lum bir vaqt ichida dunyoning istalgan mamlakatiga miqdori yoki qiymatini cheklamasdan olib kirish yoki olib chiqish uchun ruxsatnoma;
- avtomatik litsenziya – eksportchi yoki importchidan ariza olinganidan keyin, davlat organi tomonidan rad etilishi mumkin bo'lmagan, darhol beriladigan ruxsatnoma.

Litsenziyalarni taqsimlash mexanizmlari:

- kim oshdi savdosi – tanlov asosida litsenziyalarni sotish;
- hukumat tomonidan muayyan firmalarga litsenziyalarni avvalgi davr uchun import hajmiga proporsional ravishda yoki milliy importchilar tomonidan talab tarkibiga proporsional ravishda birlashtirish;
- litsenziyalarni narxsiz asosda taqsimlanishi.

C. Eksportni "ixtiyoriy" cheklash – savdo sheriklaridan birining eksport hajmini cheklash yoki hech bo'lmaganda kengaytirmaslik majburiyatiga asoslanadigan, hukumatlararo rasmiy yoki norasmiy bitim doirasida qabul qilingan eksportning miqdoriy cheklanishi. Import qiluvchi mamlakat emas, balki eksport qiluvchi mamlakat tomonidan kiritilgan kvota eksportning ixtiyoriy cheklanishi deb ataladi.

2. Tartibga solishning tarifsiz yashirin usullari

Yashirin proteksionizm:

- 1) davlat xaridlari milliy mahsulotlarning sotilishini kafolatlaydi;
- 2) mahalliy komponentlar va omillardan (xom ashyo, mehnat, transport vositalari) majburiy foydalanish talablari;
- 3) sanitariya-gigiyena, veterinariya va fitosanitariya normalarini, xavfsizlik qoidalarini va boshqalarni bajarish, ekologik xavfsizlik, sifat sertifikatlarini taqdim etish talablariga texnik to'siqlar.;
- 4) past narxlarda chet el mahsulotlarini yetkazib beruvchilarni ta'qib qilish bilan dempingga qarshi vositalar;
- 5) mahsulotlarni olib kirish yoki olib chiqish uchun soliqlar va yig'imlar (chegarani kesib o'tish uchun chegara solig'i; ekologik, fitosanitariya va boshqa to'lovlar, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun bojxona yig'imlari).

Texnik to'siqlar – tovarlarni import qilishga to'siqlik qiladigan milliy texnik, ma'muriy va boshqa normalar va qoidalarga asoslangan usullar: milliy standartlarga rioya qilish, import mahsulotlari sifat sertifikatlarini olish, mahsulotlarni muayyan qadoqlash va belgilash, muayyan sanitariya-gigiyena normalariga rioya qilish, shu jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish, murakkab bojxona rasmiylashtiruv va iste'molchilarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar talablariga rioya qilish va boshqalar.

Mahalliy (ichki) soliqlar va yig'implar – mport qilinadigan tovarlarning ichki bozorda raqobatbardoshligini kamaytirish maqsadida ichki narxini oshirishga qaratilgan usullar. Ular davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan kiritilishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri (qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i) yoki bilvosita (bojxona rasmiylashtiruv, ro'yxatga olish va boshqa rasmiylashtirishni amalga oshirish uchun to'lovlar, port to'lovlari) bo'lishi mumkin.

Davlat xaridlari siyosati – davlat organlari va korxonalaridan faqat milliy firmalardan ayrim tovarlarni sotib olishni, garchi bu mahsulotlar importdan qimmatroq bo'lishi mumkin bo'lsa-da, talab qiladigan usul.

Tarkibida mahalliy qismlarning mavjud bo'lishi talabi ichki bozorda sotilishi mo'ljallangan, milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan yakuniy mahsulotning ulushini qonuniy ravishda belgilash usuli hisoblanadi.

3. Tartibga solishning moliyaviy tarifsiz usullari

Eksportni moliyalashtirish davlat manbalaridan davlat byudjeti va turli muassasalar (banklar, fondlar va boshqalar) hisobidan, shuningdek xususiy sektor – eksportchilar va ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

A. Subsidiyalar

Agar hukumat milliy ishlab chiqaruvchilarning eksportini rag'batlantirish zarur deb hisoblasa, u holda ularni byudjetdan subsidiyalar bilan ta'minlashi mumkin.

Subsidiya – milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importni bevosita kamsitishga qaratilgan pul to'lovi.

Subsidiyalar to'lov xarakteriga ko'ra bo'linadi:

- eksport operatsiyalari amalga oshirilgandan so'ng eksportchiga uning xarajatlari va olingan daromadlari o'rtasidagi farq miqdori bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar. To'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar ishlab chiqaruvchiga tashqi bozorga chiqqanda dotatsiyalar sifatida beriladi;
- Bilvosita – soliqlarni to'lash bo'yicha imtiyozlar berish, sug'urtalashning imtiyozli shartlari, bozordan past bo'lgan stavka bo'yicha kreditlar, import bojlari va boshqalar orqali eksportchilarni yashirin ravishda dotatsiyalash.

Subsidiyalar import bilan raqobatlashadigan tovar ishlab chiqaruvchilar va eksportga sotiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchilarga berilishi mumkin.

Ichki subsidiya savdo siyosatining eng yashirin moliyaviy va importga qarshi kamsitish (diskriminatsiya) usulidir, bu esa import bilan raqobatlashadigan tovarlarni mamlakat ichida ishlab chiqarishni byudjet hisobidan moliyalashtirishni nazarda tutadi.

B. Eksport kreditlari

Eksport krediti – davlat tomonidan milliy firmalar tomonidan eksportni rivojlantirishni moliyaviy rag'batlantirishni nazarda tutadigan tashqi savdo siyosatining moliyaviy tarifsiz usuli.

Eksportni kreditlash shakllari:

- milliy eksportchilarga davlat banklari tomonidan bozordan past foiz stavkasi bo'yicha beriladigan subsidiyalangan kreditlar;
- xorijiy importchilarga davlat kreditlari, tovarlarni faqat bunday kreditni bergan mamlakat firmalaridan sotib olish sharti bilan kreditlash (bogliq kredit);
- milliy eksportchilarning eksport tavakkalchiliklarini sug'urtalash, savdo tavakkalchiliklarini (importchining yetkazib berishni to'lashga qodir emasligi) va siyosiy tavakkalchiliklarni (importchining o'z majburiyatlarini bajarishiga hukumatning to'sqinlik qiladigan harakatlarini) o'z ichiga oladi.

Eksport kreditlari ko'rinishlari:

- qisqa muddatli – 1 yilgacha bo'lgan muddatda, iste'mol tovarlari va xom ashyo eksportini kreditlash uchun foydalaniladi;
- o'rta muddatli – 1 dan 5 yilgacha bo'lgan muddatda, mashina va uskunar eksportini kreditlash uchun foydalaniladi;
- uzoq muddatli – 5 yildan ortiq muddatda, yirik loyihalar va investitsiya mahsulotlarini eksport qilishni kreditlash uchun foydalaniladi.

C. Demping

Demping – eksport bahosini ushbu mamlakatlarda mavjud bo'lgan normal narx darajasidan pasaytirish orqali mahsulotni tashqi bozorga chiqarishga qaratilgan savdo siyosatining moliyaviy tarifsiz usuli. Demping tashqi bozorni egallashga intilayotgan ayrim firmalarning resurslari va eksportchilarga davlat subsidiyalari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Dempingning asosida odatda

talabning narxga ko'ra elastikligi ichki bozorda tashqi bozorga nisbatan past bo'lgan bozor holati yotadi.

4. Tartibga solishning tarifsiz noiqtisodiy usullari

A. Savdo shartnomalari

Davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlari ikki tomonlama asosda ijro etuvchi hokimiyat darajasida (hukumatlar o'rtasida) tuzilgan savdo shartnomalari va bitimlar yordamida tartibga solinadi. Bunday bitimlar qonun chiqaruvchi organ (parlament) tomonidan ratifikatsiyalanadi. Ular odatda 5-10 yilga tuziladi va tomonlar tomonidan davriy qayta ko'rib chiqiladi.

Savdo shartnomasi – davlatlararo shartnomalar turi, ikki tomonlama savdo tamoyillari va rejimini belgilaydi. Xalqaro huquqning asosiy tamoyili shundaki, har bir davlat o'z hududida mutlaq yurisdiksiyaga ega va bu hududda joylashgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar uning yurisdiksiyasiga kiradi.

B. Huquqiy rejimlar

Jahon amaliyotida xalqaro savdoni tartibga solishda quyidagi huquq rejimlaridan biri berilishi mumkin: milliy rejim yoki "mumkin qadar qulaylik yaratish (imkon tug'dirish)" rejimi.

Milliy rejim – bir davlat xorijiy rezidentlarga o'zining yuridik va jismoniy shaxslari uchun yaratib bergan rejimdan kam bo'lmagan qulay rejim taqdim etishi. Ko'pincha milliy rejim integratsiya guruhlariga a'zo davlatlar o'rtasidagi va kapitalni eksport qilish bilan bog'liq munosabatlarda qo'llaniladi. Xorijiy investisiyalarga milliy rejim taqdim etilganda milliy va xorijiy tadbirkorlar, ba'zi bir istisnolardan tashqari, bozorda teng huquqli sub'ekt sifatida chiqadilar va bu xorijiy investorlar manfaatlarini cheklab qo'ymaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, "milliy rejim" qabul qiluvchi davlat hududida asosan chet elliklar huquqlari sarmoya chiqayotgan mamlakat qonunlari doirasida emas, balki mahalliy (milliy) qonunlar doirasida belgilanadi. Bunda xorijiy investisiyalar rejimi milliy yuridik shaxslarga taqdim etiladigan rejimdan qulayligi past bo'la olmaydi.

Mumkin qadar qulaylik yaratish (imkon tug'dirish) rejimi – xalqaro savdo shartnomalarida mustahkamlangan shart bo'lib, bir mamlakat tomonidan uchinchi mamlakatga yaratgan qulay shart-sharoitlarni, afzallik va imtiyozlarni o'z hamkor mamlakatiga ham taqdim etishini nazarda tutuvchi huquqiy rejim. Bu rejim JST

shartlariga kiritilgan va xalqaro savdoda nodiskriminatsion rejim yaratish uchun asos hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklashning qanday usullari mavjud?
3. Lisenziyalash nima va u qanday usullar yordamida tarqatiladi?
4. Savdo siyosatining moliyaviy usullariga qaysi usullar kiradi?
5. Ichki va eksport subsidiyalarining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
6. Savdo siyosatining yashirin usullari qanday usullardan iborat?
7. Dunyo amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning yashirin usullari nima uchun keng tarqalgan?
8. Tartibga solishning noiqtisodiy usullari nima va ular qanday tartibda joriy etiladi?

8-MAVZU. XALQARO XIZMATLAR BOZORI

- 8.1. Jahon iqtisodiyotida xizmatlar, xizmatlarning klassifikatsiyasi
- 8.2. Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv
- 8.3. Xalqaro turizm

Tayanch iboralar: jahon iqtisodiyoti, xizmatlar, savdo qilinmaydigan xizmatlar, omilli xizmatlar, transport xizmatlari, sayohatchi, turizm, xalqaro turizm.

8.1. Jahon iqtisodiyotida xizmatlar, xizmatlarning klassifikatsiyasi

Jahon xo'jaligidagi milliy iqtisodiyotlarning XXI asr bo'sag'asidagi xususiyati shundaki, uning tarkibida xizmatlar sohasining ulushi barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. Xizmatlar sohasining pirovard natijasi tovarlar ko'rinishida emas, balki buyumlashgan noyob iste'mol qiymatlari – xizmatlar hisoblanadi.

XX asrning 80-yillaridayoq jahon yalpi ichki maxsulotining 64% i xizmatlardan iborat bo'lishiga qaramasdan uzoq davr mobaynida xizmatlar xalkaro iqtisodiy munosabatlar fanida chuqur o'rganilmagan. Shu munosabat bilan xizmatlar tushunchasi ta'rifida iqqisodiy adabiyotda yakdillik bilan umumqabul qilingan ilmiy yondashuvlar yo'q.

Xalqaro xizmatlar savdosi sohasini o'rganishdagi birinchi vazifa xizmatlarga ta'rif berish va uning iqtisodiy faoliyatning boshqa turlaridan farqini aniqlab olish zarur.

Xizmatlar – ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi kelishuv munosabatlari asosida boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyat.

Xalqaro tovarlar savdosi va xizmatlar savdosi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tovarlarini xorijga yetkazib berishda bozorlarni tahlil qilishdan boshlab tovarlarni transport bilan tashishgacha bo'lgan ko'pgina xizmatlar ko'rsatiladi. Xalqaro aylanmaga kelib tushuvchi ko'pgina xizmatlar turlari tovarlar eksporti va importi tarkibiga kiritiladi. Shu bilan birga xizmatlar savdosi an'anaviy tovarlar savdosiga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosi bilan solishtirganda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- chegarada emas balki mamlakat ichida ichki qonunchilikka mos ravishda tartibga solinadi. Xizmatning chegara bilan kesishishi haqidagi faktning mavjud yoki mavjud emasligi xizmat eksporti mezonini bo'la olmaydi;
- xizmatlar saqlashga moyil emas, ular bir vaqtda ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi. Shu tufayli ko'pgina xizmatlar turlari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi to'gridan-to'gri shartnomalarga asoslanadi;
- xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiyasi moddiy ishlab chiqarish hamda savdoga qaraganda katta davlat himoyasiga ega. Ko'pgina mamlakatlarda transport, aloqa, moliyaviy va sugurta xizmatlari, ilm - fan, ta'lim, sog'liqni saqlash butunlay yoki qisman davlat mulki tarkibida va uning qat'iy nazorati ostida bo'ladi;
- xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosi bilan chambarchas aloqada va unga kuchli ta'sir qiladi. Masalan, xizmatlar sohasining katta hajmda texnik xizmatni, axborot va maslahat xizmatlarini talab qiluvchi ilmtalab tovarlar savdosiga ta'siri katta;

- xizmatlarning hamma turi tovarlarga qaraganda savdo predmeti bo'la olmaydi. Asosan, ichki isge'molga kelib tushuvchi xizmatlar xalqaro xo'jalik aylanmasi tarkibiga kiritilmaydi.

Xalqaro xizmatlarning guruhlanishi. Hozirgi kunda xizmatlarning iqtisodiyotda va xalqaro savdodagi o'rni birinchi navbatda ilmiy texnika inqilobi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, ko'pgina jahon mamlakatlarida aholi daromadlarining va xarid qobiliyatining oshishi natijasida jadal o'sib bormoqda. Jaqon bozorida savdo qilinuvchi xizmatlar tarkibi turlicha bo'lib, ularning soni 600 dan ortiq. Shu bois ularni tasniflash, ma'lum bir guruhlarga ajratish xalqaro miqyosda muzokaralar olib borish, xizmat turlari va xizmatlar savdosi to'siqlari haqida ma'lumotlar bazasini yaratish, xalqaro xizmatlar savdosi bo'yicha statistika hisobini olib borish kabi masalalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Hozirda ko'pgina xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta fonda, Jahon banki, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda Evrostat tomonidan xizmatlar klassifikatori ishlab chiqilgan.

Xizmatlar xalqaro ayirboshlash nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratiladi:

- savdo qilinmaydigan xizmatlar – ular ishlab chiqarilgan mamlakatda iste'mol qilinadi, ya'ni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bir mamlakat rezidenti hisoblanadi, bunday xizmatlarga kommunal va maishiy xizmatlar kiradi.

- savdo qilinadigan xizmatlar – ular bir mamlakat rezidenti tomonidan ishlab chiqariladi va boshqa mamlakat rezidenti tomonidan iste'mol qilinadi. Bu xizmatlarga turizm, transport, bank xizmatlari va boshqalar kiradi.

Jahon banki guruhi xizmatlarni ishlab chiqarish omillari nuqtai nazaridan quyidagi guruhlarga ajratadi:

- omilli xizmatlar (factor services) – ishlab chiqarish omillari, asosan kapital va ishchi kuchining xalqaro harakati natijasida paydo bo'luvchi xizmatlardir.
- omil bo'lmagan xizmatlar (non-factor services) – ularga transport, turizm va boshqa nomoliyaviy xizmatlar kiradi¹.

¹ Кокушкина ИВ., Воронин М.С. Международная торговля и мировые рынки. -СПб.: «Техническая книга», 2007. С. 257.

Bu taqsimot asosan omilsiz xizmatlarga e'tiborini qaratgan Jahon savdo tashkiloti doirasida xalqaro xizmatlar savdosini tartibga solish muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish ko'p hollarda tovarlar savdosi bilan bir vaqtda yoxud u yoki bu mamlakatga investisiyani amalga oshirish orqali sodir bo'ladi. Shuning uchun iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish uslublariga ko'ra xizmatlar quyidagilarga bo'linadi:

- investisiya bilan bog'liq xizmatlar – bank, mehmonxona va mutaxassis xizmatlari;
- savdo bilan bogliq xizmatlar – transport, sugurta xizmatlari;
- bir vaqtning o'zida investisiya va savdo bilan bog'liq xizmatlar – aloqa, qurilish, kompyuter va axborot xizmatlari, shaxsiy, madaniy va rekreasiya xizmatlari.

8.2. Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv

GATS (The General Agreement on Trade in Services) – Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh bitim. Global miqyosda xizmatlarning savdo almashinuvini tartibga solish asosiy xalqaro hujjat Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitimga muvofiq amalga oshiriladi. GATS 1995 yil 1 yanvardan kuchga kirgan, Urugvay raundida qabul qilingan va JSTni tashkil etish to'g'risidagi shartnomaning asosiy ilovalaridan biri hisoblanadi.

GATS tartibga soladigan xizmatlar JST kotibiyati tomonidan 12 ta asosiy bo'limga ajratilgan: biznes, muhandislik, ta'lim, sayyohlik, transport, telekommunikatsiya, moliyaviy va boshqa xizmatlarga guruhlangan. Xizmatlar savdosining o'ziga xosligi (nomoddiy, saqlanmasligi) tufayli qulaylik rejimi har bir mamlakat uchun alohida qo'llaniladi. JSTga a'zo davlatlar Bitim qoidalariga muvofiq xizmatlarning muayyan bo'limlarini aniqlaydi va ular xorijiy raqobatga qanchalik ochiq bo'lishi mumkinligini belgilab beradi.

Xalqaro xizmatlarning savdosini tartibga solish muayyan o'ziga xos xususiyatga ega. Buning sababi shundaki, juda ko'p turli xil shakllar va mazmuni bilan ajralib turadigan xizmatlar umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan yagona bozorni tashkil etmaydi. Biroq, uni global miqyosda tartibga solish imkonini beradigan umumiy tendentsiyalarga ega. Hozirgi kunda jahon xizmatlar bozori to'rtta darajada tartibga solinadi: xalqaro (global), tarmoq (global), mintaqaviy va milliy.

Xizmatlarni tartibga solishda GATTning tovarlarga nisbatan ishlab chiqilgan qoidalaridan foydalanadi: kamsitmaslik, milliy rejim, shaffoflik (qonunlarni o'qishning oshkoraligi va birligi), milliy qonunlarni xorijiy ishlab chiqaruvchilar zarariga ishlatmaslik.

GATS uch qismdan iborat: xizmatlar savdosini tartibga solishning umumiy tamoyillari va qoidalarini belgilovchi kelishuv; alohida xizmat ko'rsatish sohalari uchun maqbul bo'lgan maxsus bitimlar; milliy hukumatlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi cheklovlarni bartaraf etish bo'yicha majburiyatlari ro'yxati. Shunday qilib, GATSning faoliyat sohasidan faqat bitta, mintaqaviy darajada tartibga solish chetda qolayapti.

Tarmoq darajasida xizmatlar savdosini xalqaro tartibga solish vazifalarini hal qilish ixtisoslashgan hukumatlararo tashkilotlar, masalan, Jahon sayyohlik tashkiloti (WTO), Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO- International Civil Aviation Organization), Xalqaro dengiz tashkiloti (International Maritime Organization, IMO) kabilar tomonidan amalga oshiriladi.

Xalqaro xizmatlar savdosining mintaqaviy darajasi integratsiya guruhлари doirasida tartibga solinadi. Bunda xizmatlarning o'zaro savdosiga (masalan, Yevropa Ittifoqida) cheklovlarni olib tashlash va uchinchi davlatlar bilan bunday savdoga cheklovlar qo'yilishi mumkin.

Milliy darajada tartibga solish alohida davlatlarning tashqi savdosiga taalluqlidir. Ikki tomonlama savdo shartnomalari orqali amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismi xizmatlar savdosi bo'lishi mumkin. Bunday shartnomalarda muhim o'rin xizmatlar sohasida investitsiyalarni tartibga solishga beriladi.

GATS birinchilardan bo'lib xalqaro savdoni amalga oshirishning sog'lom raqobat va kelishilgan qoidalariga asoslangan mexanizmini yaratdi. GATS 6 ta bo'linga birlashtirilgan 35 ta modda va ilovadan iborat.

GATS da xalqaro xizmatlar savdosining quyidagi jihatlari ko'rib chiqiladi:

- qo'llanish sohasi va mazmuni, umumiy majburiyatlar va qoidalar (mumkin qadar qulaylik rejimi, oshkoralik, rivojlanayotgan mamlakatlarda qatnashish xususiyatlari, iqtisodiy integratsiyani hisobga olish, ichki tartibga solish, himoya choralarini qo'llash imkoniyati, umumiy istisnolar, subsidiyalar va b.);
- maxsus majburiyatlar (bozorga kirishga ruxsat, milliy rejim, qo'shimcha majburiyatlar);

- bosqichma-bosqich erkinlashtirish (maxsus majburiyatlar bo'yicha kelishuvlar, maxsus majburiyatlar ro'yxati va ularning o'zgarishi);
- institusional majburiyatlar (konsultasiyalar, nizolarni tartibga solish va qarorlarni bajarish, xizmatlar savdosi bo'yicha Kengash);
- ilovalar. Ilovalarda moliya xizmatlari batafsil ko'rib chiqiladi, ularning tasnifi beriladi.

GATS da quyidagi ikki turdagi majburiyatlar ko'zda tutiladi:

- umumiy – mamlakatlar tomonidan so'zsiz qabul qilinadi;
- maxsus – u yoki bu mamlakat xizmatlar bozoriga kirib borishning aniq shartlari bilan bog'liq majburiyatlar.

Umumiy majburiyatlar – bu mumkin qadar qulaylik rejimi bo'lib, a'zo mamlakatlarning milliy xizmatlar bozoriga kirishida teng huquqlilikni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu rejim milliy xizmatlar bozoriga kirish usullariga nisbatan cheklovlar o'rnatmaydi.

GATS ushbu rejimning majburiylikni belgilash bilan birga, istisno holatlarini ham tan oladi. Mamlakatning xalqaro iqtisodiy integrasion birlashma doirasida hamkor mamlakatlarga nisbatan o'rnatadigan maxsus imtiyozlar tizimi mumkin qadar qulaylik rejimidan istisno holatlarga kiradi.

GATS ning asosiy qoidalari ko'p jihatdan GATT ni eslatadi:

- milliy rejim – xizmatlarning xorijiy ta'minotchilari milliy xizmat ishlab chiqaruvchilar foydalanadigan rejimdan foydalanishlari zarur;
- mumkin qadar qulaylik berish rejimi – hammaga bir xil rejimni va bitim ishtirokchilari o'rtasida kamsitishlar mavjud bo'lmasligini ko'zda tutadi;
- oshkoralik – xizmatlar savdosini tartibga solish bilan bog'liq hamma ma'lumotlar, qonunlar, ma'muriy qoidalar va farmonlar nashr qilinishi kerak;
- xizmatlar savdosi doirasida muzokaralar olib borish orqali sekin-asta liberallashtirish – bu soha to'siqlarining bir qismi Urugvay raundida kamaytirilgan, qolgan qismini kelgusi muzokaralarda kamaytirish maqsad qilib olingan;
- GATT va GATSGa umumiy bo'lgan JSTning munozaralarni tartibga solish tizimi yordamida munozara va ixtilofli vaziyatlari hal qilish.

8.3. Xalqaro turizm


Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos shakllaridan biri xalqaro safarlar hisoblanadi va ular milliy schetlar tizimida turizm deb

ataladi. Ularning o'ziga xosligi shuvdagi, iste'molchi xorijga, xizmat ko'rsatuvchiga qarab harakatlanadi va norezident sifatida tovarlar (xizmatlar) sotib oladi.

Xalqaro safarlar – sayohatchilar tomonidan xorijda sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar yig'indisi (sayohatchi xorijda bir yildan kam muddatda bo'lsa va norezident hisoblansa).

Sayyoh – o'zi rezident hisoblanmaydigan mamlakatda bir yildan kam muddatda bo'lgan, boshqa mamlakatning davlat tashkiloti xizmatchisi yoki oila a'zosi bo'lmagan va rezident uchun yollanib ishlayotganlar kiradi.

Turizm, ayniqsa, XXI asrga kelib keng taraqqiy etmoqda. Bugungi kunda turizm sanoati dunyoda eng ilg'or va serdaromad sohalardan biriga aylandi. Dunyo bo'ylab xalqaro sayyohlar oqimi 952 million kishidan (2010 yil) 1461 million kishiga (2019 yil) oshdi. (8.1-rasm)



8.1.-rasm. Xalqaro kirish turizmining o'sishi, 1995-2019 yillar (mln.)¹

Turizm sohasi rivojlanishining ilg'or xorij tajribasini keng qamrovli o'rganish va tahlil qilish zamonaviy milliy turizmni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ilg'or xorij mamlakatlarining tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasi rivojlanishining muvaffaqiyati to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan

¹ UNWTO Tourism Data Dashboard. URL: <https://www.unwto.org/unwto-tourism-dashboard>.

qo'llab-quvvatlashga va davlat darjasida bu tarmoqqa qaratiladigan e'tiborga bog'liqdir.

Hozirgi kunda davlatlar tomonidan turizm tarmog'ining ahamiyati va rivojlanishiga katta e'tibor berilishini namoyon etish uchun 8.1-jadvalda sayyohlar oqimi bo'yicha 15 ta yetakchi mamlakatlar reytingi berilgan.

8.1-jadval

Sayyohlar oqimi bo'yicha yetakchi mamlakatlar reytingi¹

Mamlakat	Xalqaro turistik oqimlar bo'yicha reyting		2016 yildagi kelishlar soni, mln.kishi.
	2016 yil	2015 yil	
Fransiya	1	1	82,6
AQSh	2	2	75,6
Ispaniya	3	3	75,6
Hitoy	4	4	59,3
Italiya	5	5	52,4
Buyuk Britaniya	6	8	35,8
Germaniya	7	7	35,6
Meksika	8	9	35,0
Tailand	9	11	32,6
Avstriya	10	12	28,1
Malayziya	11	14	26,8
Gongkong	12	13	26,5
Turkiya	13	6	25,4
Gretsiya	14	15	24,8
Rossiya	15	10	24,6

¹ Рахматуллаева Ф.М. Международный опыт в сфере развития туризма (на примере Турции) // “Иқтисодиёт ва таълим” журнали. № 5, 2018 йил. – Тошкент. Б. 184.

Sayyohlar tashrifi bo'yicha 2015 yildagi jahon reytingini tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p sayyohlar tashrif buyuradigan yetakchi mamlakatlar – Frantsiya, AQSh, Ispaniya, Xitoy va Italiyadir.

Sayohatlar xalqaro xizmatlar savdosida muhim o'rin tutadi. Turizm transport, mehmonxona xo'jaligi, ko'ngilochar sanoat, sport, reklama, umumiy ovqatlanishni qamrab oluvchi butun bir tarmoqlar majmuasiga aylandi. Aholi daromadlarining oshishi, transport vositalari va mehmonxona xo'jaligining takomillashuvi, havo transporti orqali tashishning arzonlashishi, valyuta olib chiqish cheklovlarining zaiflashishi va chegarada rasmiylashtirishning soddalashishi natijasida turizmning xalqaro xizmatlar eksportidagi ulushi ortib bordi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro xizmatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro xizmatlarning qanday turlari mavjud?
3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar xizmatlarni qaysi mezonlar asosida guruhlaydi?
4. Xalqaro xizmatlar bozorining rivojlanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Xalqaro xizmatlar bozorining rivojlanish tamoyillariga baho bering.
6. Xalqaro transport xizmatlarining xizmatlar bozoridagi o'rni va tarkibi qanday?
7. Turizm xizmatlarining xalqaro xizmatlar bozoridagi o'rniga baho bering.
8. Xalqaro xizmatlar savdosi qanday usullar yordamida tartibga solinadi?

9-MAVZU. XALQARO KAPITAL HARAKATI

- 9.1. Kapital chiqishining mohiyati, sabablari va shakllari
- 9.2. Jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar dinamikasi va turlari
- 9.3. Xalqaro kapital harakatini boshqarish

Tayanch iboralar: xalqaro migrasiya, kapitalning chetga chiqib ketishi, kapital, xususiy kapital, portfel investitsiyalar, to'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), moliyaviy investitsiyalar

9.1. Kapital chiqishining mohiyati, sabablari va shakllari

Xalqaro kapital harakati jahon iqtisodiy munosabatlarining asosiy shakllaridan biridir. Xalqaro kapital harakati kapitalni xorijga chiqarishda namoyon bo'ladi.

Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar orasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ajralib turuvchi tomoniga aylandi.

Kapitalni chiqarishning mohiyati kapitalning bir qismini bir mamlakatdagi milliy tovar ayirboshlash jarayonidan olib chiqib boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayoniga (yoki boshqa muomalaga) kiritish bilan bog'liq. Qadim zamonlardan buyon keng tarqalgan tashqi savdodan farqli o'laroq, sarmoyani eksport qilish imkoniyati sanoati rivojlangan mamlakatlarda kapitalning to'planishi katta hajmga yetganida va uning nisbiy "ortiqchaligi" shakllanganida paydo bo'ldi. Bu "ortiqcha", yoki sanoati rivojlangan mamlakatlarda kapital yig'ish hajmi va shu mamlakatlarda uning qo'llash imkoniyatlari o'rtasidagi tafovut, kapitalni chiqarishni zarurligini belgilaydi.

Kapitalni eksport qilishning roli kapitalni eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlar uchun farq qiladi. Eksport qiluvchi mamlakatlar (ya'ni, kapital chiqadigan) "asos mamlakatlari» deb ataladi. Import qiluvchi davlatlar (ya'ni, kapital kiradigan) qabul qiluvchi tomonlar deb ataladi. Sarmoyani eksport qilish eksport qiluvchi mamlakatning tashqi savdo ekspansiyasining samarali vositasi hisoblanadi. Boshqa tomondan, kapitalni import qilish qabul qiluvchi tomonning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtiradi.

Zamonaviy sharoitda kapitalni chiqarish bir qator xususiyatlarga ega.

Birinchi, bugungi kunda sanoati rivojlangan davlatlar o'rtasida xususiy kapital harakati kuchaymoqda va xususiy kapital eksportining 3/4 dan ortig'ini tashkil etadi. Xalqaro kreditlarning umumiy hajmida rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi kamaydi.

Ikkinchi, kapitalni eksport qilishda davlatning roli o'zgardi. Xususiy kapital eksportining oddiy himoyachisi bo'lgan davlat o'zi moliyaviy resurslarning eng yirik eksportchisi bo'lmoqda.

Uchinchi, integratsiya jarayonlarini rivojlanishi va transmilliy korporatsiyalarning (TMK) o'sishi bilan bog'liq holda kapital harakatining shakllari o'zgardi.

Kapital eksporti (import) mulkchilik shakliga ko'ra uch turga bo'linadi:

a) asosan yirik sanoat kompaniyalari va banklar tomonidan amalga oshiriladigan xususiy kapital eksporti;

b) davlat byudjeti hisobidan hukumat yoki davlat tashkilotlari va kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan kapitalni davlat tomonidan olib chiqish;

v) xalqaro valyuta-moliya kompaniyalari va tashkilotlari tomonidan kapitalni eksport qilish.

9.2. Jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalr dinamikasi va turlari

Hozirgi sharoitda mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ish bilan bandlikni oshiruvchi, ishlab chiqarishning o'sishiga va byudjetga tushumlarning oshishiga yordam beruvchi investisiyalar zarurdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri mamlakatlari iqtisodiyotida bevosita investisiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotni tarkibiy tub o'zgartirish, ishlab chiqarishning texnik darajasini va mahsulotning milliy, hamda jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini uzoq muddatli moliyalashtirish omili bo'lgan to'gridan-to'g'ri investisiyalarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Xorijiy investisiyalar sifat jihatidan turli tumanligi bilan tavsiflanadi, turli xil maqsad va vazifalarni ko'zlaydi. To'gridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar xususiy tadbirkorlik sarmoyasi eksportining asosiy shakli bo'lib, samarali nazorat o'rnatishni ta'minlaydi va chet eldagi kompaniya ustidan bevosita egalik qilish huquqini beradi. Boshqacha so'zlar bilan izohlaganda, TTXI – bu uzoq muddatli foydani va investorning korxonaga boshqaruviga salmoqli ta'sir etishini ko'zda tutuvchi uzoq muddatli sarmoya oqimi. Aynan "ta'sir etish va nazorat" to'gridan-to'g'ri investisiyalarni portfel investisiyalar va xalqaro sarmoya oqimining boshqa shakllaridan farqlantiruvchi o'ziga xos unsurdir. To'gridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar uchun odatda investorlarning bozordan tez chiqib ketish imkoniyatidan mahrumligi; yuqori darajadagi tavakkalchilik, katta miqdordagi mablag' va sarmoya kiritishning yuqori muddatlari xosdir.

To'gridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar xorijiy investorlarning mazkur mamlakatda ishlab chiqarishni joylashtirish qaroriga ta'sir

etuvchi, ya'ni motivasiyasi omillariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: resurslarni ko'zlovchi TTXI (resource seeking FDI); samaradorlikni oshirish maqsadidagi TTXI (efficiency seeking FDI); bozorni kengaytirish maqsadidagi TTXI (market seeking FDI); strategik aktivlarni ko'zlovchi (strategic asset seeking FDI).¹

- Resurslarni ko'zlovchi TTXI (resource seeking FDI) – xorijiy investor sarmoya kiritishining klassik motivasiyasi bo'lib, rivojlanayotgan davlatning arzon tabiiy resurslarga boyligi ularni jalb etadi va bu investisiyalardan asosiy maqsad tabiiy resurslarni ichki bozor hamda eksport uchun qazib olish va ishlov berish.
- Samaradorlikni oshirish maqsadidagi investisiyalar (efficiency seeking FDI) – ishlab chiqarish xarajatlari past va ishlab chiqarishda ishchi kuchidan intensiv foydalanish mumkin bo'lgan iqtisodiyotlarga sarmoya kiritish, ya'ni global bozor uchun ishlab chiqarishda band bo'lish.
- Bozorni kengaytirish maqsadidagi investisiyalar (market seeking FDI) – bu importga qat'iy cheklovlar qo'yilgan bo'lsa, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va rivojlanayotgan mamlakatlarning mahalliy bozorlariga kirish maqsadida ishlab chiqarish sektoriga investisiya kiritish, ya'ni keng miqyosda ichki bozorga xizmat ko'rsatish. Qo'shimcha sabablar transport xarajatlari, mahalliy iste'molchilar dididagi farqlar va boshqalar bo'lishi mumkin.
- Strategik aktivlarni ko'zlovchi (strategic asset seeking FDI) – investorlarga raqobatda ustunlik yaratuvchi va ko'p hollarda boshlanayotgan monopoliyani beruvchi aktivlarni qidirish, ya'ni nou-xau, ilmiy tadqiqotlarga investisiya kiritish.

Yuqorida ta'riflab o'tilgan to'gridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning barcha turlari iqtisodiy rivojlanishga yordam bergani bilan, rivojlanayotgan va o'tish davri mamlakatlarning barchasi ham xorijiy investisiyalarni jalb qilish uchun bir xilda yaxshi qurollanagan, ya'ni qulay investisiya iqlimiga ega deb bo'lmaydi. Masalan, "resurslarni ko'zlovchi" investorlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga uncha e'tibor bermay, asosan tabiiy resurslar bilan boyligiga ahamiyat beradilar. Rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasida ishlab chiqarish xarajatlari past va yetarli ishchi kuchi bor, agar qulay investisiya

¹ Dunning J. The Globalization of Business, Routledge, London.1993

iqlimi mavjud bo'lsa, "samaradorlikni ko'zlovchi" xorijiy investitsiyalar oqimi oshadi. Mazkur mamlakatlarning barchasida ham "bozorni ko'zlovchi" xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ko'p sonli aholi mavjud emas, lekin ular ochiq savdo siyosatini olib borishlari tufayli kattaroq va jozibaliroq mintaqaviy bozorlarni yaratish orqali bunday investitsiyalarga erishishlari mumkin. Bu har bir mamlakatda yaratilgan investitsiya iqlimiga bog'liqdir.

Portfel investitsiyalar — bu kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxonaga ustav kapitalining 10 %dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo'lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Ushbu turdagi tadbirkorlik kapitalini olib chiqib ketishning o'ziga xos belgilari 9.1.-jadvalda yaqqol namoyish etilgan.

9.1.-jadval

To'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtasidagi o'ziga xos farqlar¹

Belgilar	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Olib chiqish-ning asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVF ustaviga ko'ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasligi kerak)	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish (AQSh, Yaponiya va Germaniyada - 10%)
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

¹ Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o'quv qo'llanma. / A.V. Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova. - T.: «Voriz-nashriyot», 2014. – b.135.

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi jarayonida portfel investitsiyalar ulushining ortishi tabiiy holdir. Bu ikkita holat bilan izohlanadi:

- jahon moliya bozorining jadal rivojlanishi;
- portfel investitsiyalarning yuqori likvidliligi bilan bog'liq afzalliklar.

Portfel investitsiyalar yuqori likvidlikka ega bo'lib, harakatchan hisoblanadi. Ularni riskli zonadan boylik orttirish yengilroq bo'lgan mintaqaga, muhitga ko'chirish qiyin emas. Portfel investitsiyalar ishlab chiqarishni yo'q qilish va professional bilimlarni oshirish uchun katta mehnat talab etmaydi.

Kapitalni olib chiqishning tadbirkorlik shakli ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqadorligi tufayli ko'pincha «ikkinchi iqtisodiyot» deb ataladi¹.

9.3. Xalqaro kapital harakatini boshqarish

TTXni xalqaro darajada tartibga solishning asosiy shakli xalqaro investitsion shartnomalar hisoblanadi. Xalqaro investitsiya shartnomalarining mohiyati shundaki, ular ikki va ko'p tomonlama milliy davlatlarning investitsiya siyosatlarini muvofiqlashtirish va xalqaro investitsiyalar sohasida tartibga solishning umumiy qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Xalqaro investitsiya shartnomalari qatnashchilari tarkibiga ko'ra ikki tomonlama, mintaqaviy va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin.

Ikki tomonlama investitsiya shartnomasi ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida tuziladigan maxsus shartnomadir.

Mintaqaviy investitsiya shartnomasi – bir mintaqaviy guruhga kiruvchi mamlakatlar hukumatlari o'rtasida investitsiyalarni amalga oshirish xususida imzolangan maxsus shartnoma. Mintaqaviy shartnomalarning predmeti bo'lib investitsiya rejimini o'rnatish, investorlarga kafolatlar berish, investitsiya nizolarni tartibga solish, mintaqada kapital, texnologiya, malakali ishchi kuchining harakati uchun qulay erkinlikni ta'minlash hisoblanadi.

¹ Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o'quv qo'llanma. / A.V. Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova. - T.: «Voriz-nashriyot», 2014. – b.135.

Ko'p tomonlama investisiya shartnomalari manfaatdor mamlakatlarning investision hamkorlikda qatnashishi va a'zolarni keng miqyosda qamrab olishni ko'zda tutadi.

Xalqaro investisiya shartnomalari qatnashchilari sifatida milliy hukumatlar va Jahon savdo tashkiloti (JST), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qatnashishi mumkin.

Xalqaro investisiya shartnomalarining amal qilishida ikki tomonlama investisiya shartnomalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Investision hamkorlik doirasidagi iqtisodiy munosabatlarni davlatlar ikki tomonlama va mintaqaviy kelishuvlar asosida mustahkamlaydilar. Xorijiy investisiyalarni himoyalashda ko'proq ikki tomonlama investisiya kelishuvlari (Bilateral investment treaties yoki BITs) amaliy ahamiyatga ega. Birinchi BITs 1950-yillarda qabul qilingan bo'lib, umuman olganda ularning mohiyati hozirgi kunda uncha o'zgarmagan. Ular ikki tomonlama investision hamkorlik me'yorlari, andozalari va asosiy tamoyillarini belgilaydi va investisiya kiritishning barqaror rejimi mavjudligidan darak beradi. Investisiyalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish to'g'risidagi ikki tomonlama investisiya kelishuvlarini tuzish qulay investisiya iqlimi yaratish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etib, xorijiy investisiyalarni tartibga solishning huquqiy-me'yoriy bazasi jiddiy kamchiliklarga ega bo'lgan vaziyatda, tog'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishning istiqbolli yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.

TTXI sohasidagi ikki tomonlama investisiya shartnomalarining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- tomonlarning investisiya sohasidagi o'zaro munosabatlari tamoyillari to'g'risidagi deklarasiya;
- TTXI aniqlashning umumiy qoidalari;
- Ikki tomonlama hamkorlik shakllari;
- Shartnomalarni amalga oshirish bosqichlari;
- Investisiyalarni himoyalash mexanizmlari.

Jahon xo'jaligida ko'ptomonlama shartnomalar asosida investitsiyalarni kafolatlash qoidalari bilan investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MAGI) shug'ullanadi.

80-yillarning boshlaridan xalqaro moliyaviy tashkilotlar, ayniqsa Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoya oqimlarini rag'batlantirish bo'yicha choralarni qo'llay boshladi. Shu maqsadda

Jahon banki tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlardagi xorijiy investisiyalarni kafolatlash bilan shug'ullanuvchi Investisiyalarni kafolatlashning ko'ptomonlama agentligi MIGA (The Multilateral Investment Guarantee Agency) ni tashkil etish to'g'risidagi Konventsiyaning asosiy nizomi loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. 1988 yil 12 aprel bu tashkilotga asos solindi va u Jahon banki guruhining a'zosi hisoblanadi.

MIGAning asosiy funksiyasi xususiy investorlarni qo'shimcha kafolatlar bilan ta'minlash va xorijiy sarmoyani qabul qiluvchi davlatdagi investisiya iqlimini takomillashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish orqali rivojlanayotgan a'zo mamlakatlarga ularning iqtisodiy o'sishini jadallashtirish uchun xorijiy investisiyalarni kiritishni rag'batlantirish.

MIGA faoliyatining turlari:

- Investorlarni siyosiy tavakkalchilikdan sug'urtaviy himoya bilan ta'minlash;
- Mablag'larni investisiyalash imkoniyatlari to'g'risidagi axborotlarni tarqatishda mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish;
- Investisiyalar bilan bog'liq nizolarni hal etishda vositachilik xizmatlarini ko'rsatish va h.z.

MIGA tomonidan siyosiy tavakkalchilikdan beriladigan kafolatlar xorijiy investorlarga o'z investisiya dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faqat iqtisodiy va kredit tavakkalchiligiga e'tiborni qaratish imkonini beradi. Ammo moliyaviy tashkilotlar va sug'urta tashkilotlarining aksariyati siyosiy beqaror bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda yuzaga keladigan notijorat tavakkalchiligidan sug'urtalashni o'z zimmlariga olishni xohlamaydilar. Shunday qilib MIGA mazkur bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro kapital migrasiyasining sabablari nimalardan iborat?
2. Xalqaro kapital migrasiyasi qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
3. Xalqaro kapital migrasiyasining qanday shakllari mavjud?
4. To'g'ridan-to'g'ri va portfel investisiyalarning farqi nimadan iborat?
5. To'g'ridan-go'g'ri xorijiy investisiyalarning keskin o'sishining sabablarini ko'rsating.
6. Xalqaro kapital migrasiyasini tartibga solish zaruriyati nimalardan iborat?

10-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA XORIJIY INVESTISIYALARNING O'RNI

10.1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xorijiy kapitalning o'rni va roli

10.2 Xorijiy investisiyalarning xalqaro boshqaruvi.

10.3 Xorijiy investisiyalarni jalb qilish va foydalanishning qonunchilik va me'yoriy - huquqiy bazasi.

Tayanch iboralar: Investitsiya, xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, portfel investitsiya, investor, kapital eksporti, ustav kapital, dividend, tadbirkorlik foydasi, eksport, import.

10.1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xorijiy kapitalning o'rni va roli

Hozirgi paytda xorijiy sarmoyalar raqobatbardoshlikning va iqtisodiy o'sishning qudratli omiliga aylandi. Xorijiy investisiyalar milliy iqtisodiyotlarning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvini ancha kuchaytirdi, hamda xalqaro savdo va ishlab chiqarishning o'sishini harakatlantiruvchi kuch sifatida tan olindi.

Investisiyalar barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarga dunyoning qolgan mamlakatlari oldida ustunlik yaratgan holda, ularning raqobat mavqeini oshirishda muhim rol o'ynadi. Sababi, raqobatdagi ustunlikning ba'zi mamlakatlar uchun tabiiy resurslarning kamligi, boshqalari uchun noqulay jo'g'rofiy joylashuv va deyarli har biri uchun ishchi kuchi taqchilligi yoki qimmatliligi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlari va kamchiliklarini kompensasiyalashga katta hajmdagi sarmoya qo'yilmalari va ularning samarali ishlatilishi imkon beradi.

Xorijiy investitsiyalar har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida, uning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, sanoati rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakat bo'ladimi, katta rol o'ynaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati o'tgan asrning 80-90 yillarida sezilarli darajada oshdi. Xorijiy investitsiyalar

milliy resurslardan yanada samarali foydalanish asosida qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga yordam beradi.

Integrasiya jarayonlari juda yuqori sur'atlarda amalga oshayotgan bir paytda, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga katta hajmdagi xorijiy sarmoya oqimi quyilmoqda. Amalda dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiy tub o'zgarishlarni amalga oshirar ekan, moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qiladilar. Chet el investisiyalari, kreditlari, qarzarlar va moliyaviy yordamlardan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining jadallashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ko'maklashadi. Mamlakatlar o'rtasidagi sarmoyaning intensiv oqimi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim xususiyati bo'lib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarga taalluqlidir.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi»¹.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotini shakllantirish tomon yo'l olib, jahon xo'jaligi munosabatlariga, xalqaro investision hamkorlik jarayoniga tobora chuqurroq qo'shilmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va faol investisiya faoliyatining zarurligini belgilab berdi. Keng ko'lamda xorijiy investisiyalarni jalb etish, strategik maqsadlarni ko'zlaydi va olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy investisiyalarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi, iqtisodiy tub o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishish va iqtisodiyotning yuksalishidagi ahamiyati yuqori.

Qabul qiluvchi mamlakat uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning kirib kelishi quyidagi afzalliklarga ega:

- iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish;
- barqaror moliyalashtirish manbaiga ega bo'lish;
- ishlab chiqarish apparatini yangilash va modernizatsiyalash;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

- texnologiyalar, boshqaruv ko'nikmalari, savdo belgilari, patentlar va lisenziyalarning kirib kelishi;
- eksportning diversifikasiyalashuvi;
- qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan tarmoqlarda malakali ishchi kuchi uchun afzalliklarning vujudga kelishi;
- tashqi bozorlar bilan aloqalarning kengayishi;
- qabul qiluvchi iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishi; bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investisiya va kreditlar

2019 yilning yanvar-dekabrida 86653,1 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSh doll.) yoki 2018 yilga nisbatan 2,5 marta ko'p asosiy kapitalga xorijiy investisiya va kreditlar o'zlashtirildi.

Xorijiy investisiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalardagi ulushi – 45,7 % tashkil etdi.

Xorijiy investisiya va kreditlarning eng salmoqli ulushlari Qashqadaryo viloyatida – 71,0 %, Surxondaryo viloyatida – 61,8 %, Buxoro viloyatida – 52,9 %, Jizzax viloyatida – 47,0 %, Sirdaryo viloyatida – 46,5 % va Namangan viloyatida – 43,6 % kuzatildi.

2019 yilda o'zlashtirilgan xorijiy investisiya va kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 16,9 % ni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 9,5 % punktga ko'paydi. O'zlashtirilgan jami xorijiy investisiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 9803,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, undan 4205,4 mln. AQSh dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni, yoki jami xorijiy investisiya va kreditlarning 42,9 % ini tashkil etdi.

O'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning hajmi 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 37171,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilga nisbatan 3,6 martani tashkil qildi.

Milliy iqtisodiyotda samarali foydalanilgan TTXI lar iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishning, xo'jalik takror ishlab chiqarish tizimini optimallashtirishning, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning va boshqa ko'pgina strategik vazifalarni echishning muhim omili bo'lishi mumkin. Bu xorijiy investisiyalarni jalb etishni tartibga solishning puxta o'ylangan davlat tizimi mavjud bo'lgan va rivojlanayotgan holdagina mumkin bo'ladi. Milliy iqtisodiyotlarning sarmoyaga muhtoj tarmoqlariga xorijiy investisiyalarni jalb qilish uchun investorlar faoliyatini tartibga soluvchi, hamda milliy va xorijiy

sarmoyadorlar huquqlarini himoya qiluvchi me'yoriy-huquqiy baza zarurdir.

10.2 Xorijiy investisiyalarning xalqaro boshqaruvi

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investisiyalar oqimiga bog'liq. Bu borada harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g'oyalarni hayotga joriy etish, mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investisiyalarni jalb qilish hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, quyida investorlar olishga intiladigan bir qator huquq va kafolatlar keltirilgan:

- xorijiy va milliy investorlar uchun teng huquqli va nodiskriminasion rejimning mavjudligi;

- hukumat organlarining noqonuniy hatti-harakatlaridan himoyalash kafolatlari va mazkur hatti harakatlarni sud tartibida shikoyat qilish huquqi;

- investisiyalarni milliylashtirishdan himoyalash kafolati va bular sodir bo'lganda adolatli kompensasiya olish huquqi;

- xorijiy investorlar uchun resipient mamlakat hududida qonun bilan belgilangan barcha soliq va yig'implarni to'lagandan so'ng daromad, foyda va boshqa qonuniy olingan pul mablag'laridan foydalanish va ularni xorijiy valyutada chet elga o'tkazish huquqi;

- investisiya faoliyati sub'ektlari huquqlarining barqarorligi, ya'ni Qonunchilik aktida shartlashilgan muddatga shartnoma tuzishda amal qilgan qoidalarga nisbatan boshqa qoidalarni belgilovchi qonunlarning qabul qilinishi holatlarida ham ular huquqlarining o'zgarmasligi kafolati;

- qonun tomonidan tartibga solinadigan va yo'l qo'yiladigan darajada iqtisodiyotning barcha sektorlariga, turli xil ko'rinishda (bevosita, portfel va b.) investisiyalar kiritish huquqi;

- investisiya imtiyozlarini olish huquqi;

- yerga egalik qilish huquqi;

- nizolarni xolisona va mustaqil tartibda sudda yoki xalqaro arbitraj sudida hal etish huquqi.

Investitsiya nizolari Jahon banki tomonidan tayyorlangan va 1969 yilda Vashingtonda qabul qilingan "davlatlar o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish tartibi to'g'risida"gi Konventsiya orqali hal etiladi.

Investitsiya jarayonining globallashuvi xalqaro shakllari va unga ta'sir o'tkazish usullarining rivojlanishida muhim o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Birinchi, milliy mexanizmlar bir-biridan avtonom tarzda va mustaqil ravishda kapitalning samarali joylashuvini ta'minlay olmaydi.

Ikkinchi, kapitalning harakati uchun o'z shartlari bo'yicha mutlaqo bir hil makon yaratilishi ko'zda tutilgan.

Uchinchi, ishlab chiqarish jarayonining mutaxassislikning yuqori shakllarini rivojlantirish, chet eldagi filiallar va xorijiy investitsiyalarga ega bo'lgan korxonalarni tashkil etish orqali milliy doiradan tashqariga chiqishi TTXI faoliyatining xalqaro kafolatlarini yaratish va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xalqaro mexanizm vositalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ularni uch guruhga bo'lish mumkin:

- ikki tomonlama,
- mintaqaviy (bir nechta, ammo cheklangan miqdordagi mamlakatlar ishtirok etadi)
- xalqaro (potentsial jihatdan global) kelishuvlar.

Ikki tomonlama investitsiya shartnomalarining investitsiya jarayonining globallashuviga ta'sirining ayni vaqtda ziddiyatli tomonlari mavjud. Bir tomondan, ular xorijiy kapitalga nisbatan sezilarli darajada farq qiladigan, teng bo'lmagan, teng bo'lmagan va ba'zan ziddiyatli munosabatlarni o'z ichiga oladi, bu umumiy investitsiya maydonining yomonlashishiga olib keladi, uning alohida segmentlarini bir-biridan ajratadi. Boshqa tomondan, ikki tomonlama shartnomalar kapital almashinuvi hajmini oshirishga, mahalliy xalqaro ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishga, kapital harakati yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, investitsiya jarayonini ikki tomonlama liberallashtirish darajasi oshgani sayin, TTXI tartibga solishning mushtarakligi va umum e'tirof etilishi kuchayib bormoqda, jahon investitsiya jarayonining chuqurlashuvi va kengayishi kuzatilmoqda. Ikki tomonlama shartnomalarga bo'lgan ehtiyojga sabab shundaki, ular doirasida ko'p tomonlama bitimlarga ko'ra mamlakatlarning pozitsiyalarini kelishib olish osonroqdir.

10.3. Xorijiy investisiyalarni jalb qilish va foydalanishning qonunchilik va me'yoriy - huquqiy bazasi

Mamlakatimiz innovasion-texnologik rivojlanishini, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va buning asosida milliy ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligini, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lib, investisiya faoliyatini faollashtirish, iqtisodiyotning real sektoriga kiritiladigan ham ichki, ham xorijiy investisiya resurslaridan foydalangan holda sarmoya qo'yilmalari ko'lamlarini salmoqli darajada kengaytirish hisoblanadi.

Umumiy investisiya jarayonining muhim unsurlaridan biri – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (TTXI) bo'lib, ular har qanday milliy iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarining, ilg'or texnologiyalar va boshqaruv zamonaviy uslublarining istiqbolli manbalaridan birini ifodalaydi.

Mamlakatda shakllangan investisiya iqlimining holatini belgilovchi muhim omillardan biri makroiqtisodiy barqarorlikdir. Makroiqtisodiy barqarorlik iqtisodiyot rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalar va ko'rsatkichlar bo'yicha, ya'ni YAIM dinamikasi, inflyasiya, olib borilayotgan moliya va byudjet siyosatining natijalariga ko'ra baholanadi. Asosiy e'tibor shunchaki makroiqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga emas, balki hukumatning makroiqtisodiy barqarorlikka yuzaga keladigan tahdidlarni prognozlashtirib, ularning oldini olgan holda bu makroiqtisodiy jarayonlarning rivojlanishini nazorat eta olishining haqiqiy imkoniyatlariga beriladi.

Bozor iqtisodiyotiga tadrijiy bosqichma-bosqich o'tish siyosatini amalga oshirish jarayonida O'zbekistonda iqtisodiyot pasayishining oldi olindi va iqtisodiy barqarorlikka erishildi, iqtisodiyot o'sishining mustahkam sur'atlari ta'minlandi, davlat byudjetining taqchilligi ancha kamaytirildi, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini rekonstruksiyalash va rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga xorijiy investisiyalarning iqtisodiyotimizga kirib kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi va bu muhitni yaxshilash bo'yicha muntazam ish olib borilmoqda. Davlat tassarufidan chiqarish, xususiylashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investisiyalarni

jalb qilish jarayonlarini tartibga soluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi.

Ma'lumki, qulay huquqiy shart-sharoitlarni yaratmasdan, jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv va xorijiy investorlarning ishonchini qozonish mumkin emas. Iqtisodiyot rivojlanishining mazkur bosqichida sarmoya oqimini davlatlararo va xalqaro kelishuvlar ko'rinishidagi davlat kafolatlari bilan ta'minlash mumkin, ammo investorlar uchun iqtisodiy islohotlar borishining kafolatlari ham muhimdir. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar allaqachon tadrijiylik va barqarorlik xarakteriga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining investisiyalar to'g'risidagi qonunchiligi MDH mamlakatlari qonunchilik tizimidagi eng ilg'or tizimlardan biri bo'lib, xalqaro investisiya huquqining asosiy qoidalarini, xususan, xorijiy investor huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi, investorlar uchun ma'lum preferentsiyalarni berish to'g'risidagi qoidalarni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investisiyalarni huquqiy tartibga solishning asosi bo'lib quyidagi qonunlar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida" 263-1-son Qonuni, 29.08.1996 y.;
- O'zbekiston Respublikasining "Chet el investisiyalari to'g'risida" 609-1-son Qonuni, 30.04.98 y.;
- O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida" 611-1-son Qonuni, 30.04.98 y.;
- O'zbekiston Respublikasining "Investisiya faoliyati to'g'risida" 719-1-son Qonuni, 24.12.98 y.;
- O'zbekiston Respublikasining «Investisiya va pay fondlari to'g'risida» O'RQ-392 son Qonuni, 25.08.2015 y.
- O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida» 220-I son Qonuni, 25.04.1996 y.
- O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida» 312-II son Qonuni, 07.12.2001 y.
- "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 y. PF-3594-son Farmoni;

- "Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalariga berilayotgan imtiyozlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.05.2006 y. 74-son qarori va b.

O'zbekiston Respublikasining "Investisiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni investisiya faoliyatining qonuniy asosini qurib, boshqa qonunlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi hududidagi investisiya faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini belgilashga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investisiyalari to'g'risida"gi Qonuni xorijiy investisiyalarni jalb qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning bosh qonunchilik hujjati bo'lib, respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishida xorijiy sarmoya bilan hamkorlik qilish doirasidagi ilg'or fikrlarni o'zida jamlagan. Huquqiy hujjat sifatida qonun o'zining asosiy nizomlarida xalqaro investisiya qonunchiligining xalqaro andozalariga javob beradi. Unda O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy investisiya faoliyatini tartibga solish sohasidagi asosiy tushunchalar va asosiy tamoyillar o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni keng jalb etish bo'yicha Qonunchilik aktlarining qabul qilinishi huquqiy baza sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Potensial investorlar mamlakatdagi investisiya muhitining qulayligini investisiya tavakkalchiligining yo'qligi bilan bog'laydilar. Investor uchun investisiya tavakkalchiligining darajasi me'yoriy hujjat qabul qilinganda emas, balki vaqt o'tishi bilan, mazkur hujjat barqaror va ishonchli normaga aylanganiga ishonch hosil qilganidan so'ng pasayadi.

Qulay investisiya muhitini shakllantirish qonunchilik bazasini takomillashtirish va qonunchilikka rioya etish bilan chambarchas bog'liq. Qonunchilikni takomillashtirishning asosiy masalalaridan biri – investorlar uchun huquqiy muhit barqarorligining kafolati.

Investisiya jozibadorligining omillari orasida huquqiy barqarorlik o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, aksariyat mamlakatlarning qonunchiligida barqarorlashtirish sharhi sifatida mustahkamlanadi. Bu qoida xorijiy investor uchun sarmoya qo'yilmalarining qoplanish muddatiga yoki boshqa muddatga investisiya kiritilayotgan paytda mavjud bo'lgan xo'jalik faoliyati shartlarining (jumladan, soliq stavkalari va boshqa

to'lov stavkalarining) o'zgarmay saqlanishini nazarda tutadi. Ya'ni, investorlarning faoliyatini yomonlashtiruvchi Qonunchilik o'zgarishlari investorlar uchun kompensasiyalanadi. Xorijiy investisiyalarning dastlab kelishilgan shartlarini yomonlashtiruvchi o'zgarishlarni tadbqiq etishni taqiqlash odatda 3 yildan 5 yilgacha, kamdan-kam 7-10 yilga belgilanadi.

Umuman, xorijiy investisiya faoliyatini amalga oshirishning barqaror shartlarini yaratish jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bunday bitimlarning shartlari o'z kuchini uning amal qilish muddati davomida saqlaydi. Xorijiy investisiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qonunchiligida barqarorlashtirish sharhining majudligi xorijiy investisiyalarni huquqiy tartibga solish sohasidagi xalqaro standart hisoblanib, uning uzoq vaqt davomida qo'llanilishi xorijiy investisiyalarni jalb qilishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Investisiya kiritish uchun eng qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan, investisiya faoliyati sohasidagi unifikatsiya qilingan qonun hujjati bu O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr qabul qilingan "Investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-598-son Qonuni.

Tuzilishiga ko'ra 12 bob, 69 moddadan iborat bo'lgan ushbu qonun ilgari investisiyaga oid qonun hujjatlarida mavjud bo'lmagan yangi tartib va qoidalar bilan yanada takomillashtirildi. Xususan:

- Investisiyalar va investisiya faoliyatining asosiy tamoyillari belgilandi.
- Qonun hujjatlarining investor uchun noqulay o'zgarishlariga qarshi kafolatlari yanada mustahkamlandi.
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining investisiyalarni va investisiya faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatlari kengaytirildi.
- "Investisiya vizasi" va uni rasmiylashtirish tartibi bo'yicha norma kiritildi.
- O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan investisiya shartnomasi tuzish tartibi belgilandi.

Qonunda ilk bor investisiyalar va investisiya faoliyatining asosiy tamoyillari mustahkamlab qo'yildi. Bu esa investisiya sohasida huquqiy tartibga solishning mazmuni va yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur printsiplar investisiya qilish va investisiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

Ushbu tamoyillar qatorida investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi, ularga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik kabilarni alohida ta'kidlash joiz. Bu kabi tamoyillarning qonun darajasida belgilanishi investisiya faoliyati sub'ektlarining huquq va majburiyatlariga rioya etilishida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu maqsadda, "Investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investisiyalash shartlarini yomonlashtirsa, investisiya kiritgan sanada amalda bo'lgan qonun hujjatlari investorlarga nisbatan o'sha sanadan boshlab o'n yil mobaynida qo'llanilishi, shuningdek, ushbu kafolatlarning aynan qaysi holatlarda amal qilishi aniq belgilab qo'yildi.

Investorlar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlashning bunday turi chet el sarmoyadorlari uchun qulay investisiya muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda davlatning jamiyat hayotida tutgan o'rni borasida turli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish ko'zda tutilgan. "Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasi"da qayd etilganidek, davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelmoqda.

Shu boisdan, ushbu qonunda ham mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'z vakolatlari doirasida hududdagi investisiya muhitini yanada takomillashtirish maqsadida istiqbolli investisiya loyihalarini ro'yobga chiqarish borasida tegishli takliflarni ko'rib chiqish va chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kabi muhim vakolatlar berildi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga 10 mln. AQSh dollaridan kam bo'lmagan ekvivalentda chet el investorlari bilan investisiya shartnomalarini mustaqil tuzish huquqi berildi. Ilgari esa investision shartnomalar faqat hukumat darajasida tasdiqlanar edi.

Mazkur yangi tartibdan hududlardagi rahbarlar samarali foydalanib, chet ellik investorlar bilan turli sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yib, qator korxonalar faoliyatini yo'lga qo'ydilar.

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta'sischilari (ishtirokchilari) va ularning oila a'zolari uchun muddatini mamlakatdan chiqmasdan uzaytirish imkoni bo'lgan, amal qilish muddati uch yilni tashkil etuvchi "investisiya vizasi" joriy etilishi belgilangan edi.

Farmonda belgilangan ushbu vazifa "investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida"gi qonunda bevosita o'z ifodasini topdi. Xususan, investisiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida investorlar va chet el investorlari ishtirokidagi korxonalarga chet el fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish huquqi qonun darajasida mustahkamlanib, bunday shaxslarga mehnat shartnomasining butun amal qilish davrida ko'p martalik vizalarni olgan holda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish va uning hududida bo'lish huquqi kafolatlandi.

Aytish lozimki, bu turdagi viza asosan mamlakatimiz hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun 3 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda investisiya kiritgan xorijiy davlatlar fuqarolariga beriladi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 10 yil muddatga soddalashtirilgan tartibda xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta'sischilariga ham taqdim etiladi.

Ushbu qoidalar investorlarga malakali chet el mutaxassislarining ko'nikmalaridan erkin foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Davlat va chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlashning yana bir samarali usuli bu hukumat darajasidagi investisiya shartnomalaridir. Darhaqiqat, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizasiya qilish, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikasiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tuziladigan investisiya shartnomalari hayotga izchil tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega.

Ayni shu maqsadda, qonunda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuziladigan investisiya shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari, xususan uning tuzish tartibi, taraflari, shartlari va davlatning majburiyatlari aniq belgilab qo'yildi.

Chet el investorlariga O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan shartnoma tuzilganda qo'shimcha kafolatlar va qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi mustahkamlandi.

Shuningdek, chet ellik investorlarga O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan investisiya shartnomasi tuzish bo'yicha mustaqil ravishda taklif kiritish tashabbusi taqdim etildi.

Xulosa o'rnida aytganda, "Investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida"gi qonun chet el investorlari hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investisiyalar va investisiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilishi barobarida, investisiya qonunchiligidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, xorijiy sarmoyadorlar bilan investisiya loyihalarini amalga oshirishda "davlat-xususiy sektor" sherikligini rivojlantirish, sarmoyadorlar kiritgan mablag'lar xavfsizligini kafolatlash, iqtisodiy barqarorlik va moliya bozorining mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

Nazorat savollari

1. Xorijiy investisiyalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini qanday baholaysiz?
2. To'g'ridan-to'g'ri va portfel investisiyalarning farqi nimadan iborat?
3. Mamlakat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va portfel investisiyalarni qabul qilishi qanday ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
4. XX asrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning yo'nalishi qanday o'zgarib borgan?
5. Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda xorijiy investisiyalar roli nimalardan iborat?

11-MAVZU. ISHCHI KUCHINING XALQARO BOZORI

11.1. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyaning mohiyati, omillari va turlari

11.2. Ishchi kuchining xalqaro migratsiya jarayonini boshqarish

Tayanch iboralar: migratsiya, emigratsiya, immigratsiya, muhojir, mehnat bozori, ishchi kuchi

11.1. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyaning mohiyati, omillari va turlari

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlar tobora kengayib bormoqda. Zamonaviy aloqa, transport vositalarining rivojlanishi, qonunchilikning unifikatsiyalahuvi va iqtisodiyotning ochiqligi davlatlar o'rtasida nafaqat tovarlar va xizmatlar, balki ishlab chiqarish omillarining ham erkin harakat qilishiga imkon bermoqda. Yuqori mobillika ega bo'lgan ishlab chiqarish omillaridan biri bu ishchi kuchidir. Mehnat migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakllaridan biri bo'lib bormoqda.

Xalqaro ishchi kuchining migratsiyasi dunyoda ro'y berayotgan migratsiya jarayonlarining bir qismidir. Mehnat migratsiyasi bilan bir qatorda harbiy, siyosiy voqealar, etnik va diniy sabablarga ko'ra ta'qiblar natijasida aholini yashash joyini o'zgartirishga majbur qiladigan majburiy migratsiya ajratiladi.

Migratsiya (lot."ko'chib o'taman") – bu insonlarning, odatda, yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq harakatlardir, ya'ni insonlarning ma'lum hududlar chegaralaridan doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish bilan ko'chib o'tishi tushuniladi.

Emigratsiya (lotin tilidan. "men ko'chib ketaman") – fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablarga ko'ra o'z mamlakatidan doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ketishi.

Immigratsiya (lotin. "men ko'chib o'taman") – bu bir davlatning hududiga boshqa davlat fuqarolarining doimiy (yoki uzoq vaqt) yashab turish uchun joylashib olish jarayoni.

Mehnat migratsiyasi ishchi kuchining yoki «insonning ishlash qobiliyati» ning eksport va importining shaklidir.

Umuman olganda, so'nggi besh o'n yillik ichida xalqaro muhojirlar soni ko'payganligini ko'rish mumkin. Tug'ilgan mamlakatida yashamay boshqa mamlakatda yashayotganlar soni 2019 yilda 272 mln kishini tashkil etdi, bu esa 1970 yilga nisbatan (84 mln) uch barobar ko'p demak. (11.1- jadval). Ushbu ko'rsatkich dunyo aholisining 3,5% ini tashkil etadi. Dunyo bo'ylab xalqaro muhojirlarning ulushi shu davrda ko'paygan bo'lsa-da, ko'pchilik odamlar tug'ilgan mamlakatlarda yashashni davom ettirishmoqda.

11.1- jadval

Migratsiyaning global oqimi, 1970-2019 yy¹.


Yillar	Migrantlar soni	Dunyo aholisiga nisbatan % da
1970	84 460 125	2,3 %
1975	90 368 010	2,2 %
1980	101 983 149	2,3 %
1985	113 206 691	2,3 %
1990	153 011 473	2,9 %
1995	161 316 895	2,8 %
2000	173 588 441	2,8 %
2005	191 615 574	2,9 %
2010	220 781 909	3,2 %
2015	248 861 296	3,4 %
2019	271 642 105	3,5 %

Xalqaro muhojirlarning 52 % ni erkaklar, 48 % ni ayollar, 74 % ni mehat yoshidagi (20-64 yosh) kishilar tashkil etadi². (11.1-rasm)

¹ WORLD MIGRATION REPORT 2020.- P.21.

² WORLD MIGRATION REPORT 2020.- P.10.

Mehnat resurslarining uzluksiz harakatlanishi jarayonida jahon mehnat bozori shakllandi, va to'rtta asosiy markazni ajratib ko'rsatish mumkin: AQSh, G'arbiy Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasi.



11.1-rasm. Xalqaro muhojirlarning yosh va jinsi bo'yicha tarkibi

Savdoning globalashuvi, transport va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va demografik dinamika kabi omillar aholining davlatlar o'rtasida ko'chish jarayonini soddalashtiradi va migratsiya jarayonlariga yordam berib migratsiya oqimlarini rag'batlantiradi.

Xalqaro ishchi kuchining migratsiyasi – bu mehnatga layoqatli aholining bir mamlakatdan boshqasiga ish, o'z qobiliyatlarini qo'llashning yangi sohaslarini, yaxshi yashash sharoitlarini topish uchun ko'chishi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish sohasining xalqaro amaliyotida (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1990 yil 18 apreldagi 45/158-sonli rezolyutsiyada qabul qilingan "Barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Konvensiya) «mehnat muhojiri» atamasidan foydalaniladi. Bu atama, fuqaroligi bo'lmagan davlatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanadigan, shug'ullanayotgan yoki shug'ullangan shaxsni anglatadi¹.

¹ Волох В.А. Трудовая миграция: Политико-правовые и социально-экономические аспекты привлечения и использования иностранной рабочей силы. М., 2010. С. 18.

Turli soha olimlari mehnat migratsiyasi hodisasini tushuntirishga harakat qilmoqdalar, chunki bu jamiyat hayotining ko'p jihatlariga siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, diniy va boshqalariga ta'sir qiluvchi murakkab va ko'p o'lchovli hodisadir.

11.2- jadval

Turli iqtisodiy maktablar olimlarining mehnat migratsiyasi haqidagi fikrlarning evolyutsiyasi

Ta'limot	Namoyondalari	Mehnat migratsiyasi haqidagi fikrlarning mohiyati
Merkantilizm	T. Men, J.B. Kolber	<p>Aholining o'sishi - davlatning farovonlik manbai (oltindan tashqari), shuning uchun ishchi kuchini, ayniqsa hunarmandlarning mamlakatdan chiqishini taqiqlash.</p> <p>Mamlakat ichidagi ishchilar sonining ko'payishi ko'proq tovar olish va mehnat xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, bu esa foyda darajasini oshiradi</p>
Klassik siyosiy iqtisod	A. Smit, D. Rikardo, D. Mil, D. Styuart va boshqalar	<p>Bozor kuchlari ta'siri ostida ishchi kuchining erkin xalqaro harakati (kapital va tovarlar bilan birga) sababli ular eng zarur bo'lgan sohalar va tarmoqlarga kiradi. Ishchilarning harakat yo'nalishlari mehnatga talab va taklifining ta'siri bilan belgilanadi va mehnatga haq to'lash darajasining farqlanishi bilan bog'liq.</p>
Keynschilik	D. Keyns	<p>Bozor iqtisodiyoti davlat tomonidan tartibga solinishi kerak, shuning uchun xalqaro mehnat migratsiyasi natijasi bo'lgan jahon mehnat bozori ziddiyatli milliy manfaatlar to'qnashadigan maydondir.</p>

Neoklasik maktab	M. Fridman, P. Samuelson	Xalqaro migratsiyaning harktlantiruvchi mexanizmi bo'lib turli mamlakatlardagi turli darajadagi ish haqi bilan tavsiflanadigan mehnat bozoridir. Yuqori ish haqi bo'lgan mamlakatlar muhojirlarni jalb qiladi. Ish haqidagi farqlarini bartaraf etish migratsiya oqimlarini to'xtatadi. Shunday qilib, mehnat bozoriga ta'sir qilish orqali migratsiya oqimlarini boshqarish imkoniyati mavjud
Iqtisodiy tsikllarning teskari aloqa nazariyasi	B.Tomas va b.	Mamlakatdan mamlakatga mehnat migratsiyasi yo'nalishi iqtisodiy rivojlanishning davriy fazalarining teskari o'zgarishi bilan belgilanadi
Segmentlashtirilgan mehnat bozori nazariyasi yoki juft mehnat bozori nazariyasi	M. Piore, A. Portes, D. Solou va b.	Xalqaro migratsiya iqtisodiyotning tarkibiy ehtiyojlari tufayli xorijiy ishchi kuchiga bo'lgan doimiy talabning natijasidir
Inson kapitali nazariyasi	T. Schultz va G. Becker	Migratsiya — inson kapitaliga investitsiyadir, bu qayta tiklanadigan resursdir va yig'ilish xususiyatiga ega. Migratsiya to'g'risida qaror qabul qilishga quyidagilarga ta'sir qiladi: o'z mamlakatida va boriladigan potentsial mamlakatda ish bilan ta'minlash shartlari, yoshi va ko'chish xarajatlari

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyalari doirasida olimlarning migratsiya jarayonlariga, ularning sabablari, jahon migratsion jarayonlarga ta'sir

qilish usullari va ularning oqibatlariga bo'lgan qarashlari evolyutsiyasi kuzatilmoqda.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining besh yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) Rivojlanayotgan davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;
- 2) Sanoati rivojlangan davlatlar doirasidagi migratsiya;
- 3) Rivojlanayotgan davlatlar orasidagi migratsiya;
- 4) Sobiq sotsialistik davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;
- 5) Ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislarining sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga migratsiyasi.

Mamlakatlar o'rtasidagi aholi migratsiyasi "tashqi" deb ataladi va u muayyan mamlakat aholisiga ta'sir qiladi. "Ichki" migratsiya milliy chegaralar doirasida amalga oshiriladi (aholi mamlakat hududlari, qishloqdan shaharga, shaharlar va boshqalar orasida harakat qilganda), ammo bu mamlakatning umumiy aholi soniga ta'sir qilmaydi. Mehnat resurslarini qayta taqsimlashning bunday shakli muhim iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u aholining tarkibi va joylashuvini o'zgartirishda muhim omil hisoblanadi.

Ishchi kuchi migratsiyasining ikki turi mavjud: birinchisi – "kam malakali kadrlar migratsiyasi» (odatda, rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoatlashgan mamlakatlarga ko'chish) va "yuqori malakali kadrlar migratsiyasi» – bu «aqlning oqib ketishi».

«Aqlning oqib ketishi» – bu jahon iqtisodiyoti doirasida, asosan, sanoati rivojlangan mamlakatlarga ilmiy-texnik kadrlarning bir tomonlama ko'chishi, bu «donor»-mamlakatlarning malakali mutaxassislarini yo'qotishiga olib keladi. Bunday migratsiya quyidagi asosiy kanallar orqali amalga oshiriladi:

- a) sanoat rivojlangan mamlakatlarga mutaxassislarni ketib qolishi;
- b) xorijiy mutaxassislarni sanoati rivojlangan mamlakatlarning firmalari, ilmiy markazlari, tadqiqot laboratoriyalariga (ushbu mamlakatlarning o'quv yurtlarida oliy ta'lim olganidan so'ng) ishga jalb qilish;
- c) transmilliy kompaniyalar filiallarida ishlash uchun mahalliy malakali kadrlarni jalb qilish (bunday migratsiya "bilvosita" migratsiya deb ataladi).

BMT metodologiyasiga ko'ra, yuqori malakali migrantlar toifasiga ilmiy xodimlar, muhandislar, shifokorlar va boshqalar kiradi.

AQShda 80 yillarda chet elliklarning ulushi muhandislar orasida 10%, shifokorlar orasida 24% ni tashkil etgan; AQSh milliy fanlar akademiyasi a'zolarining 23% va Nobel mukofoti sovrindorlarining 33% i AQSh immigrantlaridir.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining rivojlanish tendentsiyalari:

- mehnat migratsiya jarayonlarining dunyoning deyarli barcha mamlakatlariga tarqalishi;
- mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishi: rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridan eng rivojlangan mamlakatlarga;
- bir rivojlangan mamlakatdan boshqasiga migratsiya jarayonlarini faollashtirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida davlatlararo ko'chishlarning kuchayishi;
- o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasida mayatnikli migratsiyasini tiklash;
- mehnat migratsiyasining yangi shakli – ilmiy-texnik kadrlar migratsiyasining paydo bo'lishi;
- yaqin Sharqda (Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Quvayt, Isroil), Lotin Amerikasida (Argentina, Braziliya, Venesuela), Janubi-Sharqiy Osiyoda (Yaponiya, Gonkong, Tayvan, Singapur) yangi jozibador migratsiya markazlarining shakllanishi;
- "yosh migratsiya" ulushining oshishi;
- xorijiy mehnat oqimini cheklashga intilayotgan AQSh va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining qattiq migratsiya siyosati tufayli noqonuniy migratsiya hajmini kengayishi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining noiqtisodiy sabablari orasida siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, diniy va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Xususan, xalqaro mehnat migratsiyasining boshqa sabablariga V.I. Deren quyidagilarni kiritadi:

- mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi (oriqcha kapital va ortiqcha mehnatga ega davlatlar ushbu sharoitlarda mehnat resurslari migratsiyasi bilan bir-birini to'ldiradi);

- kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlarining o'sishi, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda IFT ta'siri ostida yuqori malakali kadrlarga talabning o'sishi. Yangi ishchilarni maxsus tayyorlashdan ko'ra, muhojirlar orasidan yuqori malakali kadrlarni talab qiluvchi ish o'rinlarini to'ldirish oson va arzon bo'ladi;
- malakasiz mehnatga bo'lgan jahon talabning pasayishi va uning taklifining o'sishi, ayniqsa kambag'al mamlakatda, bu esa kambag'al mamlakatlar aholisining bir qismini ish izlab ko'chib o'tishga majbur qiladi;
- turli mamlakatlardagi mehnat, turmush sharoiti, aholi daromadlari darajasidagi farqlar. Shuning uchun aholi migratsiyasining asosiy oqimlari kambag'al mamlakatlardan boy mamlakatlarga yo'nalgan;
- Buyuk geografik kashfiyotlar, urushlar, yangi hududlarni egallash, inqirozlar, falokatlar, aholi migratsiyasini rag'batlantiradi.
- xalqaro tashkilotlar, xalqaro korporatsiyalar, davlatlarning demografik va migratsiya siyosati, mehnat migratsiyasini jilovlab turuvchi yoki rag'batlantiruvchi ularning tashqi iqtisodiy siyosati¹.

Ushbu sanab o'tilgan sabablar mehnatga layoqatli yoshdagi kishilarni o'z mamlakatini tark etishga va boshqa davlatlarga ko'chishga undaydigan sabablardir. Shu bilan birga, ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlardagi tadbirkorlarni xorijiy ishchi kuchidan foydalanishga undaydigan bir qator sabablar ham mavjud. Masalan: chet elliklarni ishga olish xarajatlarining pastligi va o'qitish xarajatlarida tejash. Shunday qilib, ishchi kuchi migratsiyasining qabul qiluvchi mamlakatlar va donor mamlakatlarga ta'siri haqida gapirish mumkin. (11.1-jadval)

Emigratsiya kelib chiqadigan mamlakatlar ishchi kuchini export qiluvchi mamlakatlar – "donorlar" deb ataladi. Odatda, emigratsiya mamlakat ichki mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilaydi, birinchidan, qisman ishsizlik kamayadi, ikkinchidan, xorijda ishlashdan so'ng malakali ishchilar qaytib keladi. Bundan tashqari, emigratsiya mamlakatlari chet elda ishlaydigan fuqarolaridan valyuta o'tkazmalarini olish imkoniyatiga ega. Kamchiliklari mehnat resurslarining bir qismi va eng mehnatga layoqatli yoshdagi oqimlardan iborat. «Donor»-mamlakatlar, emigrantlarga aylangan shaxslarning

¹ Дерен В.И. Мировая экономика. Смоленск, 2016. С. 215.

umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarligi uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini yo'qotadi.

Immigratsiya mamlakatlari «qabul qiluvchi» mamlakatlar deb ataladi. Ushbu mamlakatlar uchun "afzalliklar" quyidagilar:

birinchidan, muhojirlarni o'qitish uchun muayyan tejamkorlik,

ikkinchidan, ish haqi tejalishi, chunki xorijiy ishchilarning ish haqi darajasi milliy xodimlarning ish haqi darajasidan pastroqdir. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozorining ikki turi ham mavjud: "xorijiy" va "milliy" mehnat bozori,

uchinchidan, muhojirlar hisobiga ichki iste'mol tovarlari bozorining hajmi kengaymoqda,

to'rtinchidan, bank hisoblarida saqlanadigan muhojirlarning vaqtincha bo'sh mablag'lari iqtisodiyotni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

to'rtinchidan, muhojirlarning vaqtincha bo'sh pul mablag'lari, bank hisob raqamlarida saqlanadi va ulardan iqtisodiyotni moliyalashtirish uchun foydalanish mumkin.

Nihoyat, muhojirlar mehnat resurslarining yosh tarkibini yoshartirish yo'nalishida o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi.

Immigratsiyaning «qabul qiluvchi» mamlakatlar uchun kamchiliklariga bir tomondan, xorijliklarga qarshi kamsitishning paydo bo'lishi, boshqa tomondan mahalliy aholining noroziligi oshishini kiritish mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va mafkuraviy muammolar mavjud. Shuning uchun migratsiya jarayonlarini milliy va millatlararo tartibga solish zarur.

11.3-jadval

Xalqaro mehnat migratsiyasining ta'sirlari

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakat (retsipient)	Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat («donor»)
Ijobiy	
1. Ishlab chiqarish xarajatlarini xorijiy ishchi kuchining past narxi bilan bog'liq kamaytirish natijasida milliy tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish.	1. Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaning mamlakatga oqib kelishi, ya'ni ishchi kuchi eksporti muhim manba hisoblanadi.

<p>2. Multiplikativ samara (mamlakatda xorijiy ishchi kuchi orqali ishlab chiqarish va ish bilan ta'minlashni mamlakatda rag'batlantirish).</p> <p>3. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik xarajatlarini tejash (malakali kadrlar import qilinganda).</p> <p>4. Ijtimoiy barqarorlikni saqlash (inqirozli ishsizlik sharoitida).</p> <p>5. Ijtimoiy dasturlarni yuqori darajada saqlash</p>	<p>1. Mamlakatda ortiqcha mehnat resurslari va ijtimoiy keskinlikning bosimini kamaytirish.</p> <p>2. Mamlakat uchun ishchi kuchini ng yangi professional ko'nikmalarga bepul o'rganishi, mehnatni tashkil etishning ilg'or yo'llari bilan tanishib kelishi va h. k.</p> <p>3. Yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan donor mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini moliyalashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va qabul qiluvchi mamlakatlarning ishtiroki</p>
<p>Salbiy</p>	
<p>1. Milliy mehnat bozorida vaziyatning keskinlashuvi.</p> <p>2. Mehnat bozorida taklifning o'sishi natijasida ishchi kuchi, shu jumladan, milliy ishchi kuchi narxining pasayishiga moyilligi kuchaymoqda.</p> <p>3. Mahalliy aholi va muhojirlar o'rtasida milliy va axloqiy nizolarni keltirib chiqarish</p>	<p>1. Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnat resurslarining bir qismini yo'qotishning iqtisodiy zarari va natijada aholining yosh tarkibiining qarishi.</p> <p>2. Emigrantlarni umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarligi xarajatlarini yo'qotish</p> <p>3. «Aqlning oqib ketishi» milliy iqtisodiyotga juda kerak bo'lgan malakali kadrlarning ketib qolishidir.</p>

Muhojirlar moliya sohasiga o'z hissasini qo'shib, soliqlarni to'laydilar va daromadlarining taxminan 85 foizini qabul qiluvchi

mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritadilar. Qolgan 15% foiz daromadlari pul o'tkazmalari orqali o'z yurtlariga yuboriladi¹. 2018 yilda dunyoda mehnat migratsiyasi tufayli olingan pul o'tkazmalari miqdori 689 milliard dollarni tashkil etib, pul o'tkazmalari hajmi 2017 yilda 633 milliard AQSh dollariga nisbatan 9 foizga oshdi.²

2018 yilda Hindiston, Xitoy, Meksika, Filippin va Misr pul o'tkazmalarini qabul qiluvchi mamlakatlarning birinchi beshtaligiga kirgan bo'lib, Hindiston va Xitoyda ichki pul o'tkazmalarining umumiy miqdori har bir mamlakat uchun 67 milliard AQSh dollaridan oshdi. (11.4-jadval) Biroq, pul o'tkazmalarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushiga ko'ra pul o'tkazmalarini oluvchi mamlakatlarning birinchi beshligiga Tonga (35,2%), Qirg'iziston (33,6%), Tojikiston (31%), Gaiti (30,7%) va Nepal (28%) kiradi.

11.4- jadval

Pul o'tkazmalarini qabul qiluvchi yetakchi mamlakatlar, mlrd. doll, 2005-2018 yillar (mlrd. AQSh doll.)³

2005		2010		2015		2018	
Xitoy	23,63	Hindiston	53,48	Hindiston	68,91	Hindiston	78,61
Meksika	22,74	Xitoy	52,46	Xitoy	63,94	Xitoy	67,41
Hindiston	22,13	Meksika	22,08	Filippin	29,80	Meksika	35,66
Nigeria	14,64	Filippin	21,56	Meksika	26,23	Filippin	33,83
Frantsiya	14,21	Frantsiya	19,90	Frantsiya	24,06	Misr	28,92
Filippin	13,73	Nigeria	19,75	Nigeria	21,16	Frantsiya	26,43
Belgiya	6,89	Germaniya	12,79	Pokiston	19,31	Nigeria	24,31
Germaniya	6,87	Misr	12,45	Misr	18,33	Pokiston	21,01
Ispaniya	6,66	Bangladesh	10,85	Germaniya	15,81	Germaniya	17,36
Polsha	6,47	Belgiya	10,35	Bangladesh	15,30	Vietnam	15,93

¹ Реализация целей миграции на благо всех. Доклад Генерального секретаря ООН. 12 дек. 2017. С. 8. [Электронный ресурс] URL: https://refugeesmigrants.un.org/sites/default/files/sg_report_ru.pdf

² WORLD MIGRATION REPORT 2020.- P.35.

³ WORLD MIGRATION REPORT 2020.- P.36.

Yuqori daromadli mamlakatlar deyarli har doim pul o'tkazmalarining asosiy manbai hisoblanadi. Yillar davomida, AQSh har doim pul o'tkazmalari yuborish bo'yicha mamlakatlar orasida birinchi o'rinni egallagan va 2017 yilda pul o'tkazmalari 67,96 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu mamlakatdan keyingi o'rinlarda Birlashgan Arab Amirliklari (44,37 milliard dollar), Saudiya Arabistoni (36,12 milliard dollar) va Shveytsariya (26,6 milliard dollar) mamlakatlari turadi. 2016 va 2017 yillarda pul o'tkazmalari jo'natuvchi beshinchi mamlakat Germaniya (20,29 milliard AQSh dollari va 22,09 milliard AQSh dollarini tashkil etdi) hisoblanadi. (11.5- jadval)

11.5- jadval

**Pul o'tkazmalarini jo'natuvchi yetakchi mamlakatlar, mlrd. doll,
2017 yil¹**

2005		2010		2015		2017	
AQSh	47,25	AQSh	50,78	AQSh	61,86	AQSh	67,96
Saudiya Arabistoni	14,30	Saudiya Arabistoni	27,07	Birlashgan Arab amirliklari	40,33	Birlashgan Arab amirliklari	44,37
Germaniya	12,71	Rossiya	21,45	Saudiya Arabistoni	38,79	Saudiya Arabistoni	36,12
Shveytsariya	10,52	Shveytsariya	17,76	Shveytsariya	25,40	Shveytsariya	26,60
Buyuk Britaniya	9,64	Germaniya	14,68	Xitoy	20,42	Germaniya	22,09
Frantsiya	9,48	Italia	12,89	Rossiya	19,69	Rossiya	20,61
Korea	6,9	Frantsiya	12,03	Germaniya	18,03	Xitoy	16,18
Rossiya	6,83	Quveyt	11,86	Quveyt	15,20	Quveyt	13,76
Lyuksemburg	6,70	Lyuksemburg	10,65	Frantsiya	12,79	Frantsiya	13,50
Malayziya	5,68	BAA	10,57	Qatar	12,19	Korea	12,89

Xitoy pul o'tkazmalarini qabul qiluvchi mamlakat sifatidagi roli bilan bir qatorda, pul o'tkazmalarini jo'natuvchi yetakchi mamlakatlar qatoridan ham o'rin egallagan. 2016 yilda 20,29 milliard AQSh dollari

¹ WORLD MIGRATION REPORT 2020.- P.36.

va 2017 yilda 16,18 milliard AQSh dollari pul o'tkazmalari amalgam oshirilgan.

11.2. Ishchi kuchining xalqaro migratsiya jarayonini boshqarish

Jahon iqtisodiyotida mehnat migratsiyasi mehnat sharoitlarini, ish bilan bandlikni, aholi daromadlarini tenglashtiradi, mamlakatlar orasida va ularning ichida ziddiyatlarni kuchaytiradi. Shuning uchun milliy va xalqaro miqyosda jahon mehnat bozorini tartibga solish zarurdir va buni rivojlangan davlatlar faol amalga oshirmoqda.

Dunyoda migratsiya jarayonlari tezlashmoqda. Ixtiyoriy va majburiy migratsiya ko'lami kengaymoqda va bu jarayonga ko'plab mamlakatlar jalb etilmoqda, noqonuniy migratsiya oqimi ortib bormoqda. Bu migratsiya siyosatini ishlab chiqish, ularni tartibga solish vositalari rivojlantirish uchun bir ehtiyoj borligini anglatadi.

Jahon iqtisodiyoti va alohida mamlakat iqtisodiyoti uchun migratsiya jarayonlarining alohida ahamiyati tufayli mehnat migratsiyasi barcha darajalarda qat'iy tartibga solinadi: xalqaro, davlatlararo va davlat darajasida. Bunday tartibga solish vositalari bo'lib qonun hujjatlari, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy ta'sir usullari hisoblanadi.

Ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro hamjamiyat hayotida normativ hodisa bo'lib, u milliy qonunchilik va xalqaro hujjatlar asosida taraqqiy etgan shakllarda amalga oshiriladi. Migratsiya masalalarini xalqaro darajada tartibga soluvchi hujjatlar, migratsiya siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari BMT va uning bo'linmalari, Xalqaro migratsiya tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan o'tkaziladigan yig'ilish va konferentsiyalarda qabul qilinadi.

Jahon iqtisodiyotidagi aholi migratsiyasini tartibga soluvchi huquqiy asos bo'lib BMT tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (unga ko'ra, shaxs o'zi uchun mamlakat, yashash joyi va ishini mustaqil ravishda belgilashga haqli), 1966 yil 16 dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro bitim, 1975 yil 1 avgustdagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashning yakuniy akti, 1986 yil YXHTga a'zo davlatlar vakillarining Vena uchrashuvining yakuniy hujjati, BMTning barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari

huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyasi, XMT hujjatlari va boshqalar hisoblanadi.

Davlatlarning integratsion guruhleri ham mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi hujjatlarni qabul qilishadi. Jumladan, 1957dan beri Yevropa Ittifoqida Rim shartnomasi mavjud bo'lib, 52 xatboshiga ko'ra, Yevropa Ittifoqining har bir fuqarosi har qanday Yevropa Ittifoqi mamlakatida ish topish huquqiga ega. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi doirasida mehnat migratsiyasini rivojlantirishga Yevropa Ittifoqining aksariyat davlatlari o'rtasida viza to'siqlarini bartaraf etgan Shengen bitimining qabul qilinishi ham yordam berdi.

Davlat migratsiya jarayoniga juda faol ta'sir ko'rsatadi. Nafaqat muhojirlar soni balki professional, malaka, jinsiy va yosh tuzilishi va mamlakatda qolish muddati ham tartibga solinadi.

Davlat darajasidagi migratsiya siyosati davlat va uning institutlarining o'z mamlakatlari hududida rezidentlar va norezidentlarning migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar va harakatlar tizimini ishlab chiqish, aholining jahon migratsiyasi va ishchi kuchining milliy iqtisodiyot uchun salbiy oqibatlarini oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan. Bu sohada davlat an'anaviy ravishda proteksionizm afzalliklariga ega, chunki ishsizlik va uning oqibatlari bilan kurashish muammosi uning elkasiga tushadi. Migratsiya siyosati muhojirlar uchun muayyan qat'iy talablarni ishlab chiqishda ifodalanadi. Shu bilan birga, migratsiya siyosati doirasida davlat ko'pincha muhojirlarning muayyan guruhlarini (yuqori malakali mutaxassislar, ishbilarmonlar va boshqalarni) jalb qilishdan manfaatdor ekanligini hisobga oladi. Emigratsiya siyosati, odatda, mamlakatda istiqbolli ishchilarni saqlashga qaratilgan.

Davlat darajasidagi migratsiya siyosati davlat va uning institutlarining o'z mamlakatlari hududida rezidentlar va norezidentlarning migratsiya jarayonlarini tartibga solish, aholi va ishchi kuchi xalqaro migratsiyasining milliy iqtisodiyot uchun ijobiy oqibatlarini rag'batlantirish va salbiy oqibatlarini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar va harakatlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan. Bu sohada davlat an'anaviy ravishda proteksionizmni afzal ko'radi, chunki ishsizlik va uning oqibatlari bilan kurashish muammosi uning yelkasiga tushadi. Migratsiya siyosati muhojirlarga nisbatan muayyan qat'iy talablarni ishlab chiqishda ifodalanadi. Shu bilan birga, migratsiya siyosati doirasida davlat ko'pincha muhojirlarning muayyan guruhlarini

(yuqori malakali mutaxassislar, ishbilarmonlar va boshqalarni) jalb qilishdan manfaatdor ekanligini hisobga oladi. Emigratsiya siyosati, odatda, mamlakatda istiqbolli ishchilarni saqlab qolishga qaratilgan.

Migratsiya siyosatini amalga oshirish vositalari bo'lib, migratsiyani murakkablashtiruvchi yoki manfaatni pasaytiradigan shart-sharoitlar yaratishga qaratilganiqtisodiy va inoqtisodiy xarakterdagi turli tadbirlar

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlarda migratsiyani tartibga solishning davlat chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqilgan. Bu huquqiy, siyosiy va professional maqom to'g'risidagi qonunchilikni, milliy immigratsiya xizmatlari, shuningdek, davlatlararo bitimlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro darajada IHTT (OECD) ga a'zo davlatlar tomonidan milliy immigratsiya boshqarmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi SOPEMI (migratsiyani doimiy kuzatish tizimi) xizmati tashkil etilgan.

Immigratsiya siyosati to'g'ridan-to'g'ri milliy immigratsiya xizmatlari orqali amalga oshiriladi, ular odatda mehnat, Adliya yoki ichki ishlar vazirliklarida tuziladi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi nima va u qaysi sabablarga ko'ra yuz beradi?
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining qanday turlari mavjud?
4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining zamonaviy tarkibi va dinamikasini aniqlang.
5. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi markazlari va yo'nalishlarini aniqlang.
6. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro darajada qaysi tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi?
7. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning qanday usullari mavjud?
8. Immigratsiya siyosati va uni amalga oshirish dastaklari nimalardan iborat?
9. Emmigratsiya siyosati nima va qanday xususiyatlarga ega?

12-MAVZU. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

12.1 Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini, shakllari va bosqichlari

12.2. G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi. Yevropa ittifoqi.

12.3. MDH davlatlarining iqtisodiy hamkorlik muammolari.

Tayanch boralar: integratsiya, xalqaro iqtisodiy integratsiya, ittifoq, umumiy bozor, bojxona ittifoqi

12.1 Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini, shakllari va bosqichlari

Jahon xo'jaligida o'zaro bir-biri bilan bog'liq quyidagi ikki tendentsiya harakat qilmoqda:

- jahon xo'jaligi yaxlitligining shakllanish jarayoni – globallashtirish;

- mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yuqori, samarali va istiqbolli bosqichi, iqtisodiy munosabatlarni xalqarolashtirishning yangi va murakkab bosqichi. Ushbu bosqichda nafaqat milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashuvi, balki iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish ham ta'minlanadi. Natijada, iqtisodiy integratsiyani davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik jarayoni sifatida tasvirlash mumkin, bu esa davlatlararo bitimlar va kelishilgan holda tartibga solinadigan davlatlararo tuzilmalar shaklini oladigan iqtisodiy mexanizmlarni bir-biriga yaqinlashtirishga olib keladi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ikkita tendentsiya mavjud. Bir tomondan, jahon iqtisodiyotining yaxlitligi, uning globallashtirish kuchaymoqda, bu mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi, savdoni liberallashtirish, zamonaviy aloqa va axborot tizimlarini, jahon texnik standartlari va normalarini yaratish bilan bog'liq.

Boshqa tomondan, mamlakatlarning mintaqaviy darajada iqtisodiy yaqinlashuvi va o'zaro ta'siri yuzaga kelib, jahon xo'jaligining nisbatan mustaqil markazlarini tashkil etish yo'nalishida

rivojlanayotgan yirik mintaqaviy integratsiya tuzilmalari shakllanmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ega bo'lgan bir nechta mamlakatlar iqtisodiyotlarining yagona iqtisodiy organizmni yaratishga qaratilgan yaqinlashish va o'zaro bog'lanish jarayonidir.

Boshqacha aytganda, bu chuqur barqaror munosabatlarni rivojlantirish va milliy xo'jaliklar o'rtasida mehnatni taqsimlash, ular iqtisodiyotining turli darajalarda va turli shakllarda o'zaro ta'siri asosida mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy birlashuv jarayonidir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shved iqtisodchilarining asarlarida birinchi marta ishlatilgan. Integratsiya so'zi lotin tilida "integratio" so'zidan olingan bo'lib, "qo'shib ketish", "birlashish", "qismlarning bir butunlikka aylanishi" deb tarjima qilinadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur barqaror o'zaro aloqalar va mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarishning yuqori darajadagi baynalmilallashuvi tushunilib, u qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish tarkibining asta-sekin qo'shib ketishiga olib keladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya o'z rivojlanishida to'rt bosqichdan o'tdi: milliy tovarlarni jahon bozoriga chiqarish; milliy ishlab chiqarish omillarini (kapital va ishchi kuchini) jahon bozoriga chiqarish; TMK va mintaqaviy xalqaro tuzilmalar jahon maydoniga chiqishi; globallasuv.

Tahlillar ko'rsatishicha, XII quyidagi ob'ektiv omillar va sabablarga asoslanadi:

- xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining o'sib borishi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon ilmiy-texnika taraqqiyotining o'ziga xosligi;
- milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining ortishi;
- integratsiyalashayotgan mamlakatlarda daromadlarning ortishi;
- yangi savdo oqimlarining paydo bo'lishi;
- ishlab chiqarish xarajatlari, tovarlar va xizmatlar narxining pasayishi tufayli iqtisodiy farovonlikning o'sishi;
- integratsion birlashmaga a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy pozitsiyasining mustahkamlanishi;

- mintaqada siyosiy hamkorlikning rivojlanishi va integrasion birlashmaga a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan siyosiy pozitsiyasining mustahkamlanishi.

Ushbu omillarning barchasi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, integrasiya mamlakatlar o'rtasidagi (xalqaro meqnat taqsimoti asosida) barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va qayta ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chetga chiqishi jarayonidir.

12.2. G'arbiy Yevropa iqtisodiy integrasiyasi. Yevropa ittifoqi.

Integrasiya G'arbiy Yevropa mamlakatlari istisodiyotida o'zining eng to'liq rivojlanishiga erishdi. G'arbiy Yevropa integrasiyasi ob'ektiv iqtisodiy jarayonlardan tashqari V. Gyugo, I. Kant kabi ko'plab Yevropa siyosiy va jamoat arboblari, mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan yagona Yevropa g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Yevropa Ittifoqining tashkil topishi va rivojlanishining zamonaviy tarixi 1951 yildan boshlanadi. Shu yil aprel oyida Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Unga oltita mamlakat – Frantsiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg kirdi. Bu G'arbiy Yevropa integrasiyasining o'ziga xos ibtidosi edi. G'arbiy Yevropa integrasiyasining real paydo bo'lishi va rivojlanishi 1957 yilga to'g'ri keladi. Shu yili yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlar Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) va Yevropa atom energiyasi hamjamiyati (Yevratom) tashkil etish to'g'risidagi shartnomalarni imzoladilar. Hamjamiyatlar tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirdi, bu ularning keyingi 15 yil mobaynida iqtisodiy o'sishining yuqori sur'atlarini belgilab berdi.

G'arbiy Yevropa integrasiyasining rivojlanishi 50-yillar oxiridan boshlab hozirgi vaqtgacha notekis va nisbatan ziddiyatli kechdi. Shu bilan birga Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishda oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalar yetarlicha izchil va muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

G'arbiy Yevropa iqtisodiy integrasiyasi rivojlanishi jarayonini shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillar oxiri-70-yillar o'rtasi). Hamjamiyat hayotidagi «oltin asr» hisoblanadi. Ushbu bosqich bo'xona Ittifoqining muddatidan oldin tashkil etilishi yagona agrar bozorning nisbatan muvaffaqiyatli shakllantirilishi, Yevropa Ittifoqiga uchta yangi

mamlakat: Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiyaning kirishi bilan xarakterlanadi.

Ko'pincha "umumiy bozor" deb yuritiladigan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi savdoda barcha cheklovlarni asta-sekin bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy bojxona tarifini belgilash;
- "insonlar, kapital, xizmatlar" erkin harakat qilishi uchun cheklovlarni tugatish;
- transport va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqini tashkil etish;
- soliq tizimini birxillashtirish;
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- kelishilgan iqtisodiy siyosat printsiplarini ishlab chiqish¹.

Qatnashchi mamlakatlar tovarlari, kapitallari, xizmatlari va ishchi kuchi umumiy bozori tashkil etilishi vazifasining hal etilishini YeIH o'zining birinchi maqsadi qilib qo'ydi. Buning uchun bojxona Ittifoqi tashkil etildi. YeIHga aynan bojxona Ittifoqi asos qilib olingan. Bojxona Ittifoqi doirasida:

- qatnashchi mamlakatlarning o'zaro savdosidagi savdo cheklovlari bekor qilindi;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tarifi belgilandi;
- kapitallar, kreditlar harakati, pul o'tkazmalari, xizmatlar ko'rsatish erkinligiga erishildi;
- ish kuchining erkin migrasiyasi va yashash joyini erkin tanlash ta'minlandi.

Ushbu choralarning barchasi sanoat integrasiyasining jadallashuviga ko'maklashdi. Ayni bir vaqtning o'zida kompensasiya yig'implari va qishloq xo'jaligi jamg'armasi orqali moliyalashtirish yordamida umumiy proteksionizm o'rnatish shaklida agrar integrasiyani amalga oshirishga urinib ko'rildi. YeIning agrar siyosati uning azolari bo'lgan mamlakatlarning ko'plab qishloq xo'jaligi

¹ Шодиев Р.Х., Махмудов Э. “Жаҳон иқтисодиёти”. – Т.: “Ғофур Ғулом”, 2005.- 92 бет

mahsulotlari uchun birdek minimal narxlar belgilanishini kafolatlovchi narxlarning yagona tizimiga asoslanadi.

Umumiy bozor shakllantirilishi YeIH milliy monopoliyalarining transmilliy monopoliyalarga aylanishi jarayonini tezlashtirdi, sherik mamlakatlar iqtisodiyotiga kirib borishga ko'maklashdi.

Ikkinchi bosqich (70-yillar o'rtasi-80-yillar o'rtasi) YeI tarixiga Yevropa valyuta hamkorligi dasturi qabul qilinishiga, tashqi siyosiy kelishuvlarga muvaffaq bo'linganligi sifatida kirdi. Biroq, baribir paydo bo'lgan salbiy tendentsiyalar ushbu davrda G'arbiy Yevropa iqtisodiy integrasiyasining jiddiy tangligiga olib keldi. 70-yillarda va 80-yillar boshida YeI mamlakatlari o'rtasidagi rivojlanish darajasidagi tafovut ko'paydi. 1981 yilda Gresiyaning YeI ga kirishi bilan ushbu tendentsiya yanada aniqroq namoyon bo'ldi, chunki ushbu mamlakatning iqtisodiyoti hamjamiyatning boshqa qatnashchilariga taqqoslaganda ancha past darajada edi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi-90-yillar boshi) – hamjamiyat tarkibining yanada kengayish bosqichi bo'ldi. 1986 yilda Ispaniya va Portugaliyaning qo'shilishi ilgari mavjud bo'lgan mamlakatlararo nomutanosiblikning keskinlashuviga olib keldi. Shu bilan birga ayni ushbu davr G'arbiy Yevropa integrasiyasi rivojlanishidagi yangi kuchayish bilan xarakterlanadi. Bu eng avvalo, Yagona Yevropa akti (YYA) qabul qilinishi bilan bog'liqdir.

YYAda hamjamiyat qatnashchilari bo'lgan mamlakatlarning umumiy maqsadi – Yevropa Ittifoqi tashkil etish tasdiqlandi. Yevropa Ittifoqi o'zida hamjamiyat qatnashchilarining siyosiy alyansini ifodalalar va ularning iqtisodiy, valyuta-moliyaviy, insonparvarlik hamkorligining yuqori darajasinigina emas, balki tashqi siyosatni, shu jumladan, xavfsizlikni ta'minlashni kelishishni ham nazarda tutar edi. Yagona Yevropa aktida yagona iqtisodiy makon barpo etish maqsadi unda qayd etilgan markaziy qoida edi. YeIH qatnashchilari bo'lgan mamlakatlar yagona xo'jalik organizmini tashkil etishi kerak edi. 90-yillar boshida YeI a'zosi bo'lgan mamlakatlar yagona bozor asoslarini barpo etishni amalda tugalladilar va valyuta-iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga juda yaqinlashib qoldilar.

To'rtinchi bosqich (XX asrning 90-yillari o'rtasi -XXI asr boshi) da yagona Yevropa aktiga muvofiq 1993 yil yanvardan boshlab hamjamiyat chegaralari ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakat qilishi joriy etildi. Amalda hamjamiyat doirasida yagona

iqtisodiy makon paydo bo'ldi, bu YeIning iqtisodiy integrasiyaning sifat jihatidan yangi bosqichiga kirganligini anglatar edi.

Maastrixt shartnomasi asosida (1992 yil fevral) 1994 yil 1 yanvardan boshlab YeIH qatnashchi mamlakatlari soni 15 ta bo'lgan Yevropa Ittifoqiga aylantirildi. YeI doirasida to'liq yagona ichki bozor tashkil etish amalga oshirildi. Bundan buyongi integrasiya hamkorligi maqsadlari e'lon qilindi. Ular yagona valyuta – yevro emissiyasi huquqi bilan yagona Yevropa banki, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa makoni barpo etilishini o'z ichiga olar edi.

Maastrixt bitimlari (1991 yil, dekabr) G'arbiy Yevropa integrasiyasining rivojida sifat jixatidan yangi bir bosqich xisoblanadi, zero, unda mamlakatlarni mikro darajada bir-biriga yaqinlashtirish vazifasi qo'yilgan edi.

Maastrixt bitimlari Yevropa Ittifoqiga quyidagi vazifalarni yuklagan:

- yagona valyuta yaratish va uni boshqarish;
- yagona iqtisodiy siyosatni, ayniqsa, uning byudjet ishlariga taalluqli qismini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, (urinli topilganda) kuchaytirish;
- erkin raqobatga asoslangan yagona bozorni tashkil etish va himoyalash;
- boy va qashshoq mintaqalar o'rtasida tenglikka intilish hamda (imkon bo'lgan joylarda) mablag'larni qayta taqsimlash;
- qonunchilik va tartib-qoidani qo'llab-quvvatlash;
- ayrim fuqarolarning tub huquqlarini e'tirof etish va rivojlantirish;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan bamaslahat yuritiladigan savdo, keyinroq esa umumiy iqtisodiy siyosat to'g'risida, iqtisodiy siyosatni yagonalashtirish borasida ham kelishib olishlarini nazarda tutadi¹.

"Yagonalashgan", muvofiqlashtirilgan umumiy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni taqozo etuvchi mazkur qoidalarni ro'yobga chiqarish yo'lida esa ijroiya – muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan xalqaro davlat tashkilotlariga ehtiyoj tug'ildi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati qabul qilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish jarayonida:

- 1) sanoat integrasiyasining jadallashuvi ta'minlandi;

¹ Шодиев Р.Х., Махмудов Э. “Жаҳон иқтисодиёти”. – Т.: “Ғофур Ғулом”, 2005.- 98 бет б

2) qishloq xo'jalik jamg'armasi faoliyati orqali birgalikda homiylik o'rnatish, to'lov yig'imlarini joriy etish shaklida agar integrasiyani jadallashtirishga harakat qilindi;

3) Yevropa valyuta tizimi yuzaga keldi.

Ana shu chora-tadbirlarning barchasi iqtisodiy integrasiyaning keng tomir yoyishiga, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati ta'sir doirasining kengayishiga olib keldi.

12.3. MDH davlatlarining iqtisodiy hamkorlik muammolari

O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimiga integrasiyalashib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan taraqqiy etib bormoqda.

O'zbekistonning MDH va iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti kabi integrasiya uyushmalarida ishtirok etishi mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro'-e'tiborini yanada oshiradi.

O'zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari bilan aloqalarga ustuvor ahamiyat berib, MDH tuzish g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Bunday hamkorlikka Hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'likligi, nafaqat bog'likligi, balki chuqur tarixiy, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Hamdo'stlik birlashmasi maqsaddari quyidagilardan iborat:

- demokratik huquqiy davlatlar tuzish, ular o'rtasidagi munosabatlar davlat mustaqilligini hamda suveren tenglikni o'zaro tan olish va hurmatlash, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik, har qanday tazyiqlardan voz kechish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan kichik millatlar huquqlarini hurmat qilish, majburiyatlarini va boshqa umum tan olingan xalqaro huquq tamoyillari va normalarini halol bajarish;
- bir-birlarining hududiy butunligi va mavjud chegaralarning buzilmasligini tan olish va hurmat qilish;
- chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan xalqlarning tub manfaatlarini hamda qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;
- fuqarolararo va millatlararo totuvlikni saqlash.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining MDHga a'zoligi unga bir qator muhim vazifalarni millat, iqtisodiyot manfaatlariga muvofiq hal etish imkonini beradi:

- ishlab chiqarishni, aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutuvchi kooperativ xo'jalik aloqalarini rivojlantirish va takomillashtirish;
- MDHning bir qator tovarlarini milliy bozorda, jumladan, an'anaviy mahsulotlarni sotish sohasida yetakchi mavqeni saqlash;
- sobiq ittifoqchi respublikalar ega bo'lgan xomashyo resurslaridan foydalanish;
- O'zbekistonning uchinchi mamlakatlarga eksport-import tovar oqimiga xizmat ko'rsatuvchi transport kommunikasiyalaridan kafolatli va xatarsiz foydalanish.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiy erkinlashtirish, uni bozor tamoyillariga izchillik bilan o'tkazish, xo'jalik tuzilmasini qayta qurishdan iborat umumiy yo'l bilan belgilanadi.

MDH mamlakatlari O'zbekistonning asosiy savdo-iqgisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ularning hissasiga respublikamiz tashqi savdo umumiy hajmining 30% dan ortig'i to'g'ri keladi. O'zbekiston va MDH mamlakatlari tovar ayirboshlash dinamikasi tenglik va o'zaro foydali tamoyillarga asoslangan, savdo-iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy munosabatlarning shakli va tarkibi MDH mamlakatlari bilan tubdan o'zgarib bormoqda. O'zbekistonning mavqei tobora mustahkamlanmoqda. O'zbekiston MDHning aksariyat mamlakatlari bilan savdo-to'lov balansida ijobiy saldoga ega.

O'zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo'jaligi integrasiyasida samarali ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolarini hal etishni, jumladan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Ushbu holat xalqaro kreditlar olishda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilishda, milliy mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Iqtisodiy integrasiyaning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning bosqichlarini tavsiflab bering?

3. Erkin savdo hududlarini tavsiflab bering.
4. Integrasion jarayonlar milliy davlatlar iqtisodiyotini rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini xarakterlab bering.
5. YeI qachon va qaysi davlatlar tomonidan tashkil etildi.
6. Jahondagi integrasion birlashmalar haqida siz nima bilasiz?

TESTLAR

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat bu:

- a) korxonaning tanlangan tashqi iqtisodiy startegiya va xorijiy bozorlarda faoliyat yuritish shakllari va usullarini hisobga olgan holda, jahon bozoriga yo'naltirilgan tashqiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-xo'jalik va tijorat funktsiyalarining majmui;
- b) turli xil mamlakatlar kontragentlarining (tashqi savdo opreasiyasi bo'yicha xorijiy hamkorlar) savdo bo'yicha ayirboshlashni tayyorlash, amalga oshirish va ta'minlashga qaratilgan harakatlari majmui;
- c) hamkorlikdagi va buyurtma ishlarini amalga oshirish, ilmiy-texnik hujjatlarni, ilmiy asbob-uskunalar va mahsulot va materiallarning tajriba namunalarini tayyorlashga, ilmiy-texnik ekspertizalar va xorijda konsultasiyalarni olib borish bo'yicha buyurtmalarni amalga oshirish.
- d) barcha javoblar to'g'ri

2. TIF ishtirokchilarini qaysi belgi bo'yicha tasniflash mumkin emas:

- a) tashqi iqtisodiy faoliyat profili bo'yicha;
- b) amalga oshiriladigan tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha;
- c) uzoq muddatli arenda bo'yicha
- d) barcha javoblar to'g'ri

3. Quyidagi xalqaro tijorat opreasiyalarining qaysi biri asosiy hisoblanmaydi?

- a) tovarlarni material-moddiy shaklda ayirboshlash;
-) texnik xizmatlarni (konsultativ va qurilish injiniringi) ayirboshlash opreasiyalari;
- c) yuklarni sug'urtalash operatsiyalari.
- d) barcha javoblar to'g'ri

4. Xalqaro savdo opreasiyalarining qaysi sub'ektlari turli xil savdo-vositachilik operatsiyalarini amalga oshira olmaydilar:

- a) agentlik firmalari;
- b) savdo firmalari;
- c) sug'urta firmalari

5. Reeksport operatsiyalari – bu.....

- a) amalga oshmagan eksport operatsiyalaridir, ular mamlakatga oldin olib chiqilgan tovarlarni qayta olib kirishni bildiradi;
- b) mamlakatga oldin olib kirilgan tovarlarni qayta ishlovsiz olib ketish va sotishni nazarda tutadi;
- c) unda har ikkala tomondan bir qancha tovarlar almashiladi;
- d) antidemping nazoratining bir turi.

6. Lisenziyalash – bu:

- a) importchi tomonidan tovar harid qilishdan oldin bankka garov sifatida qo'yiladigan foizsiz pul;
- b) ma'lum miqdordagi tovarlarni olib kirish (chiqish) uchun vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma;
- c) tovarlarning ayrim turlarini olib kirish (chiqish)ga ma'lum muddatga davlat tomonidan qo'yiladigan qiymat yoki miqdoriy cheklovlar

7. Kvotalash – bu:

- a) importchi tomonidan tovar harid qilishdan oldin bankka garov sifatida quyiladigan foizsiz pul;
- b) tovarlarning ayrim turlarini olib kirish (chiqish)ga ma'lum muddatga davlat tomonidan qo'yiladigan qiymat yoki miqdoriy cheklovlar
- c) ma'lum miqdordagi tovarlarni olib kirish (chiqish) uchun vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma.

8. Texnik to'siqlar bu –

- a) savdoni butunlay taqiqlab qo'yish;
- b) xorijiy tovarlarni import qilishda milliy standartlarga, o'lchov tizimiga va sifat nazoratiga, texnika xavfsizligi talablariga, sanitariya-veterinariya me'yorlariga, o'ramga joylashtirish, markalash qoidalariga mos kelmaslik tufayli yuzaga keladigan to'siqlar.
- c) importchi bozoriga ayrim tovarlarni olib kirishni cheklash to'g'risidagi eksportchi va importchi o'rtasidagi norasmiy kelishuv (aks holda importchi tomonidan yanada keskin choralarni qo'llash tahdidi ostida)

9. Notarif to'siqlar bu:

- a) bojxona chegarasidan tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish uchun belgilanadigan boj stavkalari;

- b) ichki bozorga xorijiy tovarlarning kirib kelishiga to'siqbo'ladigan yoki ulardan foydalanish imkoniyatini cheklaydigan taqiqlovchi yoki cheklovchi harakterdagi choralar;
- c) TIF ishtirokchilari kontragenti tomonidan nazorat maqsadida qo'llaniladigan choralar.
- d) barcha javoblar to'g'ri

10. Bojxona tarifi – bu:

- a) import va eksport o'preasiyalari bo'yicha to'lovlar, ya'ni bojxona bojlari miqdorini belgilovchi stavkalarining tizimlashtirilgan ro'yxati.
- b) tovarlar eksporti (importi) uchun bir martalik ruxsat;
- c) bojxona hududiga tovar olib kirish yoki ushbu hududdan tovarni olib chiqishda majburiy tartibda undiriladigan to'lov.

11. Embargo – bu usuli.

- a) kvotalashning;
- b) lisenziyalashning;
- c) sertifikatlashtirishning;
- d) antidemping nazoratining.

12. Lizing bu –

- a) qisqa muddatli ijara;
- b) o'rta muddatli ijara;
- c) uzoq muddatli ijara.
- d) barcha javoblar to'g'ri

13. Xalqaro tijorat operasiyalarini belgilovchi huquqiy shakl bu:

- a) xalqaro savdo bitimi bulib, majburiy shartidan biri xorijiy kontragent bilan tuzilishi lozim;
- b) sotuvchi tovarni kelishilgan muddatda va belgilangan shartlarda xaridor egaligiga topshirish majburiyati, xaridor esa tovarni qabul qilishi va kelishilgan narxni to'lash majburiyati to'g'risidagi bitim;
- c) hamkorlikdagi va buyurtma ishlarini amalga oshirish, ilmiy-texnik hujjatlarni, ilmiy asbob-uskunalar va mahsulot va materiallarning tajriba namunalarini tayyorlashga, ilmiy-texnik ekspertizalar va xorijda konsultasiyalarni olib borish bo'yicha buyurtmalarni amalga oshirish.
- d) barcha javoblar to'g'ri

14. Xalqaro tijorat bitimining belgilari quyidagilar:

- a) bitim predmetining sotuvchi mamalkat chegarasidan chiqishi;
- b) to'lovning xorijiy valyutada amalga oshirilishi;
- c) turli millat vaqillari o'rtasida bitimning amalga oshirilishi;
- d) korxonalarini turli mamlakatlarda joylashgan hamkorlar o'rtasida bitimning amalga oshirilishi.

15. Xalqaro me'yorlarga asosan xalqaro tijorat bitimi quyidagi shaklda kelishilishi mumkin:

- a) og'zaki,
- b) yozma,
- c) og'zaki hamda yozma.

16. Xalqaro me'yorlarga asosan xalqaro tijorat bitimining yozma shakli bo'lib _____ hisoblanadi.

- a) kontrakt,
- b) kontragentlar yozishmasi,
- c) eksportchining taklifi va xaridorning javobi,
- d) eksportchining taklifi va xaridorning aktsepti,
- e) xaridorning so'rovi va sotuvchi ofertasi.

17. Aniq xaridorga yuborilgan va javob berish uchun ma'lum muddatga ega bo'lgan sotuvchining taklifi:

- a) oferta
- b) aktsept
- c) qat'iy oferta
- d) erkin oferta

18. Tashqi savdo shartnomalarida sifatni aniqlash usuli tovarning xususiyatlaridan va xalqaro savdoda ushbu tovarga nisbatan shakllangan amaliyotdan kelib chiqib belgilanadi. Quyidagilardan qaysi biri sifatni aniqlash usuliga kirmaydi:

- a) standart bo'yicha
- b) tasvirlash bo'yicha
- c) namuna bo'yicha
- d) oliy nav
- t) qanday bo'lsa shunday

19. Shartnomadagi yetkazib berishning bazis shartlari _____ belgilaydi

- a) tovar tashish tartibini
- b) sotuvchi va xaridor o'rtasida tovar yetkazib berish xarajatlarining taksimlanishini
- c) bitim tavakalchiligining darajasi
- d) shartnoma bajarilishi uchun tomonlarning ma'suliyatini
- e) sotuvchidan xaridorga tavakalchilikning o'tish paytini

20. Tashqi savdo shartnomalari bo'yicha nizolar odatda _____ ko'rib chiqiladi.

- a) javobgar tomonning mahalliy sudida
- b) maxsus arbitrajda
- c) shartnoma imzolangan joydagi maxsus arbitrajda
- d) shartnoma ishtirokchilari tomonidan ko'rsatilgan arbitraj sudida

21. Qanday holatlar fors-major holatlari hisoblanadi:

- a) har qanday tabiiy ofatlar
- b) xalqaro savdoni tartibga solishning harqanday hukumat choralari
- c) tomonlar oldindan ko'ra olmagan favqulodda holat xarakteriga ega bo'lgan sharoitlar
- d) shartnomaning bajarilishiga to'sqinlik qiladigan shart-sharoitlar

22. Konsignasiya shartnomasi bo'yicha eksportchining tovarlari pirovard iste'molchiga sotishga kadar kaerda bo'ladi:

- a) eksport qilinadigan mamlakatda eksportchining omborxonasida
- b) import qilinadigan mamlakatda vositachi omborida
- c) import qilinadigan mamlakatda eksportchining omborida
- d) vositachining omborida uchinchi mamlakatda

23. Konsignasiya muddati davomida konsignator tomonidan sotilmay qolgan eksportchining tovarlari _____:

- a) eksportchiga qaytariladi
- b) konsignator tomonidan sotib olinadi
- c) hisobdan chiqariladi va yo'kotiladi
- d) har qanday boshka maqsadda ishlatilishi mumkin
- e) yoki eksportchiga qaytariladi yoki sotib olinadi

24. Aktsept bu:

- a) tasdiq
- b) rozilik
- c) rad javobi

25. Eksportchi bilan sotishga huquq berish to'g'risida kelishuv imzolagan vositachi eksportchining tovarlarini _____ sotadi.

- a) eksportchi nomidan va o'z hisobidan
- b) o'z nomidan va o'z hisobidan
- v) o'z nomidan va eksportchi hisobidan
- g) eksportchi nomidan va hisobidan

26. Xalqaro tijorat bitimlarida sharnoma narxlarini belgilashda quyidagilardan foydalaniladi:

- a) ishlab chiqaruvchining ichki narxlari;
- b) birja kotirovkalari;
- c) preyskurantlar va narxnomalar;
- d) jahondagi ilg'or eksportchilarning narxlari;
- e) jahon tovar bozorlarining ma'lumotnoma narxlari;

27. Tovarning qiymat xarakteristikalarini o'zida aks ettiruvchi hujjat:

- a) hisob - varaq faktura
- b) o'rama varag'i (upakovochniy list)
- c) texnik hujjatlar
- d) konosament

28. Sotuvchi potentsial xaridorga ma'lum muddatni ko'rsatgan holda taklif berib, ushbu muddat davomida boshqa xaridorga xuddi shunday taklif qila olmaydi. Bu -

- a) buyurtma
- b) qat'iy oferta
- c) erkin oferta
- d) aktsept

29. Salohiyatli xaridor bilan aloqa o'rnatishning qanday usullarida tashabbus sotuvchidan chiqadi:

- a) ofertani yuborish
- b) savdolarda ishtirok etish
- c) reklama joylashtirish

d) buyurtmani tasdiqlash

30. Tovarining tara bilan og'irligi, taraning qiymati tovarning qiymatiga tenglashtirilganda – bu

- a) brutto og'irlik
- b) netto og'irlik
- c) brutto og'irlik netto og'irlikka

31. Oldi-sotdi shartnomasida tovar sifatini aniqlashning qaysi usulida mahsulot tarkibida foydali moddalar mavjudligining minimal darajasini va nomaqbul element va qo'shimchalarning maksimal darajasini belgilashni ko'zda tutadi?

- a) standart bo'yicha;
- b) adolatli o'rtacha sifat bo'yicha;
- c) tovarda alohida bir moddalarning mavjudligi bo'yicha;
- d) tayyor mahsulotning chiqishi bo'yicha.

32. Tovar oldi sotdi bitmlarining qaysi turida konvertirlanmaydigan saldo hosil bo'ladi?

- a) barter bitimlarda
- b) to'g'ri kompensasion bitimlarda
- c) global kelishuvlarda

33. Bir tomonning mustaqil bo'lgan boshqa bir tomonga printsipal nomidan va hisobidan shartlashilgan hududda tovarni sotish va sotib olish bilan bog'liq amaliy va yuridik hatti-harakatlarni amalga oshirishni topshirish – bu.....

- a) qayta sotish (olib sotish) operatsiyasi
- b) agentlik operatsiyasi
- c) komission operatsiya
- d) brokerlik operatsiyasi

34. Injiringning qaysi turi texnika va uskunalarni yetkazib berish, yoki montaj ishlarini, zaruriyat bo'lganda injenerlik ishlarini bajarishni ko'zda tutadi?

- a) konsultativ
- b) texnologik
- c) qurilish
- d) kompleks

35. Kerakli atamani qo'ying.

Hisobvaraƣ fakturaday tovar narxi va tovar partiyasining qiymati to'g'risida ma'lumotni o'z ichiga oladigan, ammo unda ko'rsatilgan summani to'lash talabi bo'lmagani tufayli hisob-kitob hujjati hisoblanmaydigan, odatda tovarni konsignasiyaga, ko'rgazma, yarmarka va auktsionlarga berishda yoziladigan hujjat – bu.....

36. Tovar yetkazib berish shartlarining variantlari qaysi xalqaro shartnoma tomonidan taklif etilgan?

- a) Vena konventsiyasi
- b) YuNSITRAL
- c) INKOTERMS

37. Ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda qatnashuvchi mamlakatlarning o'zaro savdosi tamoyillari, huquqiy me'yorlari, savdo olib borish qoidalari va savdo munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish bilan shug'ullanuvchi tashkilotni aniqlang.

- a) BMTning taraqqiyot dasturi;
- b) Jahon banki;
- c) BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi;
- d) Jahon savdo tashkiloti.

38. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki nima maqsadda tuzilgan? a) Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini barqarorlashtirish uchun;

- b) Yevropa mamlakatlari valutasini mustahkamlash uchun;
- c) Yevropada integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qilish uchun;
- d) o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga iqtisodiy yordam berish uchun.

39. JSTning shtab kvartirasi qayerda joylashgan?

- d) Nyu-Yorkda;
- e) Londonda;
- f) Parijda;
- g) Jenevada.

40. JSTning yuqori organi — bu:

- a) Boshqaruvchilar Kengashi;
- b) Ministrlar konferensiyasi;
- c) Ijroiya direktorlar kengashi;
- d) Aksiyadorlar kengashi.

41. Quyidagilarning qaysi biri Umumjahon banki tarkibiga kirmaydi?

- a) Xalqaro hisob-kitoblar banki;
- b) Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki;
- c) Xalqaro moliya korporatsiyasi;
- d) Xalqaro taraqqiyot uyushmasi.

42. O'z nomiga patentlangan texnologiya litsenziyasini sotuvchi shaxs qanday nomlanadi?

- a) litsenziat;
- b) litsenziar;
- c) kopirayt;
- d) ixtirochi;

43. Hukumatning mutasaddi organi tomonidan ixtirochiga beriladigan va uning bu kashfiyotdan foydalanishdagi monopol huquqini tasdiqlaydigan guvohnoma:

- a) kopirayt;
- b) patent;
- c) litsenziya;
- d) opsion;

44. Xarid qilingan yoki ijaraga olingan mashina va uskunalarni o'rnatish hamda ishlatish uchun zarur bo'lgan texnologik bilimlarni taqdim etish qanday nomlanadi?

- a) patent shartnomasi;
- b) litsenziya shartnomasi;
- c) «nou-xau»;
- d) injiniring.

45. Immigratsiya nima?

- a) mehnatga yaroqli aholining boshqa mamlakatga ko'chib ketishi;
- b) yuqori malakali ishchilarning xorijga chiqib ketishi;
- c) emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishi;

d) mehnatga yaroqli aholining mamlakatga kirib kelishi;

46. Emigratsiya nima?

- a) mehnatga yaroqli aholining boshqa mamlakatga ko'chib ketishi;
- b) yuqori malakali ishchilarning xorijga chiqib ketishi;
- c) emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishi;
- d) mehnatga yaroqli aholining shu mamlakatga boshqa mamlakatdan kirib kelishi;

47. «Aqlning oqib o'tishi» nima anglatadi?

- a) mehnatga yaroqli aholining boshqa mamlakatga ko'chib ketishi;
- b) yuqori malakali mutaxassislamining xalqaro migratsiyasi;
- c) emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishi;
- d) mehnatga yaroqli aholining shu mamlakatga boshqa mamlakatdan kirib kelishi;

48. Shu mamlakatning rezidenti hisoblangan migrant ishchilarning mazkur mamlakatga pul o'tkazmalarni olib kirish va chiqarish o'rtasidagi farq:

- a) yalpi ixtiyordagi milliy daromad;
- b) sof transfertlar;
- c) sof omilli daromad;
- d) to'lov balansining joriy operatsiyalari saldosi;

49. Reemigratsiya nima?

- a) mehnatga yaroqli aholining boshqa mamlakatga ko'chib ketishi;
- b) yuqori malakali ishchilarning xorijga chiqib ketishi;
- c) emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishi;
- d) mehnatga yaroqli aholining boshqa mamlakatga ko'chib ketishi va yuqori malakali ishchilarning xorijga chiqib ketishi;

50. Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan asosiy farqi nimada?

- a) investor boshqa mamlakat rezidenti bo'ladi;
- b) xorijiy investitsiyalar faqatgina portfel investitsiyalar ko'rinishida bo'ladi;
- c) mamlakatdagi xususiylashtirish jarayonida qatriashadi;
- d) to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida bo'ladi.

51. Xalqaro kapitallar migratsiyasi —bu:

- a) TMKning xorijdagi to'Var va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasi;
- b) kompaniyalarning xalqaro bozorlarda aksiyalarning yirik paketi yoki korxonani to'liq sotib olishlari jarayoni;
- c) jahon iqtisodiyotining turli mamlakatlari o'rtasida egalariga qo'shimcha daromad keltiruvchi kapitalning qarama-qarshi harakati;
- d) xalqaro investitsiya oqimlari harakatini erkinlashtirishga qaratilgan xalqaro tartibga solish chora-tadbirlari tizimi

52. Quyidagilarning qaysi biri kapital eksportining sabablari hisoblanadi?

- a) texnologik ustunlik va transport xarajatlarining past darajasi;
- b) ishchi kuchi malakasidagi ustunlik va siyosiy beqarorlik;
- c) miqyos samarasi va transaksion xarajatlar;
- d) texnologik ustunlik, ishchi kuchi malakasidagi ustunlik

53. Quyidagilardan qaysi biri kapital importiga sabab bo'lmaydi?

- a) ishlab chiqarish xarajatlari;
- b) texnologik yetakchilik;
- c) ishchi kuchi kvalifikatsiyasidagi ustunlik;
- d) transportga xarajatlarni kamaytirish;

54. Importni kamsitishga qaratilgan, xorijiy raqobatchilar bilan bellashayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini budjet tomonidan moliyalashtirish bilan bog'liq savdo siyosatining moliyaviy- dastagi – bu:

- a) dempingga qarshi bojlar;
- b) proteksionizm;
- c) ichki subsidiyalar;
- d) tarif eskalatsiyasi.

GLOSSARIY

Avizo – o‘zaro hisob-kitoblar holatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida bir kontragentning ikkinchi kontragentga jo‘natadigan xabari, shu jumladan uning hisob varag‘iga o‘tkazmalar kelib tushgani haqida, akkreditiv ochilishi va hokazolar to‘g‘risida bank tomonidan mijozga yuboriladigan xabarnoma.

Avtarkiya – mamlakatning jahon bozorida ixtiyoriy yoki majburiy tarzda mahdudlanish siyosati, davlatning xo‘jalik jihatidan alohida yashashi. Olib kiriladigan tovarlarga yuqori cheklash bojlarining belgilanishi, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi shart-sharoitlarni yaratish avtarkiyaning asosiy vositalari hisoblanadi.

«**Aqlning oqib o‘tishi**» – yuqori malakali mutaxassisning mamlakatlararo migratsiyasi.

ASEAN – 1967-yilda Bruney, Vyetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin tomonidan tashkil etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi.

APEC – 1989-yilda Avstraliyaning taklifi bilan Tinch okeani xavzasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati.

Bashorat qilish - kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli hodisa va jarayonlarni statistik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turdagi tadqiqotlar yordamida ilmiy asoslangan holda avvaldan aytib berish.

Bojxona boji – bojxona organlari tomonidan tovarlar import va eksport qilinayotganda undiriladigan hamda eksport-importning sharti hisoblangan majburiy to‘lov.

Bojxona ittifoqi – o‘zaro savdoda bojxona to‘siqlari bekor qilingan va a‘zo bo‘lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi.

BENILYUKS – 1960-yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o‘rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq.

BRIC – barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga, jahon iqtisodiyoti va savdosida salmoqli ulushga ega Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoydan iborat mamlakatlar guruhi.

Demping – savdo siyosatining moliyaviy metodi bo'lib, tovarni tashqi bozorga mamlakatdagi mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish.

Davlatning migratsiya siyosati – ishchi kuchi eksporti-importini tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati.

Devalvatsiya – milliy valuta kursining kamaytirilishiga qaratilgan tadbir. Derivativlar – biron-bir moliyaviy dastakning hosilaviy shakli.

Eksport – tovarlarni xorijga olib chiqib ketishni ko'zda tutuvchi tovarlar savdosi.

Eksportga yo'naltirilgan siyosat – ayrim tovarlarni tashqi bozorga chiqarish uchun ushbu tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari).

Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modeli – milliy iqtisodiyotning ustun darajada tashqi bozorga, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modeli.

Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, ularda mamlakatda qabul qilingan normal xo'jalik faoliyat yuritishi tartibiga qaraganda nisbatan imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi.

Erkin savdo siyosati – tashqi savdodagi to'siqlarni minimallashtirish siyosati.

Eksportni ixtiyoriy cheklash – rasmiy davlatlararo yoki tovar eksportiga norasmiy kvota belgilash to'g'risida savdodagi hamkor tomonidan savdoni cheklash yoki eksportni kengaytirmaslik to'g'risidagi majburiyatiga asoslangan eksportni miqdor jihatidan cheklash.

Eksportni kreditlash – tashqi savdoning notarif moliyaviy metodi bo'lib, davlat tomonidan milliy firmalar eksportini rivojlantirish uchun moliyaviy rag'batlantirishni ko'zda tutadi.

Eng qulay savdo rejimini yaratish – bu xalqaro savdo shartnomalarida qat'iy belgilangan shart bo'lib, shartnoma tuzuvchi shartnomalarining bir-biriga barcha huquq, afzallik va imtiyozlarni taqdim etish ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu mamlakatlar yoki uchinchi davlat ulardan foydalanilishi mumkin.

Emigratsiya – mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan ko'chib ketishi.

Erkin konvertirlanadigan valuta – har qanday xorijiy valutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valuta.

Erkin savdo zonasi – tarif va boshqa cheklovlar bekor qilingan holda erkin savdo olib borish imkoni bo‘lgan hudud.

GATT – dunyoning yetakchi mamlakatlari tomonidan xalqaro savdodagi cheklovlarni kamaytirish bo‘yicha tuzilgan ko‘p tomonlama hukumatlararo kelishuv.

GATS – xizmatlar savdosi bo'yicha ko‘p tomonlama hukumatlararo kelishuv.

Globalashuv – jahon iqtisodiyotining integrasiyalashuv, transmilliylashuv va baynanmilliylashuv jarayonlari.

Import – tovarlarni xorijdan olib kirishni ko‘zda tutuvchi tovarlar savdosi.

Ichki bozor – barcha ishlab chiqarilgan va sotishga mo‘ljallangan mahsulotlarni ichki bozorda sotishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

Ilmiy-texnik salohiyat– mamlakatdagi fan, texnika va muhandislik ishlarining rivojlanish darajasi, jamiyatning fan-texnika muammolarini hal qilish uchun mavjud resurs va imkoniyatlarining umumiy tavsifnomasi.

Investition siyosat – kapital qo‘yilmalarning eng ustivor yo‘nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so‘mga mahsulot o‘lishi va milliy daromadning eng yuqori ko‘rsatkichlariga erishish.

Investitsiyalar - mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxonalar yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag‘lar kiritilishi.

Investor - biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat.

Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (MIGA) – 1988-yilda a‘zo mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan tashkilot.

Injinerlik - tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-maslahat xizmatlari ko‘rsatilishi.

Innovatsiya - jamiyat rivojlanishi bilan o‘zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) - 1975-yilda tashkil topgan bo'lib, maqsadi a'zo-mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo-sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

Iqtisodiy va valuta ittifoqi – ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta'minlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, energetika, valuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valuta muomalaga kiritilgan mamlakatlar guruhi.

Jahon iqtisodiyoti – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali o'zaro aloqada bo'lgan milliy iqtisodiyotlar yig'indisi.

Jahon xo'jaligi – bir-biri bilan harakatchan ishlab chiqarish omillari orqali bog'langan milliy iqtisodiyotlar yig'indisi.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimoti va boshqa ishlab chiqarishga asoslangan barqaror tovar-pul munosabatlari sohasi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozoriga aylanish jarayoni.

Ko'pmillatli korporatsiyalar (KMK) – bosh kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, xorijiy bo'limlari turli mamlakatlarda joylashgan korporatsiyalar.

Kooperastiya qilish - yakuniy mahsulotni birgalikda tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini o'rnatish.

Listenziya - qonunda belgilangan muayyan xo'jalik operastiyalari, jumladan, tashqi savdo (eksport va import) operastiyalarini amalga oshirish bo'yicha, vakolatli davlat idoralarining huquqiy shaxslarga beruvchi maxsus ruxsatnomasi.

Litsenziyalash – davlat mutasaddi organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga ruxsat berish orqali eksport yoki import qilinayotgan tovarlarni muayyan vaqt mcbaynida ma'lum miqdorda eksport yoki import qilishga ruxsat berish.

Litsenzion to'lov – litsenziat tomonidan shartnoma predmetidan foydalanganligi evaziga litsenzialarga to'lanadigan to'lov.

Litsenziya – texnologiya egasi (litsenziar) tomonidan manfaatdor tomonga (litsenziatga) patent bilan himoyalangan yoki himoyalangan texnologiyadan muayyan muddat va to'lov evaziga foydalanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Litsenziya shartnomasi – xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq kashfiyot egasi texnologiyaga bo'lgan egalik huquqini xaridorga muayyan chegara va shartlarda foydalanish uchun beradi.

London klubi – xususiy sektorga kiruvchi xo'jalik subyektlarining tashqi qarzlarini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi xalqaro klub.

Mehnat taqsimoti – tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimi bo'lib, u jamiyatning rivojlanish jarayonidagi faoliyatning sifat jihatdan tabaqalashuvi natijasida shakllanadi.

Ochiq iqtisodiyot – tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlangan, milliy iqtisodiyot ning nisbiy ustunliklariga tayanib, jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashib boruvchi iqtisodiyot.

Omili xizmatlar – ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati natijasida yuzaga keluvchi xizmatlar.

Omil bo'lmagan xizmatlar – ularga transport, turizm va boshqa nomoliyaviy xizmatlar kiradi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) — 1966-yilda tashkil topgan bo'lib, maqsadi qit'aning rivojlanayotgan mamlakatlariga iqtisodiy rivojlanishda ko'maklashish, hududiy hamkorlikni rag'batlantirish, a'zo-mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Proteksionizm – tarif va notarif instrumentlarni qollash yo'li bilan ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilishning davlat siyosati.

Portfel investitsiyalar – kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxonalar ustav kapitalining 10 % dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo'lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Patent – hukumatning mutasaddi organlari tomonidan ixtirochiga beriladigan guvohnoma bo'lib, u ixtirodan foydalanishda monopol huquqni beradi.

Qisman konvertirlanadigan valuta – xorijiy valutalarining ma'lum bir qismigagina ayirboshlanadigan, xorijiy valutani sotib olishda va sotishda cheklashlar mavjud bo'lgan valuta.

Qo'shma korxonalar – integratsiyalashgan kooperatsiya.

Resurslar asosida ishlovchi tarmoqlar – xomashyoni tashish xarajatlari tayyor mahsulotni tashish xarajatlaridan qimmatga tushadigan tarmoqlar.

Reemigratsiya – emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlari.

Royalti – shartnomaning amal qilish muddati davrida xaridor daromadidan litsenziyadan foydalanishda oladigan foydasi hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ajratmalar.

Savdo qilinmaydigan mahsulotlar – ishlab chiqarilgan mamlakat bozorida sotilib, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etmaydigan mahsulotlar.

Savdo qilinadigan xizmatlar – bir mamlakat rezidenti tomonidan ishlab chiqariladigan va boshqa mamlakat rezidenti tomonidan iste'mol qilinadigan xizmatlar.

Subsidiyalar – milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importni bilvosita kamsitishga qaratilgan davlat budjetidan ajratiladigan pul to'lovlari.

Tashqi savdo siyosati – milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbar-doshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga, qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarif eskalatsiyasi – tovarlardan undiriladigan import bojining mahsulot qayta ishlanganlik darajasining chuqurlashuviga mos ravishda ortib borishidir.

Texnologik taraqqiyot – innovatsion jarayonlar, texnik bilimlar, boshqaruv jarayonlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Texnik to'siqlar – yashirin proteksionizm usuli bo'lib, milliy texnik, ma'muriy me'yorlar va qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni xorijdan mamlakat ichki bozoriga olib kirishga to'sqinlik qiladi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo'lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to'la ega bo'lish yoki kamida 10 foizi xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) – bosh kompaniya bir mamlakat kapi taliga tegishli bo'lib, filiallari esa dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

To'lov balansi – mamlakatning muayyan davriy vaqt uchun tashqi dunyo bilan moliyaviy bitimlarining natijalarini hisoblash.

To'liq iqtisodiy integratsiya – yagona iqtisodiy siyosat yuritish, umumiy valuta va milliy boshqaruvdan yuqori tashkilotlarni joriy etish.

Valuta kursi – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligidagi bahosi.

Valuta operatsiyalari – xorijiy valutaning oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalar.

Valuta zaxiralarini diversifikatsiyalash – bir vaqtning o'zida bir nechta erkin almashadigan va barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish.

Xalqaro iqqisodiyot – turli mamlakatlarga tegishli xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

Xalqaro iqqisodiy munosabatlar – rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlari.

Xalqaro mehnat taqsimoti – bu davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimlanishi bo'lib, u alohida davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro ixtisoslashuv – mamlakatning ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishga o'z potentsialini kontsentrasiyalashuvi.

Xalqaro kooperasiyalashuv – mamlakatlarning oldindan o'zaro kelishilgan holda ishlab chiqarishga xalqaro ixtisoslashuvi.

Shartnoma asosida ixtisoslashish – ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperasiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «Adolat», 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida»gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi qonuni, 1996 yil.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2008 yil 24 uyuldagi PQ 927-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navoiy viloyatida erkin industrial- iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida» 2008 yil 3 dekabrda qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida» 2012 yil 13 aprelda qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilga mo‘ljallangan investitsion dasturi to‘g‘risida» 2012 yil 21 noyabrda qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida» 2010 yil 15 dekabrda qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2012 yil 9 martda qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Eksport qiluvchi korxonalarini rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatdosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2012 yil 26 martda qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to‘g‘risida» 2012 yil 10 mayda qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to‘g‘risida» 2012 yil 21 maydagi PQ 1758-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishga doir chora-tadbirlarini davom ettirish to‘g‘risida» 2012 yil 10 sentabrdagi PQ 1816-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida» 2013 yil 18 martdagi farmoni.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun tijorat banklariga kredit liniyalarini ochish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2009 yil 10 martdagi 61-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2010 yilda O‘zbekiston Respublikasiga xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, donor mamlakatlarning beg‘araz texnik ko‘magini (grantlarini) jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010 yil 9 martdagi 40-sonli qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2012-2015-yillarda nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish va turlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2012 yil 2 avgustdagi 234-sonli qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-2015 yillarda qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashni chuqurlashtirish, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va ularning turlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2012 yil 23 avgustdagi 252-sonli qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2012 yil 28 noyabrdagi 333-sonli qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartibotlarni liberallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2012 yil 30 dekabrdagi 379-sonli qarori.

IV. Adabiyotlar

21. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

23. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o'quv qo'llanma. / A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev, Sh.I. Raxmanov, X.A. Usmanova. - T.: «Voriz-nashriyot», 2014. -320 bet.

24. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. / I.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: Moliya, 2011. 708-b.

25. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. / i.f.d., professor A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: «Moliya», 2010, 330 bet.

26. Алексеев И.С. Внешнеэкономическая деятельность / И.С. Алексеев. – М.: Дашков и К, 2010. – 304 с.

27. Андрианов А.Ю., Валдайцев СВ., Воробьев П.В. Инвестиции: учебник. М.: Проспект, 2007.

28. Баранов А.О. Платежный баланс России: от кризиса до кризиса. //ЕКО, No 2, 2011.

29. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д.э.н., проф. А.В.Вахабова - Т.: Молия, 2011. - 300 с.

30. . Внешнеэкономическая деятельность предприятия: учебник / под ред. д-ра экон. наук, проф. И.Н. Иванова. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 297с.

31. Волох В.А. Трудовая миграция: Политико-правовые и социально-экономические аспекты привлечения и использования иностранной рабочей силы. М., 2010. С. 18.

32. Воронкова О.Н. Внешнеэкономическая деятельность: организация и управление: учебное пособие для студ. вузов / О.Н.

Воронкова, Е.П. Пузакова; под ред. Е.П. Пузаковой. – М.: Экономистъ, 2008. – 624 с.

33. Зеркалов Д.В. Внешнеэкономическая деятельность: энциклопедический словарь / Д.В. Зеркалов. – Киев: Дакор: КНТ, 2008. – 544 с.

34. Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г. Глобализация и бедность. // Мировая экономика и международные отношения, №9, 2010.

35. Иванова Н. Инновационная сфера: контуры будущего. // Мировая экономика и международные отношения, №8, 2000.

36. Ивасенко А.Г., Никонова Я.И. Иностраннные инвестиции. – М.: КНОРУС, 2011.

37. Киреев А.П. Международная экономика. В 2-х ч. Ч. 1. Между народная микроэкономика: движение товаров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. – М.: Межд. отношения, 2000.

38. Кондратов Д. Перспективы евро для России: плюсы и минусы // Экономист, №12, 2011.

39. Маховикова Г.А. Внешнеэкономическая деятельность: [учебное пособие для студентов вузов] / Г.А. Маховикова, Е.Е. Павлова. – М.: Эксмо, 2009. – 320 с

40. Мухаев Р.Т. Система государственного и муниципального управления: учебник для студентов вузов / Р.Т. Мухаев. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 687 с.

41. Пискулов Ю.В. Международная торговля товарами и услугами: учеб. пособие / Ю.В. Пискулов. – М.: ВАВТ, 2010.

42. Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. – Т.: Молия, 2010.

43. Рахматуллаева Ф.М. Международный опыт в сфере развития туризма (на примере Турции) // “Иқтисодиёт ва таълим” журнали. № 5, 2018 йил. – Тошкент. Б. 184-190.

44. Родыгина Н.Ю. Организация и техника внешнеторговых операций / Н.Ю. Родыгина. – М.: Юрайт, 2008.

45. Стровский Л.Е. Внешнеэкономическая деятельность предприятия: учебник / Л.Е. Стровский, С.К. Казанцев, Е.Г. Шаблова; под ред. Л.Е. Стровского. – М.: Юнити-Дана, 2012. – 503 с.

46. Фаненко М. Международная ликвидность и диверсификация официальных резервных активов. // Мировая экономика и международные отношения, №6, 2007.

47. Федяшева Г. Развитие инновационного потенциала Узбекистана в условиях модернизации экономики. // Рынок, деньги, кредит, № 08(171), 2011.

48. Фролова Е. Д. Мировая экономика и международные экономические отношения: современное состояние, проблемы и основные тенденции развития: учебное пособие / под общ. ред. Е. Д. Фроловой, С. А. Лукьянова. – Екатеринбург: УрФУ, 2016. –184с.

49. Шафиев Р. Иностраннные инвестиции: мирохозяйственный аспект//Международная экономика. – 2014 – № 10 – С. 63-69.

50. Шевчук Д. А. Мировая экономика: Конспект лекций. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007

51. Dunning J. The Globalization of Business, Routledge, London.1993

V. Statistik to‘plamlar

52. International Trade Statistics 2013. World Trade Organization. Switzerland, 2020.

53. Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. TheWorld Bank. – Washington, 2020.

54. World Investment Report 2012: Towards a New Generation ofInvestment Policies. UNCTAD. Geneva, 2020.

55. WORLD MIGRATION REPORT 2020.- P.36.

VI. Internet resurslari

56. www.fiez.uz

57. www.imf.org

58. www.ft.com

59. www.unctad.org

60. www.oecd.org

61. www.itd.org

62. www.opic.gov

**RAXMATULLAYEVA F.M., ABDULLOYEV A.J., GIYAZOVA
N.B., NARZULLAYEVA G.S.**

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT VA RAQOBAT
MENEJMENTI**

O'quv qo'llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 12.04.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 9,5. Adadi 100. Buyurtma №95.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45